



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2019-YIL AVGUST  
KENGASHLARI UCHUN

**METODIK  
TAVSIYALAR**

Science

Technology

Engineering

Arts

Mathematics



Toshkent 2019



## Mundarija

|  |     |
|--|-----|
| 2019-2020 o‘quv yilidagi dolzarb vazifalar va tizim istiqbollari .....   | 3   |
| Umumiy o‘rta ta’lim mazmuni: 2019-2020 o‘quv yili tayanch o‘quv<br>rejasi, o‘quv dastur va darsliklardagi o‘zgarishlar ..... | 8   |
| Filologik ta’limda yangicha yondashuv .....  | 15  |
| Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy ta’lim<br>texnologiyalari .....   | 23  |
| Abdurauf Fitrat. She’rlar .....  | 24  |
| G‘afur G‘ulom. “Sog‘inish”, «Vaqt” she’rlari .....   | 24  |
| M. Shayxzoda. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi .....   | 24  |
| O‘zbek tili fanidan avgust kengashlariga tavsiya .....   | 33  |
| Chet tillarni o‘qitishdagi muhim vazifalar .....   | 40  |
| Методические рекомендации по проведению уроков русского<br>языка и литературы .....  | 45  |
| Tabiiy va iqtisodiy fanlarni o‘qitishda «STEAM» yondashuv .....  | 51  |
| Amaliy fanlar o‘qitishda kreativ yondashuv .....   | 63  |
| Maxsus ta’limdan inklyuziv ta’limga .....  | 84  |
| Zamonaviy maktab – Ta’lim strategiyasi-2030:<br>Yo‘nalishlar va ko‘rsatkichlar .....   | 89  |
| Zamonaviy maktab. Ta’lim trayektoriyasi va kasblar kompasi.<br>(Ta’lim 2030. Ekspertlar fikri-turkumidan lavha...) .....     | 110 |



## AVGUST KENGASHLARI - 2019

### 2019-2020 o'quv yilidagi dolzarb vazifalar va tizim istiqbollari

A.Yu.Umarov,  
Xalq ta'limi vazirining  
birinchi o'rinbosari

Ma'lumki, Avgust Kengashlari yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish, o'quv dasturlari, darsliklardagi o'zgarishlarni, yangi o'quv yilida tizim oldida turgan ustuvor vazifalarni tizim xodimlariga yetkazish borasida muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda jahon ta'lim makoniga kirib borishga mo'ljallangan yangi ta'lim tizimini shakllantirish jarayoni kechmoqda.

Ta'lim mazmun-mohiyatining o'zgarayotganligi, ta'lim berish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar hamda xalqaro tajribalarni joriy etish taklif etilayotgan bir davrda ta'lim berishga pedagogik munosabat ham o'zgarishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni bu boradagi islohotlar uchun dasturulamal hisoblanadi.

Avgust kengashlarining maqsadi yangi 2019-2020 o'quv yili oldidan ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar mazmun-mohiyatini pedagoglarga yetkazish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, shuningdek, xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalarni bajarishda ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagoglari oldida turgan vazifalarni belgilab olishdan iboratdir.

Xalq ta'limi tizimida ham o'tgan o'quv yili davomida qator ishlar amalga oshirildi, jumladan:

Umumiy o'rta ta'limning dasrliklari mazmunan yaxshilandi, yangicha formatda nashr etildi va ularning mazmuni o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirildi;

nashrdan chiqqan darsliklar har bir ta'lim muassasaga yetkazib berilishi bilan birgalikda o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun



7 tilda elektron shaklda xalq ta'limi vazirligining axborot-ta'lim portaliga joylashtirildi;

darsliklardagi mavjud xatoliklarni keng jamoatchilik ishtirokida aniqlash va bartaraf etish maqsadida "Darsliklarni birgalikda takomillashtiraylik" onlayn tanlovi e'lon qilindi;

maktablarni boshqarish jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun stat.uzedu.uz hamda xtv.uzedu.uz. elektron portallarida barcha maktablar haqida ma'lumotlar olinishiga imkoniyat yaratildi;

- o'quvchilar, o'qituvchilar, maktablarning elektron ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida «OpenEmis» axborot tizimi emis.uzedu.uz domenida ishga tushirildi;

- 53 ta maktabda «Kundalik» axborot tizimi tajribadan o'tkazilyapti, natijada real vaqt rejimida o'quvchilarning davomati hamda baholarining monitoringini olib borish imkoniyati yaratilmoqda.

Joriy yilda Toshkent, Nukus, Namangan va Xiva shaharlarida Prezident maktablarini ochish bo'yicha barcha tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, maktablarda faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi uchun Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "2019-2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-sonli qarori tasdiqlanib, uning asosida pedagogika yo'nalishi bo'yicha:

sirtqi bo'limga - 12 ming 20 talaba;

kechki bo'limga - 1 ming 425 nafar talaba (o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar) oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Eng asosiysi, o'qituvchilarni majburiy mehnat va majburiy obuna hamda turli yig'ilishlarga jalb etish to'xtatildi.

Pedagoglar yuritadigan hujjatlar soni 7 tadan 3 taga qisqartirildi. Shu bilan birga maktablarning tekshirish soni 26 baravar kamaydi.

"Xalq ta'limi fidoyisi" davlat mukofoti ta'sis etildi

Bundan tashqari, o'qituvchilarning oylik maoshlari toifasiga qarab 40% dan 72% ga oshdi. Psixologlar ish haqi 103%, maktab direktori va o'rinbosarlari, Axborot-resurs markazi rahbari va kutubxonachilar maoshlari 33% oshirildi.



Ta'lim muassasalarida jamoatchilik nazorati kuchaytirilib, Kuzatuv kengashlari joriy etildi. Maktab rahbariga daromadlarning jami summasidan 10 foizini o'z xohishiga binoan moddiy rag'batlantirish huquqi berildi.

Xabaringiz bor, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari 2017-2018 o'quv yilidan boshlab kompetensiyaviy yondashuv asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish boshlangan edi.

Boshlanayotgan 2019-2020 o'quv yili uchun umumta'lim maktablarining 1-, 3-, 8-, 9-sinflariga poligrafik va dizayn jihatidan zamonaviy talablarga javob beradigan to'liq to'plamdagi darsliklar, 2-, 4-sinf chet tili mashq daftarlari, 7-sinflar uchun chet tili darslik va metodik qo'llanmalar, ya'ni jami **479 nomdagi 36,5 mln. nusxa** darsliklar nashr qilinib, joylarga yetkazilmoqda.

Jumladan, iqtidorli o'quvchilar va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun 6-sinf Fizika, 7-8-sinf Algebra darsliklari yangidan nashr etilmoqda.

2019-2020 o'quv yilida chop etiladigan darsliklarning o'ziga xos xususiyati ham shunda ko'rinadi.

Birinchi navbatda, o'quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda tayyorlandi.

Ikkinchidan, darslik mazmunida mavjud bo'lgan takrorlanishlar bartaraf etildi, xalqaro tajribaga suyangan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o'zgartirishlar kiritildi.

Yana bir e'tiborli holat - fanlar kesimida fanlararo bog'liqlik hamda sinflararo uzviylik ta'minlandi.

Shuningdek, amaliy fanlar tarkibiga kiruvchi Musiqa darsligiga mustaqillik yillarida yaratilgan yangi kuy va qo'shiqlar kiritilib, musiqa savodiga oid topshiriqlarning uzviyligi ta'minlandi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo'yicha darsliklar mazmuniga xalqaro baholash dasturi PISA, TIMSS talablari singdirildi.

Eng muhimi, darsliklar innovatsion yondashuv asosida tayyorlandi. Bunda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan ta'limiy o'yinlar, mashqlar, masalalar va topshiriqlarga urg'u berildi.

Qolaversa, Texnologiya va 8-sinf Ona tili darsliklari mazmuni o'quvchilarning texnik qobiliyatini rivojlantirishga oid amaliy, kreativ, mantiqiy yondoshuvga asoslangan topshiriqlar bilan boyitildi. Bu jahonga mashhur STEAM texnologiyalari talablari asosida amalga oshirildi.



Yana bir yangilik 8-sinflar uchun Geografiya, Texnologiya va O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari darsliklariga QR-kod o‘rnatildi.

Tarix darsliklari xaritalar bilan boyitildi.

Ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun

8-9-sinf adabiyot darsliklariga 30 foizgacha o‘zbek va jahon adiblarining hayoti va ijodidan namunalar kiritilgani ham 2019/2020 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan darsliklardagi yangilik hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, o‘qitish samaradorligini va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg‘or tajribalarni keng ommalashtirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilayapti.

Yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish tobora ortib borayotganini e'tiborga olib, chet tili o‘qituvchilari bilan aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi pedagoglarning uzviylikda tashkil etib kelayotgan o‘quv seminarlari ham alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Xususan Namangan viloyatida o‘tkazilgan “Innovation Education Sammit-2019” - “Ta'limda innovatsiya” Respublika sammiti, Navoiy viloyati Zarafshon shahrida o‘tkazilgan “Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuv” mavzusidagi o‘quv-seminarlarda boshqa fan o‘qituvchilari o‘z dars mashg‘ulotlarini ingliz tilida olib borishi orqali iqtidorli o‘quvchilarni xalqaro fan olimpiadalariga tayrgarlik ko‘rishning ilk bosqichlarini boshlab yuborishganini ko‘rishimiz mumkin. O‘quv-seminarlarning tashkil etilishi, yangi 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab tashkil etiladigan Prezident maktablarida ta'lim-tarbiya oladigan o‘quvchilar uchun ayni tayyorgarlik davri hisoblanadi.

Iqtidorli bolalarning qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirish, iste'dodli, izlanuvchan, ijodkor pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ilg‘or tajribalarini ommalashtirish, ta'lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishini ta'minlash, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida fan olimpiadalari, “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi” kabi ko‘rik-tanlovlar va fan oyliklari o‘tkazilib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy izlanishi uchun keng imkoniyat yaratilmoqda.

Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o‘quvchilarining umumta'lim fanlari bo‘yicha Respublika olimpiadasi IV bosqichi 2019 yil 7-11 iyun kunlari Toshkent qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejida o‘tkazildi.

IV bosqich yakunlariga ko‘ra jami 20 ta fandan 53 nafar g‘olib o‘quvchilar aniqlandi ularga diplomlar va OTMLarga test sinovlarsiz



hamda qo‘shimcha imtixonlarsiz kirish imtiyozini beruvchi guvohnomalar topshirildi.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishga jiddiy e‘tibor qaratish dolzarb vazifadir.

2021 yilda o‘quvchilar bilimni xalqaro standartlar asosida baholash, ya‘ni PISA tizimiga o‘tishga tayyorgarlik ko‘rilmogda.



## Umumiy o‘rta ta’lim mazmuni: 2019-2020 o‘quv yili tayanch o‘quv rejasi, o‘quv dastur va darsliklardagi o‘zgarishlar

*Mexriniso Doniyarovna Pardayeva,  
Respublika ta’lim markazi direktori v.v.b.*

Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda munosabatlar tabiatini o‘zgartiruvchi, jumladan, ta’lim sohasi ham innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

Bunday innovatsiyalar hayotda ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, natijada, ta’lim sohasiga nisbatan yangi talablarni shakllantiradi, jumladan:

Ta’lim oluvchilarda hayotiy ko‘nikmalar, shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, biznes va tadbirkorlikning jadal rivojlanayotgan muhiti va turmush tarzidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq yangi talablar (biznes, oila, davlat, nodavlat va boshqa talablar)ga javob bera oladigan shaxsni tarbiyalashni talab etadi;

yangi standartlar, ta’lim xizmatlari ko‘rsatayotganlar o‘rtasidagi global raqobatni kuchaytiradi (reyting);

ta’lim tizimining innovatorlari (ilg‘or maktablar va oliy ta’lim muassasalari);

yirik biznes tuzilmalarning boshlang‘ich va yangi mahsulotlarida qo‘llanadigan muqobil yechimlar (tibbiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalar va boshqalar)ni nazarda tutadi.

Har birimiz maktabda ta’lim olganmiz va farzandimizni olib borganmiz..., yoki maktabda ishlayapmiz...

Maktabdagi ilk kunlar... ilk taassurotlar...

XXI asrda jahon miqyosida fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar (transformatsiyalar) yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o‘zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantiradi va o‘z navbatida ta’lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo‘yadi.

Ta’lim iste’molchilarining maktab ta’limidan kutuvlari kuchli raqobot muhitida shakllangan mehnat bozorining talablaridan kelib





chiqadi. Xo'sh, ota-ona va o'quvchilar maktabdan nimani kutadi, ularning tasavvuridagi maktabga real maktab mos keladimi....

Ota-ona dastlab maktabning tashqi ko'rinishi, maktabdagi yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishadi va baholaydi. Farzandi bilan fan kabinetlarini ko'rib chiqadi va ularda ilk fikrlar paydo bo'ladi.

Farzandining sinf rahbari – birinchi o'qituvchisi bilan tanishadi, o'z navbatida o'qituvchidan farzandiga nisbatan iliq munosabatda bo'lib, mehribon bo'lishini va unga yaxshi ta'lim berishini kutadi.

Farzandining birinchi darsligini qo'lga olganda esa, shu dasrlikni o'qib farzandi kelajakda orzusidagi inson bo'lib yetishishiga astoydil umid bog'laydi.

Kutuvlarimiz juda ko'p va bunga har birimiz haqlimiz...

Xozirgi kunda jamiyat bir vaqtning o'zida ikki xil jarayonni boshidan kechirmoqda: inson qo'l mehnati talab qilinadigan faoliyat turining soni kamaymoqda; natijada ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi evaziga ishlab chiqarishga jalb etiladigan odamlar soni kamayishi yuz bermoqda. Bu esa o'z navbatida mehnat bozorida raqobatning oshib ketishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda bu haqiqat va bunday jadallashuv davrida mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydigan, ya'ni XXI asr ko'nikmalari va kompetensiyalariga ega kadrlar tayyorlashga qodir bo'lgan ta'lim zarurdir.

Agar o'tgan asrda savodxonlikning asosiy indikatorlari o'qish, yozish va arifmetikani bilish bo'lgan bo'lsa, XXI asrda esa e'tibor, tanqidiy fikrlash, o'zaro hamkorlik va kommunikativlik qobiliyati hamda faoliyatga ijodiy yondashuvga qaratilmoqda.

Bugungi kunga qadar mamlakatimizning ta'lim tizimi o'quvchilarda nazariy bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan va o'quvchilar o'quv faoliyati natijalarini ularning yodlab qolgan bilimlari hajmiga nisbatan baholab kelingan edi.

Hozirgi kunda robot va raqamli texnologiyalar tufayli ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar avtomatik ravishda amalga oshirilishi va ta'lim oluvchilarni oldin o'qitgan narsalarga emas, balki mustaqil fikrlashga, ma'lumotlarni oddiygina to'plash va eslab qolish emas, qidirib topish va uni tanqidiy baholashga, ya'ni, XXI asrning ko'nikmalariga egalik darajasini rivojlantirish va baholash lozim.



Umumiy o‘rta ta’lim sohasida jadallik bilan olib borilayotgan islohotlar zamirida, eng avvalo, mamlakatning noyob kapitali – shaxsning barqaror taraqqiyoti va farovonligini ta’minlash kabi aniq maqsad yotibdi.

Xalq ta’limi tizimi oldiga qo‘yilayotgan vaziflar ijrosini ta’minlash maqsadida davlat ta’lim standartlari, o‘qituvchilar o‘quv yuklamalari, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini tanqidiy ko‘rib chiqish, ilg‘or milliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish, ta’limdagi mavjud muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlar natijalari asosida takomillashtirish zarurati belgilab berildi.

Bugungi Avgust kengashlari biz pedagoglar uchun o‘z faoliyatimizga yangicha yondashuv bilan tanqidiy nazar tashlash, o‘z faoliyatimizni tubdan yaxshilashni boshlash uchun start maydonchasidir. Har birimiz eski mazmundagi o‘quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o‘qitish tizimiga o‘tishga o‘zimizni tayyorlashimiz – o‘zgarishimiz lozim.

Shunga mos ravishda ta’lim berishga yondashuvlar ham o‘zgaradi – internet va axborot texnologiyalari sharofati bilan bugungi maktab o‘qituvchilari kasbiy mahorati oshiriladi. Shu bois, o‘qituvchilar oddiy bilim beruvchilikdan, o‘qituvchi-tashkilotchilikka o‘tishlari tavsiya etiladi.

Ayrim o‘qituvchilar uchun bunday o‘zgarish oson bo‘lmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, shaxslararo munosabatlarni o‘rnata olish qobiliyati zarur bo‘lganligi sababli, bugungi Avgust kengashlari o‘quvlari uchun tayyorlangan o‘quv-metodik resurslar mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko‘nikmalarini, ya’ni pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishni inobatga olgan holda tayyorlandi va ushbu onlayn platforma barchamiz uchun dolzarb mavzularda fikr, tajriba almashish imkoniyatini yaratib berdi.

Bunday dolzarb maslalarga birgalikda yechim topish murakkab jarayon bo‘lib, jarayon ishtirokchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, metodik ta’minlash va ko‘maklashish, yo‘naltirish, boshqarish va, albatta, tizimli motivatsiyalash juda muhimdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktalarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash jarayonida mazkur mexanizmning



quyidagi har bir komponent sifatini ta'minlash bevosita kutilayotgan natijaning samadorligini kafolatlovchi omil deb qabul qilinishi maqsadga muvofiq:

*resurslarning* maqsadliligi va foydaliligi natijaning sifatini ta'minlash va ulardan unumli foydalanish;

ta'lim muassasalarini kompetentli mutaxassislar bilan to'ldirish va mustahkamlab borish;

Mavjud moddiy-texnik bazadan samarli foydalanish;

O'quvchilarda kompetentlikni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi o'quv-metodik mahsulotlarni yaratish hamda ommalashtirish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan strategik, tizimli va lokal o'zgarishlarning huquqiy-me'yoriy asoslari bilan doimiy ravishda tanishib borish va joriy etish;

ta'lim muassasalarida axborot almashuvining yaxlit avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;

ta'lim-tarbiyaning virtual metodik makonini yaratish va rivojlantirish;

ta'lim iste'molchilariga interaktiv ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirish;

pedagoglar uchun maqsadli o'quv kurslari va forumlarni tashkil etish;

amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish.

*Motivatsiya:*

o'qituvchi nufuzini oshirish;

ijtimoiy himoyalash;

ma'naviy va moddiy rag'batlantirish;

ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish;

pedagogik kadrlar, ta'lim muassasalari va boshqaruv organlari reytingini aniqlash;

ijodiy muhitni yaratish: ko'rik-tanlov, bellashuvlar o'tkazish;

hamkorlik loyihalari va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash.

O'quvchilar va ota-onalarning ehtiyojlari asosida maktabning vazifalarini belgilash (aniqlashtirish), o'quv jarayonini o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammolarni yecha olish bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, kelajakda ularning barqaror taraqqiyotini



ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish hamda joriy etish bugunning dolzarb masalasidir.

O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish, ularni hayotga tayyorlashda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, STEAM ta'limni samarali joriy etish maqsadida bitiruvchilarga qo'yiladigan minimal talablar, ya'ni ta'lim mazmuni takomillashtirildi.

O'quv dasturlari yetakchi mutaxassislar tomonidan takomillashtirilib, bunda o'quvchilarda tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirishning eng samarali metodologiya, metodikalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, metodlarni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va bugungi tadbirda ulardan namunalar beriladi.

Shuningdek, o'quvchilar natijalarini baholashning milliy va xalqaro talablarini inobatga olgan holda takomillashtirish va xalqaro baholash dasturi tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini yaratuvchi ta'lim resurslari yaratilmoqda va Respublika ta'lim markazi veb-saytiga joylashtirilib boriladi.

2019-2020 o'quv yilida xalq ta'limi tizimidagi umumta'lim maktablarining

1-, 3-, 8-, 9-sinflari uchun poligrafik va dizayn jihatidan zamonaviy talablarga javob beradigan to'liq to'plamdagi darsliklar, 2-, 4-, 7-sinflar uchun chet tili darslik majmualarini nashr etish rejalashtirilgan.

Barcha ta'lim tillarida 479 nomdagi 36,4 mln. nusxada nashr etiluvchi darsliklarning 137 nomdagisi original maketda tayyorlangan, yana 342 nomdagisi tarjima nusxalardan iborat.

2019-2020 o'quv yili uchun 1-, 3-, 8-, 9-sinf darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashrga tayyorlashda asosiy e'tibor mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob berishiga qaratildi. Buning uchun amaliyotchi o'qituvchilar hamda fan metodistlari hamda salohiyatli olimlar tomonidan darsliklar bir necha bor ekspertizadan o'tkazildi. Ekspertiza xulosalari asosida esa darsliklar mualliflari, nashriyot xodimlari hamda fan metodistlari hamkorligida darsliklar qayta ishlanib, mazmuni va illyustratsiyalariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Asosiy yangilik: 8-sinflar uchun Geografiya, Texnologiya va O'zbekiston davlati va huquqi asoslari darsliklariga QR-kod o'rnatildi.



2019-2020 o'quv yilida chop etiladigan darsliklarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi.

o'quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda tayyorlandi.

Darslik mazmunida mavjud bo'lgan takrorlanishlar bartaraf etildi, xalqaro tajribaga suyanan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o'zgartirishlar kiritildi.

Yana bir e'tiborli holat – fanlar kesimida fanlararo bog'liqlik hamda sinflararo uzviylik ta'minlandi.

Shuningdek, amaliy fanlar tarkibiga kiruvchi Musiqa darsligiga mustaqillik yillarida yaratilgan yangi kuy va qo'shiqlar kiritilib, musiqa savodiga oid topshiriqlarning uzviyligi ta'minlandi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo'yicha darsliklar mazmuniga xalqaro baholash dasturi PISA, TIMSS talablari singdirildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, eng avvalo, nimani o'qitish emas qanday o'qitish degan savolga javob izlashdan boshlanishi kerak.

Maktabni bitirib oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishni muvaffaqiyatli davom ettira oladigan, o'zining va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan mutaxassislarni mahalliy va dunyo mehnat bozoriga tayyorlab berish uchun o'qituvchi tinimsiz o'z ustida ishlashi va kompetentlik darajasini uzluksiz oshirib borishi lozim.

Xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan har bir mutaxassis, xodim bu jarayonlarga befarq bo'lmasligi, aksincha, unga 2019-2020 o'quv yilining eng muhim tadbiri sifatida yuqori saviyada tashkil etishga o'z hissasini qo'shishi, ya'ni farzandlarimiz kelajagi uchun mas'ulligini unutmashligi lozim.

Agar biz nimanidir o'zgartirmoqchi bo'lsak, buni o'zimizdan boshlashimiz kerak!

*Jarayonlarda monitoring va qayta aloqa o'ta muhim jihat bo'lib, har bir ishtirokchi faoliyati, komponenti va har bir bosqichning sifati, samaradorligi monitoring qilinishi, yuzaga kelgan bo'shliqlar, samaradorlikka ta'sir etuvchi turli omillarni aniqlash va har bir qadamni korreksiyalash yaxshilash imkonini yaratadi.*



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2019 YIL AVGUST KENGASHLARI MATERIALLARI TO‘PLAMI**

---

Bugun maqsadimiz aniq, vazifalarimiz belgilab berilgan, demak, tizimli va reja asosida ishlasak...albatta, MARRA BIZNIKI!

Biz doimo siz bilan birgamiz, yangi 2019-2020 o‘quv yili arafasida barchamizga omad yor bo‘lsin!

Web-sayt: [www.rtm.uz](http://www.rtm.uz)

Telephone: (71)-246-17-89

Telegram: <https://t.me/rtmlibrary>

e-mail: [rtm@xtv.uz](mailto:rtm@xtv.uz)



## Filologik ta’limda yangicha yondashuv

*Respublika ta’lim markazi,  
Filologiya bo’limi boshlig’i G’.Hamroyev*

Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Mamlakat taraqqiyoti ham jahondagi ilg’or tendensiyalarga hamohang tarzda o‘z istiqbolini belgilab bormoqda. Prezidentimiz o‘z nutqlaridan birida biz sanoatga ixtisoslashgan – industrial davlat bo‘lamiz, degan edilar. Ta'lim tizimiga qo'yilgan yangi talab, ijtimoiy buyurtma – shu. Ta'lim mazmuni endi shunga qaratilgan bo'ladi. Endi maktab o'quvchilari mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlashga o'rgatiladi. Darsliklardagi o'quv materiallari ham kreativ fikrlashga yo'naltiriladi.

### Filologiya fanlari ta'limi mazmunidagi yangiliklar

**Ona tilidan** takomillashtirilgan 8-9-sinf darsliklari o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham fikrlashni, fanga munosabatini emas, kelajak hayotida asqotuvchi vosita sifatidagi yangicha munosabatni tarkib toptiradi. Darslikning mazmun-mohiyatini avvalgi darsliklarni yaratishda ko'p ham e'tibor qaratilmagan *mashq va topshiriqlarning jiddiy farqlanishi, lug'atlar bilan ishlash davomiyligi, didaktik ahamiyatga ega bo'lgan kichik hajmli rivoyat, hikoyat matnlarning to'liq holda berilishi, bog'lanishsiz matnlarda ham insoniyatning buyuk mutafakkirlari hayotiy tajribalarining mahsuli bo'lgan aforizmlar, iboralar, maqollardan keng foydalanilgani*, ona tili va adabiyot fanlari orasidagi uzviylikni ta'minlash, boy adabiy merosimizni ongli mushohada etishga qo'maklashish maqsadida klassik yo'sindagi matn bilan ishlash yo'lga qo'yilgani, uy vazifasidagi topshiriqlarning xilma-xilligi, tilshunoslikka doir kompetensiyaviy bilimlar ifodasining soddaligi, aniqligi, tushunarliliigi, asosliliigi, har mavzuga doir qoidalarni dalillash uchun tanlangan misollarning muvofiqligi belgilaydi.

*Ona tili darsliklari birinchi marta diagrammalar, sxemalar va fikrlashga undaydigan, sifatli illyustratsiyalar bilan boyitildi.*

9-sinf "Ona tili" darsligidagi mavzular, mustahkamlovchi mashqlar va ayrim topshiriqlar ham qayta ishlandi. Jumladan, "Nutq uslublari" bilan bog'liq mavzular (6 soat) olinib, uning o'rniga "Tinish belgilari" mavzusi kiritildi. "Ergashgan qo'shma gap turlariga ajratilgan 5 soat olinib, o'rniga "O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari" haqidagi mavzular kiritildi. Rasmlar yanada sifatli, mazmunlilari bilan almashtirildi. Kiritilgan yangi mavzular bilan bog'liq mashq va topshiriqlar mazmuni



ham yangilangan. Darslikda oldingisidan farqli o'laroq to'rt xil rangdan foydalanilgan.

**O'zbek tili ta'lim** boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida kommunikativ tamoilda ikkinchi til sifatida o'qitiladi. O'quvchilarda mantiqiy mushohada yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish o'zbek tilini yetarli darajada egallashlari maqsadida O'zbek tili o'quv rejasi takomillashtirildi. O'zbek tilining o'qitilishiga ajratilgan haftasiga 2 soat yiliga 68 hajmdagi soat yetarli emasligi o'z tasdig'ini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, o'quv rejada O'zbek tili (Davlat tili) fanining soatlari haftasiga 3 soat, yiliga 102 soat hajmda 1 chorakda 27 soat, 2 chorakda 21 soat, 3 chorakda 30 soat, 4 chorakda 24 soat o'qitilishi belgilandi. O'zbek tili o'quv dasturida sinflar kesimida 18 ta nutqiy mavzu qamrab olindi. Har bir nutqiy mavzuni o'rganishga 5 soat ajratildi.

**Adabiyot** fanidan o'zgarishlar ona tili faniga nisbatan ancha farqli o'laroq, 8-sinfning o'quv dasturidan 2 ta mavzu chiqarilib, o'rniga soddaroq, o'quvchi yoshiga mos bo'lgan yangi 2 ta mavzu kiritildi va ayrim ijodkorlarning asarlari almashtirildi. 9-sinfda ham 7 ta mavzu chiqarilib, o'rniga soddaroq 7 mavzu kiritildi, ayrim she'rlar almashtirildi.

### **Mavzularni samarali o'zlashtirish uchun metodik tavsiyalar**

Mamlakatimiz 2021 yil Xalqaro baholash dasturida ishtirok etishini inobatga olsak, PISA dasturida o'quvchilarimizning o'qish savodxonligi baholanishi ko'zda tutilmoqda.

Ona tili o'qitishda o'quv materiallarini o'quvchilarga qaysi metod orqali tushuntirish yaxshi natija beradi? Quyida fonetikaga doir o'quv materiallarini o'qitishda qo'l keladigan samarador usullar ustida ishlab, aytilgan fikrlarni ayrim misollar bilan asoslashga harakat qilindi. Har qanday ma'lumotni qay darajada o'zlashtirish tinglovchining xohish-irodasiga bog'liqdir. Psixologik nuqtai nazardan darsda, ayniqsa, yangi dars bayonida o'quvchini qiziqtirish lozim. Aks holda, harakat besamar ketishi mumkin. Shu ma'noda fonetika o'qitishda ham turli noan'anaviy dars usullaridan foydalanish lozim.

Quyida "Urg'u" mavzusining noan'anaviy ta'limi xususida to'xtalamiz:






**1. “Qiyoslash” metodi.** Bir predmet haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun uni ikkinchisi bilan qiyoslash o‘quvchida yorqin tasavvur hosil qiladi. Shu ma'noda o‘quvchiga ona tilini boshqa bir tilga qiyoslab o‘rgatish eng samarali usuldir. *O‘qituvchi ona tili darslarida, xususan, fonetika mavzusini tushuntirayotganda ma'lumotlarni o‘quvchiga imkon qadar u o‘rganayotgan biror chet tilidagi zaruriy bilimlar bilan taqqoslasa, dars yanada samarali bo‘ladi.* O‘qituvchining taqqoslanayotgan tilni qay darajada bilishi natijaga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

“Urg‘u” mavzusini tushuntirish uchun unga istagancha ta'rif keltirgan bilan kutilgan natijaga erishish qiyin. Lekin o‘zbek tili urg‘usini rus, nemis yoki bo‘lmasa ingliz tillaridan biridagi so‘z urg‘usi bilan solishtirish, o‘quvchida darhol tushuncha hosil qiladi: **(bolalàr, ребята children)**, ya'ni o‘zbek tilida urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Boshqa tillarda esa, aksincha.

Zero, taqqoslash – o‘quvchida mustaqil fikrlash ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Bu esa bugungi ta'limning maqsadini tashkil etadi. O‘quvchida solishtirish jarayonida o‘zbek tilining o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlari haqida tushuncha paydo bo‘lgach, o‘z tilidan faxrlanish, shuning barobarida, unda milliy g‘urur ham shakllanib boradi.

**2. “Klaster” metodidan foydalanib, bellashuvchi ikki guruh a'zolaridan qaysi biri bo‘g‘inlarni tez va to‘g‘ri joylashtirsa, undan xalq maqolining bir qismi kelib chiqadi. Davomini topgan ham g‘olib bo‘ladi.**

“Davomini top!” usuliga doir klaster:





**3.** “Veen diagrammasi” asosida unli va undosh tovushlar tasnifini samarali o‘rgatish mumkin. *Ikki guruhga bo‘linib unli va undosh tovushlarning farqli hamda o‘xshash jihatlari quyidagi ma‘lumotlar asosida ajratiladi: Sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linib ma‘umotlarni doiralarga joylashtiradilar. Noto‘g‘ri yoki chalkash ma‘lumot yozgan jamoa mag‘lub bo‘ladi.*

Urg‘u oladi / Urg‘u olmaydi. O‘pkadan chiqayotganda og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchramay chiqadi / O‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchraydi. Bo‘g‘in hosil qiladi / Bo‘g‘in hosil qilmaydi. Cho‘zib talaffuz qilish mumkin / Cho‘zib talaffuz qilib bo‘lmaydi. Talaffuz qilganda tovush paychalari, albatta, titraydi. Ham ovoz ham shovqindan hosil bo‘ladi / Faqat ovozdan hosil bo‘ladi

Javobi quyidagicha:





**4. “Klaster” shaklidan foydalanib ikkala guruh a’zolari ham birma-bir jarangli va jarangsiz undoshlarni jufti bilan jadvallarga joylashtiradi.**

**5. “Zanjir” usuli** ona tili darolarida keng qo'llanilayotgan usullardan hisoblanib, o'quvchilarni topqirlikka, tez fikrlashga undaydi. O'yin tartibiga ko'ra bir o'quvchi biror bo'g'iz undoshi bilan boshlanadigan so'z aytadi, ikkinchi o'quvchi esa so'z oxiridagi tovush bilan boshlanuvchi tarkibida **h** harfi bo'lgan so'z aytishi lozim. Masalan, halqa – aholi – ilhom – mahliyo.... kabi.

Bu usul fonetika bo'limida quyidagicha qo'llaniladi. Usulni boshqa talaffuzi qiyin unli va undosh tovushlar asosida ham o'tkazish mumkin. Masalan: **i** tovushi. Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. 1-guruh **i** bilan boshlanadigan so'z aytadi. 2-guruh so'z oxiridagi tovush bilan boshlanuvchi tarkibida **i** bor so'z bilan davom ettiradi. So'z topa olmay qolgan guruh yutqazadi.

**1- guruh**

ilon

shira

it

issiq

irim

**2- guruh**

nish

ari

teri

qani

miri....

Bu o'yinni boshqa bir shaklda ham o'tkazish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga unli bilan boshlanib unli bilan tugaydigan yoki undosh bilan boshlanib undosh bilan tugaydigan so'zlarni topshiriq qilib beradi.

Sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib, 1-guruhga unli bilan boshlanib unli bilan tugovchi so'zlarni, 2-guruhga undosh bilan boshlanib undosh bilan tugovchi so'zlarni topshiriq qilib berilsa, o'yin yanada qiziqarli o'tadi. O'quvchilarda hozirjavoblik, topqirlik bilan birga to'g'ri talaffuz malakasi ham shakllanadi.

**6. “Juftini bilasizmi?” usuli** ham o'quvchini tez fikrlashga, topqirlikka undaydi. O'yinni amalga oshirish uchun o'quvchilarga biror bir til sathida oid birliklarning ma'lum qismi beriladi. O'quvchilar esa uni to'plashi lozim bo'ladi. Mazkur o'yindan tilning barcha sathlarida foydalanish mumkin. “Fonetika” bo'limida o'quvchilar jarangli va



jarangsiz undoshlar haqida bilimga ega bo'ladilar. Ma'lumki, 8ta jarangsiz undosh 8ta jarangli juftiga ega. Bularni yoddan bilishning ahamiyati katta. Chunki bu o'quvchi savodxonligining asoslaridan biridir. O'qituvchi o'quvchilarga jarangli – jarangsiz undoshlarga oid bilimlar hosil bo'lgan shu o'yinni o'tkazishi mumkin. O'quvchilardan undoshlar berilgan holatda ulardan jarangli yoki jarangsiz juftini topishi talab qilinadi: a) berilgan jarangli undoshlarning juftlarini toping: *v, d, g, (f, t, k)*; b) berilgan jarangsiz undoshlarning juftini toping: *s, d, f (z, t, v)*.

O'quvchilarga jarangli – jarangsiz undoshlar xato qo'llangan so'zlar beriladi. O'quvchilar so'z tarkibidagi xato qo'llangan undoshlarning juftini topib yozishlari kerak: kitop – kitob, bunyotkor – bunyodkor, tussiz – tuzsiz, tog' – toq, o'rig – o'rik, shavqat – shafqat.

O'yin musobaqa tarzida ikki o'quvchi orasida yoki guruhlar o'rtasida o'tkazilishi mumkin.

7. Paronim so'zlardan foydalanib fonetika o'qitish ham maqsadga muvofiq, chunki har doim bu so'zlar ikki qismdan iborat bo'ladi. Masalan, berilgan so'zlarning paronim juftini topish buyuriladi. Ma'lumki, paronim so'zlar talaffuzdosh so'zlardir. Bu – talaffuz mashqlari o'tkazishda qo'l keladi.

|                    |         |               |       |
|--------------------|---------|---------------|-------|
| Kafe –<br>amir     | amr –   | kafe –kofe    | amr – |
| Afzal –<br>– dovon | devon – | afzal – abzal | devon |
| Razm –<br>bop      | bob –   | razm – ramz   | bob – |
| Sada –<br>to'p     | tup –   | sada – sado   | tup – |

Juft va takroriy fe'llarga oid ham shunday topshiriqlar beriladi: Berilgan so'zlarni juftini topib, juft va takroriy fe'llar hosil qilganda tovushlar takrori ham vujudga keladi. Bajarilishi:

- o'ynab – o'ynab-kulib
- yayrab – yayrab-yashnab
- qochdi – qochdi-ketdi
- aytdi – aytdi-qo'ydi



qo'llab – qo'llab-quvvatlamoq

o'ylab – o'ylab-o'ylab

gapira – gapira-gapira

yig'lay – yig'lay-yig'lay

**8. “Tarmoqlar” usuli.** Ikki guruhga bo'linib quyidagi “Klaster”ni bajaradilar. Qaysi guruh birinchi bo'lib to'g'ri to'ldirsa, g'olib jamoa bo'ladi. Har bir doiraga uchtdan so'z yoziladi.

Demak, didaktik o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shu orqali o'tilayotgan mavzuni oson va tez tushunib oladilar. To'g'ri tashkil qilingan didaktik o'yin o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, uni zerikishdan va toliqishdan asraydi. Didaktik o'yinlar ona tili darslarida yaxshi samara beradi. Ona tili ta'limining “Fonetika” bo'limida ham bunday o'yin darslaridan foydalanish 5-sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularda adabiy talaffuz ko'nikmasini shakllantiradi.

**9. “Domino” usuli.** Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Jamoalardagi har bir o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi tomonidan aytilgan topishmoqning javobini birinchi topgan jamoa o'yinni boshlaydi. Guruhlar parta boshidan navbat bilan chiqaveradi. Ish sinftaxtasida bajariladi. “Domino”ning sharti shunday: birinchi chiqqan ishtirokchi bir bo'g'in yozadi va o'tiradi. Navbatdagi jamoa vakili unga bo'g'in qo'shganda so'z hosil bo'lishi kerak. O'yin shunday davom etaveradi. 15 sekundda javob topmagan jamoa o'yindan chiqadi.

Namuna: *xum-don-li-bos-ma-na-sim-li-kop-*

**10. “Kim ko'p so'z topadi?” o'yini** o'quvchilarni qiziqtirish va idrokini tekshirib ko'rish maqsadida tashkil etildi. Natija kutilgandan ham yaxshi chiqdi. Ya'ni ayrim o'quvchilar rasmdan 18 tagacha so'z topgan bo'lsa, ba'zilar 7 tagina so'z yoza olgan. Ba'zi o'quvchilarning bulut ortidagi osmonni, yerdagi kashta suratini, maqbara tarkibidagi minora va gumbazlarni ham ko'ra olganligi, aksariyat o'quvchilarning ko'rinib turgan narsalarni ham idrok eta olmasligi ma'lum bo'ladi.

Ushbu topshiriq bolalarda idrokni shakllantiradi. Ona tili fanini san'at bilan bog'laydi. Bunday topshiriqlarni bajarib ko'nikma hosil qilgach, boshqa suratlarni ko'rganda ham ularga shunchaki emas, sinchkovlik bilan qarashga o'rganadi.



*Bola ko'rgan narsalarni o'zi bilgancha nomlaydi, yoddan yozadi va bo'g'inlarga ajratadi. Bunda o'quvchining so'z qo'llashi, tanlashi hamda imloviy savodxonligi ochiq namoyon bo'ladi. Bo'g'in haqida olgan nazariy ma'lumotlarini amaliyotda qo'llab ko'radi, mustahkamlaydi.*

### 11. “Kim xattot?” usuli.

Sinf uch guruhga bo'linadi. Qur'a tashlash yo'li bilan ulardan biri ekspert, qolgan ikkisi bahslashuvchi jamoalarga ajratiladi. Ekspert guruhi jamoasi x va h undoshi ishtirok etgan so'zlarni aralash holda aytaveradi, bu so'zlardan bir jamoa tarkibida x undoshi ishtirok etgan so'zlarni, ikkinchi jamoa tarkibida h undoshi ishtirok etgan so'zlar qatorini yozib boradilar. Belgilangan vaqtda jamoalar ishi to'xtatiladi. Ekspertlar jamoasi ikkala guruh ishlarini tekshirib beradi. Ish yakunida o'qituvchi uchala guruh ishlarini ko'rib chiqib baholaydi.

### 12. “Kim notiq?” usuli.

O'qituvchi ekspert bo'lib turadi. Uchta jamoaga uchta o' unlisi ko'proq ishtirok etgan she'riy matn beriladi. Guruhlar kelishib olib, bittadan notiq tayinlaydi. Ular matnlarni o'qiydi. Guruhning boshqa a'zolari o' tovushi ishtirok etgan so'zlarni farqiga ko'ra ikkiga ajratib chiqadi. Qaysi jamoa ikkala topshiriqdan ham ball olsa, g'olib bo'ladi.

**13. “Juftini top!” usuli.** Bunda tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlarning paronim juftlarini topish uchun uchta jamoa bellashadi. Sardorlar bellashgan paytda qolganlar tutuq belgisi ishtirok etgan so'z qatnashgan xalq maqollaridan topib turadi. Kimda misol ko'p bo'lsa, o'sha jamoa g'olibdir.

Da'vo –davo, ta'na-tana, qal'a-qala, she'r-she'r.

**14. “O'rnini top!” usuli.** Bu usul mustahkamlovchi xarakterda bo'lib [i] unlisining talaffuz variantlari o'rgatib bo'lingandan so'ng qo'llaniladi. Birinchi guruh o'quvchilari rasmda ko'rsatilgan narsalarning nomlarini talaffuz qiladi. Ikkinchi guruh ularni jadvalga joylashtiradi. Rasmda (videoproyektor yoki plakatda *it, ilon, tipratikan, ukki, tulki, bo'ri, sigir, sichqon* kabilarning rasmi beriladi)

| Aniq talaffuz qilinadi | Qisqa talaffuz qilinadi | Talaffuz qilinmaydi |
|------------------------|-------------------------|---------------------|
|                        |                         |                     |
|                        |                         |                     |



## Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari

*O. Musurmonqulova, RTM filologiya  
fanlari bo'limi metodisti*

Bugungi kunda yurtimiz milliy mustaqilligining yangi bosqichiga o'tildi. Bu, albatta, barcha sohalarda erishayotgan turli islohotlar kabi uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'lim muassasalarida jahon ta'lim standartlari asosida o'qitish, savodxonlikni oshirish yuzasidan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Hatto, oliy ta'limning har bir yo'nalishida ona tili va adabiyot fanining mavqeyini oshirish masalalari ham bosqichma-bosqich o'zi yechimini topmoqda.

Xo'sh, bu masalalar natijaviyligi — yoshlar tarbiyasiga oid hukumat qarorlari ijrosini ta'minlash, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga erishish kabi quyidagi ustuvor vazifalar bilan hamohangdir:

o'quvchilarda filologiya fanlarini o'qitish asosida bilimlarini hayotda qo'llay olish hamda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

har sohada bilimlarni hayotga tatbiq eta olish, iqtisodiy, huquqiy, o'qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish, chet tillarida muloqot qilishga erishish;

ma'naviy-axloqiy, siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burchi va kitobxonlik, mas'uliyat hislari shakllangan bo'lishi kabi.

Darhaqiqat, bu masalalar o'z-o'zidan umumta'lim muassasalarida dastur va darsliklarni takomillashtirish, fanlarni o'qitishda kadrlar salohiyatini oshirish masalalari bilan uzviy bog'liqdir.

Bu borada Respublika Ta'lim markazi tomonidan o'quv reja, dastur va darsliklar sifatini bu talablarga mosligi yuzasidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, ona tili 8-, 9-sinf darsliklarida mashq va topshiriqlarning jiddiy farqlanishi, lug'atlar bilan ishlash davomiyligi, tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan kichik hajmli rivoyat, hikoyat matnlarning berilishiga ahamiyat qaratildi.

9-sinfda "Ergashgan qo'shma gap" turlari va "Nutq uslublari" bilan bog'liq mavzular o'rniga "O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari", "Tinish belgilari"ga oid mavzular kiritildi.

Adabiyot fanidan o'zgarishlar ona tili faniga nisbatan ancha farqli o'laroq, 8-sinfning o'quv dasturidan 2 ta mavzu chiqarilib, o'rniga soddaroq, o'quvchi yoshiga mos bo'lgan yangi 2 ta mavzu kiritildi va



ayrim ijodkorlarning asarlari almashtirildi. 9-sinfda ham 7 ta mavzu chiqarilib, o‘rniga soddaroq 7 mavzu kiritildi, ayrim she‘rlar almashtirildi.

| <b>8-sinf Adabiyot darsligidagi o‘zgarishlar</b>        |  |  |
|---|--|--|
| <b>Amaldagi darslik ( 2014 yil)</b>                     | <b>Yangi darslik (2019 yil)</b>  | <b>IZOH</b>  |
| Yusuf Xos Hojib.<br>“Qutadg‘u bilig” asari              |  | 11-sinfga o‘tkazildi                                       |
| Alisher Navoiy. G‘azal va qit‘alar.                     | Alisher Navoiy. Kichik hajmdagi she‘rlar                                       | Navoiy g‘azallari chiqarildi, Qit‘a, fardlari kiritildi    |
| Abdurauf Fitrat. She‘rlar                               |  | Dasturdan chiqarildi                                       |
| G‘afur G‘ulom. “Sog‘inish”, «Vaqt” she‘rlari            | G‘afur G‘ulom. “Sog‘inish”, “Vaqt”, “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi”she‘rlari | “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi” she‘ri kiritildi         |
| M. Shayxzoda. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi              | M. Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi                              | O‘zgartirildi  |
| Usmon Nosir. “Yurak”, “Nil va Rim”, “Monolog” she‘rlari | Usmon Nosir. “Yurak”, “Nil va Rim”, “Yana she‘rimga” she‘rlari                 | “Monolog” she‘ri o‘rniga “Yana she‘rimga” she‘ri kiritildi |
|   | Oybek. “Na‘matak”, “O‘zbekiston” she‘rlari                                     | Yangidan kiritildi   |
|   | Shukur Xolmirzaev. “Ot egasi”, “Omon ovchining o‘limi” hikoyalar               | Yangidan kiritildi   |
| Robindranat Thakur. “Nur va soyalar” hikoyasi           | Robindranat Thakur. “Suba” hikoyasi  | O‘zgartirildi  |
| Sergey Yesenin. She‘rlari                               | Sergey Yesenin. She‘rlari  | “It haqida doston” she‘ri kiritildi                        |
| <b>9-sinf Adabiyot darsligidagi o‘zgarishlar</b>        |  |  |
| Nosiriddin Rabg‘uziy.<br>“Qisasi Rabg‘uziy” asari       |  | 11 sinfga o‘tkazildi                                       |
| Z.M.Bobur. Lirika.<br>“Boburnoma”                       |  | 10 sinfga o‘tkazildi                                       |
|   | Xoja. Hikoyatlar   | Yangidan kiritildi   |
| Boborahim Mashrab.<br>G‘azallar                         |  | 11-sinfga o‘tkazildi                                       |
|   | Imom al-Buxoriy. Hadislar  | Yangidan kiritildi   |
| A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”                              |  | 10-sinfga  |





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2019 YIL AVGUST KENGASHLARI MATERIALLARI TO'PLAMI

|  |                                      |                      |
|--|--------------------------------------|----------------------|
| romani                                       |                                      | o'tkazildi           |
| Cho'lpon. She'rlar. "Kecha va kunduz" romani |                                      | 11-sinfga o'tkazildi |
| Oybek. "Qutlug' qon" romani                  | Oybek. "Navoiy"romani                | O'zgartirildi        |
| Abdulla Oripov. She'rlar. "Sohibqiron"       | Abdulla Oripov. "Sohibqiron" dramasi | She'rlar chiqarildi  |
|  | Shavkat Rahmon. She'rlar.            | Yangidan kiritildi   |
|  | Omon Matjon. She'rlar                | Yangidan kiritildi   |
|  | Halima Xudoyberdieva. She'rlar.      | Yangidan kiritildi   |
|  | Sh. Boshbekov "Temir xotin" dramasi  | Yangidan kiritildi   |
|  | O'ljas Sulaymonov. She'rlar          | Yangidan kiritildi   |
| V.Shekspir."Otello" tragediyasi              | V.Shekspir. "Gamlet" tragediyasi     | O'zgartirildi        |
| Henrih Heyne. She'rlar                       |                                      | Dasturdan chiqarildi |
| A. S. Pushkin "Yevgeniy Onegin"              |                                      | Dasturdan chiqarildi |
| Mustaqillik davri adabiyoti                  |                                      | 11 sinfga o'tkazildi |

Ma'lumki, har yili amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan ta'lim sifatini oshirish, darsliklarni zamon talablari asosida yaratish maqsadida darsliklar ekspertizadan o'tkaziladi. Adabiyot darsliklari ekspert qilish jarayonida o'qituvchilar taklifiga muvofiq, 8-, 9-sinf darsliklari 1 qismda chop etildi.

2019-2020 o'quv yilida maktablarga yetkazilgan adabiyot darsliklaridagi bu shakl o'zgarishlar bilan bir qatorda mazmunidagi ayrim takror o'rinlar, ba'zi nazariy ma'lumotlar mualliflar tomonidan o'quvchilarga tushuntirish maqsadida kiritildi:

8-sinf 72-betda keltirilgan "Bo'lmas emish" radifli ruboyi boshqa sinflarda mazmunini anglatish uchun berilgan bo'lsa, bu sinfdan asl manbasi, yozilgan davri, to'liq tahlili bilan berildi;

8-sinfdan boshlab o'quv dasturida g'azallar kiritilganligi uchun darslikda aruz ilmidan "Arzu vazni" mavzusidagi (57-bet) nazariy ma'lumotlar berildi. Ta'kidlash joizki, aruz ilmi 8-sinf o'quvchilari uchun murakkablik qilishini nazarda tutib, o'quv dasturida berilmagan, ammo g'azallarni o'qish va yod olishlarida bu ma'lumotlar zarurati tug'ilganligi sababli nazariy ma'lumot shaklida (o'quvchilarga boshidan tushuntirishlar berib borish maqsadida) kiritildi;



8-sinf darsligidagi g'azallarning vazni, taqte'si murakkab degan fikrlar bildirilgan, ammo bu darsliklardan umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari ham foydalanishlarini nazarda tutgan holda bu o'rinlar qoldirildi, she'r, g'azallar soni 4 tagacha kiritildi;

8-sinf darslik muallifi S. Olimovning ilmiy talqinlari asosida Ozarbayjon so'zi Ozarboyjon, Ya'qub so'zi Yoqub shaklida yozildi(manbalarda bu so'z ikki (Ya'qub, Yoqub) variantda uchraydi);

9-sinfda Oybekning "Navoiy" romanida Bu kungi (117-bet) so'zi asl manbada Bukungi tarzda qo'shib yozilgan. Darslikda ham aynan, shunday berildi;

5-sinf darsligidan bir yil foydalanishini e'tiborga olib, 9-sinf darsligiga Imom al-Buxoriyning ayrim hadislarini takror kiritildi. Sababi, tarbiya bir marta aytiladigan, kunlik ish emas, bunday hadislar mazmunini yaxshi anglab olish hamda ixtisoslashtirilgan maktablarning soatlari ko'pligini nazarda tutgan holda odob-axloq, otanonani hurmat qilish, qadriyatlarni e'zozlashga undash maqsadida hadislar ko'proq kiritildi;

savol va topshiriqlarning mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan bo'lishiga e'tibor qaratildi.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchilar darslikda berilgan barcha she'r, g'azallarni yoddan bilishlari shart degan fikrdan yiroq bo'lishlarini, she'r, g'azallarning birortasini yoddan ifodali ayta olsa, muhimi mazmunini tushunsa, o'quv tahlilini qila olsa, fanlararo aloqadorlikni, ijodkorlarning asarlarini bilsa, asarlardagi ezgu g'oyalarni, qahramonlarning yaxshi sifatlarini anglasa, shunday fazilatlar sari intilsa, adabiyot o'qituvchisi o'z maqsadiga erishadi.

Ona tili va adabiyot sho'bada fandagi yangiliklar sifatida bu masalalar muhokama etilishi hamda pedagog xodimlariga yangi o'quv yili oldidan o'quvchilar savodxonligini oshirish, adabiy ta'limni qanday o'qitish, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi masalalari hamda o'quvchilar bilim sifatini oshirish yo'llari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun avvalo, har bir sho'ba ta'lim mazmuni samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan o'tgan o'quv yili yakunlarini tahlil etish, yo'l qo'yilgan kamchilik va aniqlangan ehtiyojlar, muammolarning sabablarini aniqlash, yangi o'quv yilida ularning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Bu chora-tadbirlarni ishlab chiqishda quyidagi yechimini kutayotgan muammolarga e'tibor qaratilishi lozim:



- o'quvchilarni savodxonligini oshirish, ona tilidan mavzularni yetkazish, nazorat ishlarida xatolar ustida ishlash, lug'atlardan (imlo, izohli) foydalanish ishlarining tizimli yuritilmasligi;

- asarlarning mazmunini yetkazishda ( mantiqiy, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish) o'qituvchilarda malakalar yetishmasligi;

- darslarda ijodkor haqida umumiy ma'lumot berish, she'rlarni yodlatish bilan chegaralanib qolayotganligi:

- dastur tavsifi mavzu rejalarini o'quvchilar o'zlashtirish asosida ishlab chiqmasligi hamda hujjatlarni (dars ishlanma, jurnal, to'garak ishlari) to'g'ri rasmiylashtirish va ulardan foydalanish yo'llari haqida turlicha ko'rsatmalar berilishi kabi qator muammolar mavjud.

Bu muammolar qatorida adabiy o'qish, kitobxonlik muammosining yanada dolzarblik kasb etishi sir emas. Zero, kitobxonlik inson ma'naviy olamining ajralmas qismi bo'lib, buning provardi-da, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, aqlan, ma'nan, ruhan sog'lom yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Avgust kengashlari sho'basini mazmuni tashkil etishda shunday aniq vazifalarni qo'yish zarurki, unda ishtirok etgan har bir o'qituvchi ko'tarilgan masalalarni o'zi ishlayotgan pedagogik jamoaga batafsil yetkazilishi, uning yakuniy tavsiya va qaror, vazifalari har bir muassasa, metodbirlashmalarning 2019-2020 o'quv yili istiqbol rejalariga asos qilib olinishi lozim. Masalan, Ona tili va adabiyoti fan sho'basi o'z dasturini quyidagicha tuzish mumkin:

| Sessiyalar | No | Amalga oshiriladigan ishlar   | O'tkazish shakli |
|------------|----|---|------------------|
| 1-sessiya  | 1. | Ona tili va adabiyot fan o'qituvchilarning 2018-2019 o'quv yilida erishgan yutuqlari (ilg'or tajribali o'qituvchilarni rag'batlantirish), muammolari, yechimi, vazifalari. Fandagi yangiliklar. | Davra suhbat     |
|            | 2. | O'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari (elektron darsliklar, proeksion-multimedia) va internetdan foydalanish yo'llari                   | Seminar –trening |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2019 YIL AVGUST KENGASHLARI MATERIALLARI TO‘PLAMI**

|           |    |  |               |
|-----------|----|--|---------------|
|           | 3. | O‘qish savodxonligi bo‘yicha (xalqaro baholash dasturlari asosida) o‘quvchilarning bilimini oshirishda o‘qituvchilarning asosiy ishlari  | Suhbat        |
| 2-sessiya | 4. | Ona tili darslarida grammatik mavzularni yetkazishning noan‘anaviy usullari, adabiyot orqali ma‘naviyatini yuksaltirish, yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalash yo‘llar haqida darslarni tashkil etish (master klass)   | Mahorat darsi |
|           | 5. | O‘tkazilgan ko‘rik-tanlovlar natijalari asosida aniqlangan ehtiyojlar va tahlillar asosidagi hisobot taqdimotlarini o‘tkazish va yangi o‘quv yilida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ish shakllari (bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan tavsiyalar qabul qilish). | Amaliy        |
|           | 6. | Ta‘lim jarayoniga ona tili va adabiyot fanining uzviyligini ta‘minlash, xalqaro dasturlar asosida nazorat materiallari, taqvim mavzu rejalarni ishlab chiqish, o‘z ustida mustaqil ishlash va dars tahlili bo‘yicha metodik tomondan qurollantirish              | Amaliy        |

Shuningdek, darsliklarga yangi kiritilgan mavzular muhokama etilishi, o‘zaro tajribalar almashinishi ham muhim sanaladi.

9-sinf darsligiga Shavkat Rahmonning “Tong ochar ko‘zlarin...”, “Turkiylar”, “Jangda o‘lgan emas biror bahodir”, “Baxt so‘zi” she‘rlari yangidan kiritilgan bo‘lib, “Tong ochar ko‘zlarin...” she‘ridagi lirik qahramon tabiati; “Turkiylar” she‘rida o‘zlikni tanish, Vatan tuyg‘usi, millat qayg‘usi kabi tushuncha va kechinmalar ifodasi; “Jangda o‘lgan emas biror bahodir”, “Baxt so‘zi” she‘rlarida shoirning o‘ziga xos egzulik, insonparvarlik g‘oyalari ifodalangan.

O‘qituvchi 2 soatga mo‘ljallangan Sh. Rahmonning she‘rlari mavzusida qaysi she‘rni yodlashlari o‘quvchilar ixtiyoriga qoldirilgani va shoir hayoti va ijodini o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil o‘qish uchun topshiriq berib, butun darsni badiiy, o‘quv tahlillarini o‘tkazish tavsiya etiladi. “Tong ochar ko‘zlarin...” she‘ri ifodali o‘qiladi.

Tong ochar ko‘zlarin erinib,                      Qurbaqa varaqlar bayozin,  
sevinchdan yig‘laydi qiyloqlar,              guldun bol so‘radi arilar,



chechaklar jilmayar sevinib,  
shamolda cho'milar giyohlar.  
O'ynoqi shu'lalar — bolalar  
jimgina tarqalar sayhonga,  
o'rgimchak to'qiydi tolalar,  
xonqizi boradi mehmonga.

**O'quv tahlili o'tkaziladi:**

Shavkat Rahmonning «Tong ochar ko'zlarin...» she'rida shoir tabiat tasviri orqali o'simlik va jonzotlarning tabiatidan ajoyib o'xshatish yaratgan:

Tong ochar ko'zlarin erinib,  
sevinchdan yig'laydi qiyloqlar,  
chechaklar jilmayar sevinib,  
shamolda cho'milar giyohlar.

Osmonning bir burchida otayotgan tongning tasvirini majoziy xarakterda nurga qiyoslaydi. Tong nuri odimlab chiqib keladi. Tongning otishini kuzatgan kishi borki, erinib so'zini yaxshi tushunadi. Shoir o'sadigan qiyloq o'simligini nurdan sevinib yig'lashini, chechaklar jilmayishini tasviriy jonlantiradi, giyohlarning shamolda tebranishini cho'milishga o'xshatadi.

**1-topshiriq.** Lug'at ustida ishlash:

| <i>T/r</i> | <i>She'riy parchalar</i>                                       | <i>Mazmuni</i>   | <i>So'zning lug'aviy ma'nosi</i>   |
|------------|--|--|--|
| 1          | Tong ochar ko'zlarin erinib,<br>sevinchdan yig'laydi qiyloqlar | Tong yorishishi bilan yorug'lik, issiqlik taftidan qiyloq o'simligining sevinib yig'lashi tasvirlanadi | <b>Tong</b> -kun chiqish payti, subhidam, sahar, azon;<br><b>Qiyloq</b> -o'simlik turi   |
|            | O'ynoqi shu'lalar — bolalar<br>jimgina tarqalar<br>sayhonga    |  | <b>Shu'la</b> -olov, alanga, mash'al, biror jismdan taraluvchi nurli energiya;<br><b>Sayhon</b> -katta tekis ochiq joy, maydon |
|            | Qurbaqa varaqlar bayozin,<br>guldan bol so'radi arilar         | Qurbaqa she'rlar to'plamini varaqlar, gulning totini(nektar) so'radi arilar                            | <b>Bayoz</b> -she'rlar to'plami;<br><b>Bol</b> -asal, totli,   |



O'quvchilar she'rlardagi lug'attalab so'zlarni lug'at asosida mazmunini tushunib olar ekan, o'quv tahlilida qiynalmay mazmunini yaxshi tushunib olishadi.

## 2-topshiriq:

She'rdagi keltirilgan jon zodlar nomlarini biologiyadan olgan bilimingizga tayanib jadvalga joylashtiring.

|            | <i>Farqli jihati</i>  | <i>Oziq lanishi</i>         | <i>Insonga ahamiyati</i>   | <i>Shoir izohi</i>          |
|------------|---|-----------------------------|--|-----------------------------|
| o'rgimchak | <i>o'rgimchak bezlaridagi suyuqlik havoda qotib ipga aylanadi, bu ipdan (to'r) o'ziga in to'qiydi.</i>        | <i>pashsha kapalak</i>      |  | o'rgimchak to'qiydi tolalar |
| qurbaqa    | sakraydi  | chivin, o'rgimchak, pashsha |  | qurbaqa varaqlar bayozin    |
| ari        | o'ta harakatchan tez uchadi, qizil rangni sezmaydi, turli harakatlari bu uning axborot almashishini bildiradi | gul nektari so'radi         | asal- inson sog'ligi uchun foydali, o'simliklarni changlantiradi | guldan bol so'radi arilar   |
| chigirtka  | sakraydi  | hashorat                    |  | chigirtka qayraydi ovozin   |
| ninachi    | uchadi  |                             | suvdagi hashoratlar bilan oziqlanadi                             | parvozda ninachi — parilar  |

*Izoh: Bu jadvalning to'ldirilishi namuna uchun berildi. O'quvchilar ko'plab asoslar, izohlar keltirish mumkin. Muhimi, o'quvchilar jadvalni to'ldirishda she'rni beixtiyor o'qiydi, shoir talqinlarini qiyoslaydi.*

## 3-topshiriq: She'rni ifodali o'qing va mazmunini izohlang.

### 1-o'quvchi

O'ynoqi shu'lalar — bolalar  
jimgina tarqalar sayhonga,  
o'rgimchak to'qiydi tolalar,  
xonqizi boradi mehmonga.

Shoir shamolda tebranib o'ynayotgan shu'lalarni bolalarga o'xshatadi. She'rdagi o'rgimchak tolalar to'qiydi, xonqizi mehmonga



boradi, qurbaqa qo‘shiq aytadi, chigirtka ovozini qayraydi kabi o‘xshatishlar kishida beixtiyor tabassumni uyg‘otadi.

### 2-o‘quvchi

Chumoli, mehnatkash chumoli,  
kuyinma, atrofga bir qara —  
maysalar, oh, qanday himoli  
dunyoni qilma qo‘p masxara.

Chumoli tabiatiga xos mehnatkash timsolida tasvirlangan. Shoir bu murojaati orqali ba‘zi befarq insonlarni kinoyaga olgan bo‘lsa ajab emas. E‘tibor qilsangiz, insonlarga qarata, hayotning to‘fonlaridan kuyinma deydi, “oh, qanday” so‘zlari orqali hayotdan zavq olib yashashga, ezgulikka chorlaydi hamda vaqtning qadriga yetishga, dunyoni masxara qilmaslikga chaqiradi.

She‘rdagi so‘z san‘atini markazda tutgan holda o‘quvchilar bilan integratsiya shaklida mustahkamlab olish ijobiy natijalarga olib keladi.

### **4-topshiriq:**

1). Guldan bol so‘rgan arining bir kilogramm asal yig‘ish uchun qancha vaqt sarflashini hisoblab toping.

Oddiy bir asalari bir soatda soatiga 6 kilometr tezlikda uchadi. Bir vaqtda o‘rtacha 700 gulga qo‘nadi. Hisoblarga ko‘ra, bir kilogramm asal yig‘ish uchun ari 19 mln gulga qo‘nib, 300 ming kilometr uchish lozim. Tabiiyki, asalari juda mehnatkash hasharot, ammo u qancha tirishmasin, bir kilogramm asalni yig‘a olmaydi. Buning sababi nima?

**Javob:** *1 kilogramm asalni bitta ari emas, bir necha ming ari tomonidan yig‘iladi. Buning sababi –u bor-yo‘g‘i 30-35 kun hayot kechiradi. Bundan ko‘rinadiki, umri yetmaydi.*

2). Donishmand savoliga javob toping  
Yunonistonlik bir donishmand: “**Inlardagi asalarilar kabi bo‘ling**”, deb nasihat qilganida shogirdlari hayron bo‘lib: “**Inlardagi asalarilar qanday bo‘ladi?**” deb so‘rashdi.

| Javoblar  | To‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri? |
|---|---------------------------|
| <i>Ziyrak, ozori kam, o‘zi topgan pok narsani yeydi</i>                   | To‘g‘ri /<br>Noto‘g‘ri    |
| <i>Arilar inida bekorchini qo‘ymaydi, uni haydab chiqaradi</i>            | To‘g‘ri /<br>Noto‘g‘ri    |
| <i>Katakcha(uy)larini toza saqlaydi, bir-birining ishiga aralashmaydi</i> | To‘g‘ri /<br>Noto‘g‘ri    |



O'qituvchilar bu topshiriqlarni birdek qo'llashi tavsiya etilmaydi. Qiziqishi, o'zlashtirishiga qarab guruhlar bilan ishlashda qo'llash mumkin.

Bu topshiriqlar asosida she'r tahlili turadi. She'rning mazmunini yaxshi tushunib olishlari uchun topshiriqlar umumlashtirilib o'quv tahlili o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Mavzularni tushuntirishda o'quvchilarning lug'at bilan ishlash ko'nikmalari rivojlantirilsa, mantiqiy fikrlashga yo'naltirilsa ularning o'qishga qiziqishi ortadi. Qachonki, o'quvchi o'zi o'qib tushunar ekan, tez yod oladi, oddiygina bu salbiy, bu ijobiy deb baholamaydi. Balki, she'rdagi mahoratni tushuntiradi, hayotdagi turli to'siqlardan bardosh bilan o'tgan qahramonning matonat, irodasini his qilishga o'rgatadi; shunda o'quvchi ruhiyatida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Xulosa qilinganda, ta'lim muassasalarining istiqbol rejalarining mazmunli tuzilishi, o'qituvchilarning sifatli darslari orqali o'quvchilar buyuk ma'naviy merosini o'rganish, ma'naviy qadriyatlarimizdan faxrlanish, insoniy fazilatlaridan g'ururlanish tuyg'ulari- borliqni idrok etish madaniyatini hamda ularning savodxonligini oshirish, ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.





## O‘zbek tili fanidan avgust kengashlariga tavsiya

*F. Tolipova o‘zbek tili fani metodisti*

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili kommunikativ tamoyilda ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. O‘quvchilarda mantiqiy mushohada yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish o‘zbek tilini yetarli darajada egallashlari maqsadida O‘zbek tili o‘quv rejasi takomillashtirildi. O‘zbek tilining o‘qitilishiga ajratilgan haftasiga 2 soat yiliga 68 hajmdagi soat yetarli emasligi o‘z tasdig‘ini ko‘rsatmoqda. Shu ma’noda, o‘quv rejada O‘zbek tili (Davlat tili) fanining soatlari haftasiga 3 soat, yiliga 102 soat hajmda 1 chorakda 27 soat, 2 chorakda 21 soat, 3 chorakda 30 soat, 4 chorakda 24 soat o‘qitilishi belgilandi. O‘zbek tili o‘quv dasturida sinflar kesimida 18 ta nutqiy mavzu qamrab olindi. Har bir nutqiy mavzuni o‘rganishga 5 soat ajratildi. Dasturda lingvistik kompetensiyalarning berilishi uzviylashtirildi. Nutqiy mavzularning takror berilishi bartaraf etildi. Nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan nutqiy va grammatik bilimlar izchillikda berildi. Takomillashtirilgan o‘quv dasturida leksika, grammatika, muomala odobi va adabiy o‘qish parametrlari qamrab olingan. O‘quv dasturining adabiy o‘qish ruknida o‘zbek va jahon adabiyotining eng yirik namoyandalarning hayoti, ijodi va asarlarini alohida soatda o‘qitishga e’tibor qaratildi. Avval O‘zbek tili fanida o‘zbek va jahon adabiyotining yirik namoyandalari va ularning asarlari alohida soatda o‘rganilmas edi. Dars soatlarining ko‘payishi bunga imkoniyat yaratdi. O‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari e’tiborga olingan holda sinflar kesimida adabiy figura va ularning sara asarlari tanlab olindi. Quyida sinflar kesimida o‘quv dasturining adabiy o‘qish rukniga kiritilgan asarlar jadvalda keltirib o‘tiladi.

|               |   |
|---------------|---|
| <b>5-sinf</b> | Anvar Obidjon O‘zbekiston”, E‘zoza Alimova “Mening oilam” topishmoqli she’ri, Mo‘g‘ul xalq ertagi “Zehnli bola”, Tursunboy Adashboyev “Muallimim”, Haydar To‘rayev “Ona tilim”, Yayra Sa’dullayeva “Boqi- Toqi” hikoyasi, Shukur Sa’dulla “Oltin kuzim” she’ri, Abdurahmon Akbarning ijodi va she’rlari, A.S. Pushkin “Tilla baliqcha haqida ertak”, Xalq og‘zaki ijodida sport haqida (maqollar), Zafar Diyor “Oltin qishloq” she’ri, Miraziz A‘zam “Onam ishdan keladi” she’ri, Muhiddin Omonning she’rlari, Safar Barnoyev “Minora” she’ri, I. A. Krilov “Ninachi va chumoli”, Umida |
|---------------|---|



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

2019 YIL AVGUST KENGASHLARI MATERIALLARI TO'PLAMI

|               |   |
|---------------|---|
|               | Abduazimovaning she'rlari, Rauf Tolibning "Dehqon buvaning bog'i";  |
| <b>6-sinf</b> | Qambar ota "O'zbekiston - onajon" she'ri, Xalq og'zaki ijodidan "Hunarli yigit" o'zbek xalq ertagi, Maqsud Qoriyev "Kitob o'qishning hikmati" (hikoyat), Quddus Muhammadiy "Kitob bizniki" she'ri, Hamid Olimjon "O'zbekiston" she'ri, Tolib Yo'ldosh "Yerning tili" she'ri, Andersen "Qor malikasi" ertagi, Hamid G'ulom "Tog'" she'ri, Xalq og'zaki ijodidan rivoyatlar, Bilol Aminov "Manguberdi jasorati", Shukrullo "Tirik qalb" she'ri, Leonardo da Vinchi "Tok va bog'bon" (rivoyat), Mahmud Murodov "Shirin palov" hikoyasi, Matluba Qosimova "Uyg'onish" hikoyasi, Ergash Shodmonov "Ulug'bekni kim so'roqlar?" she'ri, O'lmas Umarbekov "Soat" hikoyasi, Kavsar Turdiyeva "Toshkent madhiyasi" she'ri, Temur Ubaydullo "Yoz chorlaydi bag'riga" she'ri; |
| <b>7-sinf</b> | Ilyos Yunusov "Toshkentim" she'ri, Safar Barnoyev "Mahallamiz" she'ri, Po'lat Mo'min "Ustozlar" she'ri, Tursunboy Adashboyev "Ona tilim" she'ri, Yoqutxon Rahimova "Shirin qanday qiz?" hikoyasi, Zafar Diyor "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq" qissasi, Zikrilla Ne'mat "O'zbekiston posbonlari" she'ri, Shukur Qurbon "Vatan" she'ri, Aziz Qayumov "Buyuk tarixchi bilan uchrashuv" (asaridan parcha), Mirtemir "Buvijonim" she'ri, Mahmud Sattorovning she'rlari, Ergash Shodmonov "Temur bobomga ta'zim" she'ri, Habib Po'latov "Ikki irmoq" ertagi, Muhammad Yusuf "Ketib qolma, Orolim" she'ri, Olqor Damin "Sport, sport, sport!", Sunnatulla Anorboyev "Bahs" hikoyasi.   |
| <b>8-sinf</b> | Barot Isroil "Shunday o'lkam bor" she'ri, Qudrat Hikmat "Erinchoq va kuz" she'ri, Oybek "Ne'matak" she'ri, Dilshod Rajab "Bug'doy - rizq-ro'zimiz" she'ri, Habib Sa'dulla "Uchrashuv" she'ri, Zulfiya Mo'minova "Bolaga kitob bering" she'ri, Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni minib", Abu Ali ibn Sino haqida adabiy materiallardan parcha, xalq og'zaki ijodidan "Keksa kulol va shogird", xalq og'zaki ijodi "Noahillik oqibati" (sharq ertagi), Mahmuda Toirova "O'ttiz ikki qo'riqchimiz omon bo'lsin!" hikoyasi, Ginnesning rekordlar kitobidan namunalar, Sa'dulla Hakim "Ona tilim" she'ri, Ne'mat Orif "Umumxalq hashari" she'ri, Ibrohim Rahim "Uvol bilan zavol" she'ri, Abdulla Oripov "Men nechun sevaman   |



|               |  |
|---------------|--|
|               | O‘zbekistonni?”she’ri, Nazarmat “Vatan madhi” she’ri, Fazliddin Po‘latov “Yozda” she’ri;   |
| <b>9-sinf</b> | Zulfiya Mo‘minovning Vatan haqidagi she’rlari, Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” xotiralaridan, Abu Rayhon Beruniy haqida adabiy materiallar, Tohir Malik adabiy materiallardan parcha, Humoyun Akbarov adabiy materiallardan parcha, Gogol “Revizor”, Abdulla Qahhor adabiy materiallardan parcha, Chori Avaz adabiy materiallardan parcha, Mirkarim Osim To‘maris, Pirmqul Qodirov “Yulduzli tunlar”, Zulfiyaxonimni xotirlab avtobiografik matnlar, xalq og‘zaki ijodi “Bola va olma daraxti” rivoyati, Muslim Yo‘ldoshev “Bir dam o‘tir, onajonim”, Ravshan Fayz adabiy materiallar, Is‘hoqxon To‘ra Ibrat, Razzoq Hamroyev hayoti va ijodi, Botir Zokirov san‘atga oid matnlar, A. P. Chexov hikoyalari. |

Bugungi kunda jamiyatda fan, axborot-kommunikatsion texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir pallada, o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy barkamol insonlar bo‘lib yetishishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirishda, tom ma’noda komil inson qilib tarbiyalashda darsliklarni sifatli va mazmunli qilib tayyorlashni davr taqozo etmoqda. 2019-2020 o‘quv yilida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 3-,8-,9-sinf O‘zbek tili darsliklari qayta nashr etildi. O‘zbek tili darsliklari yangicha yondashuvda zamon talablariga mos holda xususan, darslikning mazmunida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, zehniini charxlashga yo‘naltirilgan mashq va topshiriqlar, fanlararo integratsiya, o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar qamrab olingan holda nashrga tayyorlandi. Darslikning mazmuniga o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon umummadaniyatiga hissa qo‘shgan o‘zbek xalqining buyuk allomalarining ijodiy merosini o‘rganish maqsadida adabiy o‘qish materiallari izchillikda kiritildi, o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalar singdirildi.

**3-sinf O‘zbek tili** darsligining qayta ishlangan 5-nashri; 2019 yil “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi; qog‘oz bichimi 60x90 16/1, 144-bet hajmida chop etildi. Darslik 2017 yilda takomillashtirilgan o‘quv dasturi asosida ishlandi; darslikda 17 ta nutqiy mavzu qamrab olindi, 6



ta yangi mavzu kiritildi; har bir nutqiy mavzuni o'rganishga 3-4 soat ajratildi. Dizayn va illyustratsiyalar, rasmlar 4x0 rangda davr ruhiga moslab berildi; dialog va matnlar soddalashtirildi; mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savol va topshiriqlar hamda fanlararo integratsiya e'tiborga olindi.

**8-sinf O'zbek tili darsligining** qayta ishlangan 4-nashri; 2019 yil "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi; qog'oz bichimi 70x90 1/16, 128-bet hajmda chop etildi. 2017 yilda takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida ishlandi; 18 ta nutqiy mavzu qamrab olindi; har bir nutqiy mavzuni o'rganishga 4 soat ajratildi. Dizayn va illyustratsiyalar 4x0 rangda; nutqiy mavzular doirasida 36 ta rangli rasm; har bir nutqiy mavzu doirasida dialog va matnlar soddalashtirib berildi; mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savol va topshiriqlar, fanlararo integratsiya, o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar qamrab olindi.

**9-sinf O'zbek tili darsligining qayta ishlangan** 4-nashri; 2019 yil "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi; qog'oz bichimi 70x90 1/16, 128-bet hajmda chop etildi; darslik 2017 yilda takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida ishlandi; darslikda 18ta nutqiy mavzu qamrab olindi; har bir nutqiy mavzuga 5 soat ajratildi. Dizayn va illyustratsiyalar 4x0 rangda; nutqiy mavzular kesimida 36 ta rangli rasm berildi; har bir nutqiy mavzuda berilgan dialog va matnlar soddalashtirib berildi; mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savol va topshiriqlar, fanlararo integratsiya, o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar qamrab olindi.

O'qituvchi darslikda qamrab olingan materiallarni oson va qulay metodlar orqali yetkazib berishi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbek tili fani ona tili (milliy maktablar uchun) fanidan o'ziga xos o'qitish metodikasi bilan farqlanadi. Darslikda berilayotgan har bir nutqiy va grammatik materialni ya'ni: topshiriqlar, dialoglar, grammatik materialni qiyosiy solishtirish metodi orqali o'rgatish, matn bilan ishlash, lug'at bilan ishlashda o'ziga xos bo'lgan individual metodlarini qo'llash boshqa millat vakillarining o'zbek tilini oson o'rganishlariga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, ta'lim sifatini oshirishda dars jarayonida o'qituvchi faqatgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan, ijodkorlik va ijodiy muhitni shakllantirishi muhim omillardan sanaladi. O'zbek tilini o'rgatishda darslikda berilayotgan materiallarni yetkazib berishda o'quvchilarning qobiliyati va iste'dodini hisobga olgan holda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Jumladan:

- tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda materiallarni matn yoki surat holda, balki multimedia imkoniyatlaridan foydalanib



boshqa ko'plab shakllarda yetkazib berish imkoniyati mavjud. Animatsiya, ovoz, videotasvir, kompyuter grafikasidan o'rinni foydalanish til ta'limi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;

- o'quvchilarni gapirishga o'rgatishda dialogik va monologik nutqni o'stirishga e'tibor qaratish. Dialogik nutqqa o'rgatishda reproduktiv-mahsuldor mashqlar sifatida namuna asosida dialog tuzish, berilgan kalit so'zlar, savol-javoblar yordamida dialoglarni davom ettirish, fikrni tugallash tarzidagi mashqlarni qo'llash katta samara beradi. Monologik nutqni rivojlantirish biror namuna asosida (masalan, kalit so'zlar, reja, chizmalarni berish orqali) bog'lanishli matnlar tuzdirish topshiriqlari vositasida amalga oshiriladi;

- o'qituvchi o'quvchi tomonidan mavzuning to'liq o'zlashtirmaganligi sabablarini o'rganishi;

- o'zlashtirilmagan mavzularni qayd etuvchi daftar yuritish, kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash;

- darsda barcha material, manbalarni real hayot tarzi bilan bog'lash;

- nutqiy mavzu mazmuniga mos metod va usullardan soddadan murakkabga ko'ra foydalanish;

- bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchini iqtidorli o'quvchiga biriktirib qo'yish va olib borilayotgan ishlarni kuzatib borish;

- o'qituvchining o'zi ham bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan alohida ish olib borishi, bu jarayon darsda va darsdan tashqari holatlarda amalga oshiriladi;

- uyga berilgan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan alohida tushuncha berish;

- o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni o'qituvchi oldindan belgilab olishi va eng qulay metodlar yordamida uni bartaraf etishi tavsiya etiladi; shuningdek, O'zbek tili fani darsliklarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan matnlar berilgan. Matn bilan ishlashda mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan savollarni tuzishga e'tibor qaratish lozim. Matn bilan ishlash namunasi ilova etiladi.

Matnni diqqat bilan o'qing va topshiriqni bajaring.

---

(Sarlavha uchun joy)



Bir kichkinagina shaharchada odamlar zerikarli yashar ekanlar. Ular faqat televizor ko'rishar, telefonda gaplashishar, hattoki fotoapparat nimaligini bilmas ekanlar.

Ularda bironta ham kitob yo'q ekan. Shuning uchun onalari kechalari bolalariga kitob o'qib berolmas ekan. Doim televizorga yopishib o'tirishar ekan.

Kuz kunlarining birida osmondan kitoblar galasi pastlab uchib o'tibdi. Ular bu shaharchaga qarab hayron bo'lishibdi. Kitoblarni bilmaydigan insonlar ham bor ekanda, - deb o'ylashibdi.

- Biz ularga yordam berishimiz kerak, - debdi ulardan biri.

Va shunda kitoblar sahifalari bilan pastga qayrilib, osmondan pastga harflarni qoqa boshlashibdi.

Odamlar ko'chaga chiqib qarab, nima uchun qor erta yog'a boshladi,- deb hayron bo'lishibdi. Yana asosiysi qor uchqunlari emas, balki harflar yog'ayotgan emish. Ular yog'ayotgan harflarni yig'ib, ulardan so'zlar, gaplar va ertaklar hosil qilishibdi. Ertaklardan kitoblar hosil bo'libdi. Shunday qilib shaharda kitoblar paydo bo'libdi. Har kuni kechqurun onalari uyqudan oldin bolalariga kitob o'qib beradigan bo'lishibdi. Televizorni esa bolalari uxlab qolishganda, shunchaki dam olish uchun ko'radigan bo'lishibdi.

|   | <b>Matn yuzasidan savol va topshiriqlar</b>   |  |
|---|---|--|
| 1 | (sarlavha uchun ajratilgan joyga) sarlavha nomini yozing.   |  |
| 2 | Matn mazmuniga asoslanib, kichkinagina shaharchada nima sababdan yashash zerikarli ekanligining 3 ta sababini yozing.<br>1. _____<br>2. _____<br>3. _____ |  |
| 3 | Matnni nima sababdan ertak deb atashimiz mumkin. Uchta belgisini yozing.<br>1. _____<br>2. _____<br>3. _____  |  |
| 4 | Nima sababdan kitoblardan harflar yog'a boshladi. Sababini yozing.<br>_____   |  |



|         |   |         |  |  |  |  |
|---------|---|---------|--|--|--|--|
|         | _____   |         |  |  |  |  |
| 5       | <i>Doim televizorga yopishib o'tirishar ekan</i> gapining mazmunini izohlang.<br>_____<br>_____   |         |  |  |  |  |
| 6       | Shaharchada qanday qilib kitoblar paydo bo'lganligini matndan topib, bo'sh katakchalarga yozing.<br><table border="1" data-bbox="319 638 1316 683"><tr><td>Harflar</td><td></td><td></td><td></td></tr></table> | Harflar |  |  |  |  |
| Harflar |   |         |  |  |  |  |
| 7       | Bu voqealar qaysi faslda bo'lib o'tgan?<br>_____  |         |  |  |  |  |

**O'qituvchilarga metodik yordam sifatida bugungi kunda o'zbek tili ta'limiga oid manbalar: o'quv dasturlari, darsliklar, metodik qo'llanmalar, badiiy adabiyotlar, multimedia vositalari barcha-barchasi bosqichma-bosqich yaratilmoqda. Bundan ko'rinadiki, pedagog o'z mehnatini ijodiy mehnatga aylantirganda, pedagoglik ishining nazariyasini ham, amaliyotini ham astoydil o'rganib, boshqalarning tajribasidan foydalanib, o'zi ham tashabbuskorlik, ixtirochilik bilan ishlab, o'quvchilarni qiziqtirishi, ularning ishini faollashtirish, o'rganilayotgan materallarni hayot bilan bog'lagandagina o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda chinakam muvaffaqiyatli natijalarga erishadi.**

Yangi usullar va vositalarni izlab topish, o'z mehnatiga sidqidildan yondashish, darslarga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rish, texnika vositalari va ko'rgazmali qurollardan o'rinli va samarali foydalanish, g'oyat ruhlanib ishlash, zavqlanib dars berish har bir o'qituvchiga xos bo'lmog'i darkor.



## Chet tillarni o‘qitishdagi muhim vazifalar

*Xorijiy tillar bo‘limi boshlig‘i - Kazakova Saxiba Abdurayimovna*

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar yanada jadal rivojlanayotgan bir paytda har qanday davlat va jamiyat o‘zining yosh avlodlarini tarbiyalash, ularga munosib ta‘lim berishdek vazifani birlamchi hisoblaydi. Ana shunday muhim va mas‘uliyatli vazifa avvalo o‘qituvchi murabbiylarning bosh maqsadi asosi sanaladi. Chet til o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar ham, anchagina mehnat, shijoat va eng asosiysi fidokorlikni talab etadi. Nega aynan chet til o‘qituvchilari? Chet tilni bilish orqali o‘quvchi turli xalqlarning hayoti va turmush tarziga nazar solib, ulardan o‘ziga kerakli xususiyatlarni o‘rganib oladi.

*Bu yilgi “An’anaviy avgust kengashlari” “Jonajon O‘zbekistonim, mangu bo‘l omon!” shiori ostida tashkil etilmoqda.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Uzluksiz ta‘lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori bilan Umumyevropa kengashining CEFR me‘yor talablariga mos ravishda o‘quvchilarda 4 ta nutq ko‘nikma (tinglab tushunish, o‘qish, gapirish, yozish)larini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standarti tasdiqlandi.

2019-2020 o‘quv yilida 1-7 sinflar Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Uzluksiz ta‘lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori bilan tasdiqlangan DTS va o‘quv dasturlar asosida, 8-9 sinflar 2010 yilda optimallashtirilgan DTS va o‘quv dasturlar asosida, 10-11 sinflar esa umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limining chet tillari bo‘yicha belgilangan malaka talablari asosida o‘qitiladi.

2019 yilda qayta nashr etilgan 7-sinflar uchun chet (ingliz, nemis, fransuz) til o‘quv majmua tarkibiga o‘quvchi kitobi, o‘qituvchi metodik qo‘llanmasi va multimedia ilovalaridan iborat yaratildi. O‘quvchi kitobi ya‘ni darsliklar yangicha 60x90 1/8 format, ko‘rinish va mazmuni CEFR me‘yor talablariga mos ravishda tinglab tushunish, o‘qib tushunish,





gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan boyitilgan holda qayta nashr etildi.

Qayta nashr etilgan chet (ingliz, nemis, fransuz) til 6-7 sinflar darsliklarining multimedia ilovalarining alohida ahamiyati “Chrome” brauzeridagi **“HTML document”** offlayn tizimida ishga tushirilishidir. Multimedia ilovasi har bir bo‘lim yakuniga doir nazorat ishlari uchun tinglab tushunish, o‘qib tushunish, o‘tilgan grammatik mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini tekshirish imkonini beruvchi topshiriqlar bilan boyitilgan.

Shuningdek, o‘quvchi kitobida har bir bo‘lim yakunida **“HOME READING”** ya’ni o‘quvchilar uyda mustaqil ravishda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish imkonini beruvchi qisqa matnlardan iborat ajratilgan sahifadagi matnlarning audio yozuvlari bilan alohida bo‘lim berilgan. Grammatika bo‘limida o‘tilgan mavzular bo‘yicha mustahkamlovchi interaktiv mashqlar kiritilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarga o‘zini-o‘zi baholash imkonini beradi.

Quyida 2019 yilda qayta nashr etilgan 7-sinf Ingliz tili darsligidagi ayrim o‘zgarishlardan misollar keltiriladi:

2013 yilda chop etilgan darslikdagi **City and village** bo‘limi **Where we live** nomiga, **Clothes** bo‘limi **What we wear** nomiga o‘zgardi. **Geography** bo‘limi tarkibidagi mavzular ham tubdan o‘zgargan. Har bir bo‘limi boshida yangi bo‘lim davomida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan malakalar belgilab berilgani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quvchi va o‘qituvchiga aniq maqsad va vazifani belgilab olishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchi kitobining har bir bo‘limi yakunida **“HOME READING”** ya’ni uyda mustaqil o‘qish uchun qisqa matnlar berildi.

Fransuz tili darsligidagi o‘zgarishlar - 2013 yilda chop etilgan 7 sinf fransuz tili darsligi bilan 2019 yilda qayta nashr etilgan darslikning bo‘lim va mavzularining nomida o‘zgarish bo‘lmasa-da, mazmunan boyitilgan.

2013 yilda chop etilgan darslikdagi **Les jeunes et la mode** bo‘limi 2019 yilda qayta nashr etilgan darslikdagi **“A la mode ou pas a la mode”** nomiga o‘zgargan. Oldingi nashrdagi **“Bilan”** mavzulari olib tashlanib, har bir bo‘lim so‘ngiga **“S’entrener”** va **“Evaluation”** sahifalari kiritilgan. Qayta nashr etilgan darslikdagi har bir mavzu mazmuniga o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, o‘quvchilarda tinglab tushunish, o‘qib



tushunish, yozish, gapirish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi test, mashq, krossvord va boshqotirmalar kiritilgan.

Bunga o'xshash yangiliklar chet til sifatida o'qitilayotgan 7-sinf nemis tili fanidan qayta nashr etilgan darslik tarkibiga ham kiritildi.

Bugungi kunda dunyoda raqamli texnologiya yo'nalishi rivojlanib borayotgan bir paytda, har bir sohada STEAM/STEM fanlari bo'yicha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj vujudga kelmoqda. Bu ehtiyojni chet til fanlarida innovatsion til o'rgatish metodikalarini qo'llab o'qitish orqali to'ldirish mumkin.

Shunday metodlardan biri bu – **CLIL** metodidir. **CLIL** (Content and Language Integrated Learning) – mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish innovatsion metodi bo'lib, mavzuga oid ma'lumotni va chet tillarni darsda bir xil o'rgatish uchun bu o'qitish metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarda chet til vositasida boshqa umumta'lim fanlariga bo'lgan qiziqishni uyg'otish yoki kuchaytirish imkoni vujudga keladi.

Jumladan, geografiya va amaliy fanlar, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari yo'nalishlarini integratsiyalashgan holda o'qitishni STEAM/STEM ta'lim yondashuvi asosida tashkil qilishni tavsiya qilamiz.

Amaldagi darsliklarda berilgan mavzular orqali **CLIL** metodidan foydalanib, ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin. 2019-2020 o'quv yili uchun qayta nashr etilgan 7-sinf chet (ingliz, nemis, fransuz)til fanlari darsliklaridagi Geografiya bo'limida berilgan mavzular bir tomondan mazmunni chet tilda tushunish imkonini bersa, ikkinchi tomondan chet tilda berilgan ma'lumotlar orqali geografiyaga oid bo'lgan bilim mustahkamlanadi.

Masalan, 7-sinf ingliz tili darsligining Geografiya bo'limi birinchi "We are not alone!" darsi mavzusining 1-A mashqida 4/5 nafar o'quvchilardan iborat kichik guruhlarda ishlash orqali dunyo xaritasida O'zbekiston qaysi qit'ada joylashganligini aytish va uning o'rnini ko'rsatish topshirig'i berilgan.

Shuningdek, ushbu bo'limning ikkinchi "Which continent is the largest?" darsi mavzusida juftlikda ishlash orqali berilgan dunyo xaritasida ko'rsatilgan 7 qit'aning eng kattasi va eng kichigi qaysi biri ekanligi, aholisi eng ko'p bo'lgan qit'a hamda eng ko'p davlatlardan



iborat qit'alar to'g'risida berilgan savollarga javob topish orqali geografiya fanida egallangan bilimlar mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, uchinchi dars mavzusida berilgan 1-B mashqi orqali o'quvchilarda ikkita qisqa matnlarda berilgan ma'lumotlar asosida AQSh nechta shtatdan iboratligi hamda ushbu shtatlarning joylashuv o'rni, undagi orollar haqidagi geografiya faniga oid bo'lgan ma'lumotlarning mazmunini ingliz tili orqali anglashlarini rivojlantiradi.

7-sinf fransuz tili darsligining oltinchi "Mon beau pays" bo'limida Fransiya va O'zbekiston davlatlarining diqqatga sazovor joylari, ularning geografiyasi va iqlimi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bu bo'limning o'n to'rtinchi dars 1-mashqida Fransiyaning xaritasi ko'rsatilgan va xarita yuzasidan 2-mashqda o'quvchilarga davlatning diqqatga sazovor hududlari haqida ma'lumot berilgan. 3-mashqda esa o'quvchilar xarita bilan ishlash bilimlarini mustahkamlaydilar.

Nemis tili fanidan qayta nashr etilgan 7-sinf darsligining ikkinchi bo'lim mavzulari ham geografiya fani bilan bog'langan holda yoritilgan. Misol uchun, Zwei Länder: Das Ganze und die Teile mavzusida xaritalarda Germaniya va O'zbekistonning geografik joylashuvi, ma'muriy-hududiy tuzilishi berilgan. Shuningdek, chegaradosh qo'shni davlatlari haqidagi ma'lumotlar bor.

Har uchchala chet (ingliz, nemis, fransuz) til fani darsligidagi geografiya faniga oid bo'lgan ma'lumotlar orqali chet tilda mazmunni tushunish imkonini beradi

Yuqorida berilgan **CLIL** - metodidan dars jarayonida foydalanish o'quvchilarni boshqa fanlarga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga hamda kelajakda tanlagan kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishiga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilardagi kommunikativ va sotsiolingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda **CLIL** - bu integratsiyalashgan holda o'qitish metodi.

Bizning oldimizda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining «Yo'l xarita»sida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish kabi vazifalar turibdi.

Konsepsiya «Yo'l xarita»sida berilgan "Chet til fan o'qituvchilarining til bilish darajasini Yevropa Kengashining CEFR xalqaro me'yor talablarining C1 darajasini egallashlarini 2030 yilga qadar 100 foizga chiqarish" vazifasi ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-2020 o'quv yilidan boshlab chet tillari bo'yicha tashkil etilgan tayanch maktablari faoliyatini jonlantirib, muntazam ravishda mavjud



chet til fani o'qituvchilari uchun seminar-treninglar tashkil qilish kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilar mustaqil ravishda o'z ustida ishlashi ham muhim omil sanaladi.

Chet tillari bo'yicha maktab bitiruvchilarining til bilishining B1 darajasi 2030 yilga qadar 100 foiz egallashiga erishish uchun o'quv dasturidagi chet tilni amaliy o'rganishga qo'yilgan talablar doirasida o'quv yili davomida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malakalarni hamda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini o'z vaqtida rivojlantirib borishimiz va chet tillardan tashkil etilgan fan to'garaklari faoliyatini ayniqsa 8-9 sinflarda yanada kuchaytirishimiz kerak bo'ladi.



## Методические рекомендации по проведению уроков русского языка и литературы

Ежегодное августовское совещание работников народного образования должно быть посвящено обсуждению самых актуальных проблем их профессиональной деятельности. Основное внимание секции учителей русского языка и литературы будет уделено коренному повышению качества преподавания русского языка как родного и как иностранного в школах Республики Узбекистан, использованию таких подходов, которые развивают творческие и интеллектуальные способности учащихся. Важная роль при этом отводится развитию компетенций и навыков критического мышления, самостоятельного поиска и анализа информации, оценке качества образования и уровня знаний учащихся (PISA, TIMSS, PIRLS и другие), использованию на уроках информационно-коммуникационных технологий.

Вопросы, которые будут вынесены на заседания секций августовских совещаний преподавателей русского языка и литературы в школах с русским, узбекским и другими языками обучения также должны исходить из сущности государственной программы «Год активных инвестиций и социального развития», Концепции развития системы народного образования до 2030 года», а также из целей, намеченных в Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года, таких как вхождение Республики Узбекистан в ряд первых 30 ведущих стран мира по рейтингу программы оценки учащихся Международного уровня PISA; совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса; внедрение современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сферу народного образования.

Учителя должны вооружиться современными знаниями и передовыми технологиями, чтобы добиваться соответствия уровня подготовки выпускников требованиям Общеввропейских компетенций владения иностранным языком: изучение, преподавание, оценка (Common European Framework of Reference, CEFR), а также международным требованиям к уровню подготовки по русскому языку и литературе в классах с русским языком



обучения. Важно помнить, что без прочного усвоения норм литературного языка, без овладения навыками чтения невозможно и развитие STEAM подхода в образовании (наука, технология, инжиниринг, искусство и математика).

В этом учебном году переизданы учебники и учебные пособия для школ с узбекским и другими языками обучения, усовершенствованные на основании компетентного подхода к обучению: «Русский язык» 3 класс (авторы Сергеева Н.И и Корчуганова О.А.), «Русский язык» 8 класс (авторы Рожнова М.Э. и Яминова У.Т.), «Русский язык» 9 класс (авторы Усманова Р.М. и Кадилов К.Н.), а также учебники для классов с русским языком обучения: «Русский язык» 8 класс (авторы В.И.Зеленина, М.Э.Рожнова), «Русский язык» 9 класс (авторы В.И.Зеленина, О.В.Кон), «Литература» 8 класс (авторы Н.М. Миркурбанов и другие) и «Литература» 9 класс (авторы Г.Т. Гарипова и Н.М. Петрухина). Усилена коммуникативная направленность упражнений и заданий, материал для упражнений тщательно выверен, что соответствует нацеленности на формирование ключевых и предметных компетенций. Изменился иллюстративный ряд, введены новые таблицы и схемы с изучаемыми моделями. Новые, переработанные учебники включают также материал, рассчитанный для углубленного изучения предметов.

В этом учебном году изданы также значительно усовершенствованные учебники и учебные пособия для школ с русским языком обучения: «Букварь», «Прописи» для 1-х классов, а также учебники «Русский язык» для 1 и для 3 класса (авторы М.Х. Тохтаходжаева и другие), «Книга для чтения» (авторы В.М. Кожуховская и другие) для 1 и для 3 класса, которые доработаны на основании компетентного подхода к обучению.

На секционных заседаниях необходимо довести всю эту информацию до сведения преподавателей-практиков и подготовить их к работе по усовершенствованным учебникам. Учителя должны творчески отнестись к разработке календарно-тематического планирования уроков, учитывая возрастные и психологические характеристики учеников, особенности региона, знаменательные даты. На августовской конференции желательно предложить молодым учителям несколько вариантов



тематического планирования, в которых указать тему урока, отведенные на ее изучение часы, дату проведения урока.

Большую помощь в организации образовательного процесса окажут учителям интернет ресурсы: [rtm.uz](http://rtm.uz), [ziyonet.uz](http://ziyonet.uz), [uzedu.uz](http://uzedu.uz), [edunet.uz](http://edunet.uz), [Kitob.uz](http://Kitob.uz), [multimediya.uz](http://multimediya.uz), а также Виртуальный кабинет учителя на сайте [classcom.uz](http://classcom.uz), разработка которого осуществлена в свете государственной программы «Год поддержки активного предпринимательства, инновационных идей и технологий» в сотрудничестве с Международным женским фондом «Шарк аёли». Программа предоставляет в удобном для современного учителя интерфейсе необходимые для учебного процесса электронные ресурсы: нормативные документы, конспекты, презентации, учебники, пособия, наглядный и раздаточный дидактический материал, видео и аудио ролики, фрагменты художественных фильмов и театральных постановок, таблицы и многое другое по всем предметам и по всем классам. Уникальный органайзер графика уроков обеспечивает оперативный доступ к списку учебных ресурсов по определенной учебной теме. Все материалы сайта предоставлены авторами действующих учебников и полностью соответствуют государственной программе.

Важную роль в повышении уровня преподавания русского языка и литературы сыграли республиканские и региональные мероприятия, проведенные в 2018 – 2019 учебном году. Это прежде всего республиканский этап олимпиады, победители которого получили сертификаты для поступления в профильные вузы. Это многочисленные международные семинары и мастер-классы, в которых участвовали учителя со всех регионов нашей страны и республиканский конкурс «Лучший учитель русского языка», десять победителей которого были награждены экскурсией в Москву. Материалы, присланные на конкурс, публикуются в газете «Учитель Узбекистана», итоги его отражены на сайте [uzedu.uz](http://uzedu.uz), в журнале «Преподавание языка и литературы». Огромную помощь окажут учителю профессиональные периодические издания – «Учитель Узбекистана», «Преподавание языка и литературы», в которых освещаются все проблемы обучения русскому языку. Учителя могут принять участие в республиканском конкурсе, проводимом журналом «Преподавание языка и литературы» и получить



современные ноутбуки, прислав свои статьи и разработки. На августовских семинарах необходимо обсудить участие учителей в конкурсе лучших статей и разработок уроков, проводимом журналом «Преподавание языка и литературы» летом 2019 года и проблемы подписки преподавателей на профессиональные издания.

В январе 2019 года особенно интересный семинар был проведен в смарт-классе школы № 232 Зангиатинского района Ташкентской области. Материалы его широко освещены в печати и на телевидении. Весь год в республике действовали опорные школы, где систематически проводились семинары и тренинги, и работали неформальные объединения учителей русского языка. Если традиционное повышение квалификации проходит раз в пять лет, то система «Таянч мактаби» позволяет делать это систематически, совершенствуя знания по трудным темам, оттачивая профессиональное мастерство. Следует отметить, что в этом велика роль творческих групп учителей «Русоведы Узбекистана», «Учителя-филологи», которые провели в г. Коканде очередной, Второй слёт учителей русского языка нашей республики по проблемам обучения русскому языку, совершенствования методики преподавания.

В ходе обсуждения на секционных заседаниях необходимо уделить внимание возможностям, предоставляемым государством для самореализации подрастающего поколения, а также успехам молодежи в спорте, науке и искусстве, которые должны звучать на каждом уроке. Рекомендации учителям должны быть направлены на формирование в школьниках в ответ на заботу государства чувства патриотизма, стремления быть достойными родной земли, воспитание в них ответственности за процветание страны. Особое внимание следует уделить экологическому воспитанию на уроках русского языка и литературы.

В укреплении знаний учащихся, полученных на занятиях, развитии их духовности, любви к чтению большую роль играют занятия в кружках, которая наряду с повышением интереса учащихся к предмету способствует развитию навыков чтения, самостоятельного творчества.

На заседаниях секций необходимо организовать эффективный обмен опытом в плане организации работы





кружков, что позволит повысить результативность кружковых занятий, точно определить планы внеклассной работы. Также необходимо обсудить результаты аттестации учителей, а также итоговой и поэтапной аттестации учащихся, предметных олимпиад, проанализировать успехи и просчеты, сделать выводы и наметить мероприятия по реализации поставленных целей.

***Для обсуждения и обмена опытом на августовских совещаниях рекомендуется рассмотреть следующие темы:***

1. Передовые педагогические технологии – залог повышения эффективности преподавания русского языка и литературы.

2. Смарт-классы и интернет-сайты как средство эффективного использования современных информационно-коммуникационных технологий на уроках русского языка и литературы

3. Оценка качества образования и уровня знаний учащихся (PISA, TIMSS, PIRLS и другие).

4. STEAM подход в обучении русскому языку.

5. Экологическое воспитание на уроках русского языка.

6. Глубокие знания, профессиональное мастерство учителя – залог качества и эффективности уроков.

7. Работа с одаренными детьми: подготовка к предметным олимпиадам и конкурсам.

8. Итоги работы с учащимися 11 классов: подготовка к поступлению в высшие учебные заведения республики.

9. Внеклассная работа как элемент создания обучающей среды.

10. Любовь к чтению: как ее воспитать в современных школьниках?

По данным темам можно организовать дискуссии, защиту тем и круглые столы.



Учитывая то, что секционные заседания августовских совещаний служат основной методической помощью и ориентиром для практиков и методистов, целесообразно проведение заседаний нетрадиционно, интерактивно и интересно с тем, чтобы максимально вооружить преподавателей и методистов новыми знаниями.

Для получения дополнительной информации по русскому языку и литературе учителям рекомендуется обращаться к следующим интернет ресурсам: [uzedu.uz](http://uzedu.uz), [rtm.uz](http://rtm.uz), [ziyonet.uz](http://ziyonet.uz), [classcom.uz](http://classcom.uz), [Kitob.uz](http://Kitob.uz), [multimediya.uz](http://multimediya.uz) и др.

*Мусурманова Юлия Юрьевна Учитель русского языка школы №5 г.Янгиера, Сырдарьинской области.*



## Tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitishda «STEAM» yondashuv

*Respublika ta'lim markazi, Aniq va tabiiy  
fanlar metodisti Sangirova Zamira Bozorboyevna*

Hozirgi tez o'zgarayotgan dunyoda o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish asosiy maqsadimizdir. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash va ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur.

- har bir o'quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari, intellektual xususiyatlarini aniqlash, o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchang motivasiyani shakllantirish;
- iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni tanlash va individual yondashish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish;
- yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullarini va yo'nalishlarini joriy etish;
- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovasion loyihalarni joriy etish.

STEAM –real hayot talablaridan kelib chiqqan holda akademik ilmiy–texnikaviy konsepsiya doirasida integrasiyalashgan holda o'qitishdir.

Integratsiyalashgan ta'limni joriy etishdan ko'zlangan maqsad - bu ta'lim jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur etish va ular o'rtasida barqaror aloqa o'rnatish.

O'quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashi, ekologik muammolarni tushunishi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalash;

STEAM ta'limi tabiiy va iqtisodiy fanlar yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv



tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

**STEAM** — maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, U bolalarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhadislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan, bunda o'quvchilar amaliy va loyiha mashg'ulotlari yordamida saboq oladilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasiga ko'ra, tabiiy va iqtisodiy fanlar blogi "Tabiiyot va geografiya, Biologiya, Fizika va astronomiya, Kimyo, Iqtisodiy bilim asoslari, Tadbirkorlik asoslari" asoslari fanlarini qamrab oladi

Ma'lumki, 2019-2020 o'quv yilida o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarda quyidagi o'quv dasturlaridan foydalaniladi.

5-sinflarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi 6/2 /4/1-sonli qo'shma Hay'at majlisi qarori bilan tasdiqlangan o'quv dasturidan;

4,6,7-sinflarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3 iyundagi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturlaridan;

10-sinflarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 18 avgustdagi 43, 65 QQ bilan tasdiqlangan o'quv dasturidan;

2-11-sinflarda Xalq ta'limi vazirining **2018 yil 28 avgustdagi 216-sonli** buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturidan;

2019-2020 o'quv yilida 1,3,8,9-sinf o'quv dasturlari takomillashtirildi va amaliyotga joriy etiladi.

Takomillashtirilgan o'quv dasturning ahamiyatili jihati shundan iboratki, bunda o'quvchi yoshlarning qizishlarini ertaroq aniqlash va iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish orqali ilmiy izlanuvchanligi hamda yaratuvchanligini rivojlantirish uchun o'quv dasturining boshida har bir sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur o'quv dasturida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini



shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan **amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari** va mavzularda o'quvchilar mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi **amaliy topshiriqlar** kiritilgan.

Ushbu dasturning yana bir jihati shundan iboratki, o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga e'tibor qaratilgan. Mazkur o'quv dasturida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan laboratoriya ishlari va nazorat ishlari uchun alohida o'quv soatlari ajratilgan.

Takomillashtirilgan o'quv dasturlarida boblar kesimida mavzularga ajratilgan umumiy soatlar hajmi keltirilgan bo'lib, ularning taqsimlanishi o'qituvchi tomonidan ijodiy yondoshgan holda amalga oshiriladi. Jumladan, taqvim mavzuiy rejani tuzishda o'quv dasturida boblarga ajratilgan (mavzularga berilgan) umumiy soat hajmidan chiqmagan holda taqsimlanishi zarur.

Tabiiy va iqtisodiy fanlar o'qitishda zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, dars jarayonida axborot kommunikasion texnologiyalarda foydalanish, to'garak mashg'ulotlari va tadbirlarni o'tkazishda kompetentlikka yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish yo'llari, fanni o'qitishdagi muammoli masalalarni hal etish, fan sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar va yangiliklar bilan o'qituvchilarni tanishtirish maqsadida an'anaviy Avgust kengashlarining sho'ba yig'ilishlarida o'qituvchilar bilan quyidagi masalalarni fikrlashib olishni tavsiya etamiz:

2019-2020 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarida 6-7-10-11-sinf "FIZIKA", 11-sinf "Astronomiya", ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablarida amaliyotdagi 6-,7-,8-,9-sinflar "Fizika" darsliklaridan foydalanilinish tavsiya etiladi.

8-9-sinflarda 2019 yil takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida qayta ishlangan "Fizika" darsliklardan foydalanilinish tavsiya etiladi.

Darslikning ahamiyali tomoni shundan iboratki, 8,9-sinf fizika darsliklarida fizik jarayonlarni aniq ko'rish maqsadida berilgan barcha



rasmlar rangli holatda nashr etildi. Shu bilan birga o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo‘naltiruvchi va amaliyotda bajarishi mumkin bo‘lgan savollar va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar va topshiriqlar, masalalar yechish darslari alohida kiritildi.

Fizika fanidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi asosida qayta ishlangan 8-9-sinf darsliklaridagi o‘zgarishlar:

8-sinf darsligi 5 ta bob, 40 ta mavzu, 5 ta laboratoriya ishi, 2 ta amaliy mashg‘ulot, 12 ta masalalar yechishga ajratildi. Darslikka quyidagi yangi mavzular kiritildi. Jumladan,

- ❖ *Laboratoriya ishi: Om qonunini o‘rganish*
- ❖ *Amaliy mashg‘ulotlar: “Reostat yordamida tok kuchini rostlash”, “Tok manbalarini ulash”.*
- ❖ *Kondensatorlarni parallel va ketma-ket ulash.*
- ❖ *Laboratoriya ishi: Iste‘molchining elektr quvvatini aniqlash.*
- ❖ *Joul-Lens qonunining amaliy tatbiqlari.*
- ❖ *Vakuumba elektr toki.*
- ❖ *Yerning magnit maydoni.*
- ❖ *Bir jinsli magnit maydonida tokli ramkaning aylanma harakati.*
- ❖ *Magnit maydonida zaryadli zarraning harakati.*

9-sinf darsligi 6 bob, 37 ta mavzu, 5 ta laboratoriya ishi, 2 ta amaliy mashg‘ulot, 14 ta masalalar yechishga ajratildi. Darslikka quyidagi yangi mavzular kiritildi. Jumladan,

- ❖ *Amaliy mashg‘ulot: “Jismlarda issiqlik muvozanatini o‘rganish”*
- ❖ *Molekulalarning o‘lchamini baholash”*
- ❖ *Ichki yonuv dvigatellari*
- ❖ *Issiqlik dvigatellarining ishlash prinsipi*
- ❖ *Masalalar yechish*
- ❖ *Issiqlik mashinalari va tabiatni muhofaza qilish*
- ❖ *Laboratoriya ishi: Havoning nisbiy namligini aniqlash.*

2019-2020 o‘quv yilida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 5-,6-,7-,10–sinf “Geografiya” darsliklaridan foydalaniladi.

8,9-sinflar uchun esa 2019 yilda takomillashtirilgan o‘quv dasturi asosida qayta ishlangan 8-,9-sinf, darsliklaridan foydalanish tavsiya etiladi.



Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun so'nggi o'n yillikda darsliklarning yangi avlodini yaratish keng yo'lga qoyildi. Ta'kidlash joizki, bu davrda darsliklar avvalgi ko'rinishidan tubdan farq qila boshladi. Oq-qora tasvirdagi darsliklar o'rnini rangli kitoblar egalladi, avvallari asosan illyustratsiyalar, foto-rasmlardan iborat bo'lgan bo'lsa, endilikda ular o'rnini turli diagrammalar, xarita-chizmalar, axborot-texnologiyalarning ildam rivojlanishi, QR-kod belgilarning kashf etilishi bosma nashrlarga elektron resurslarni bog'lash imkoniyatini yaratmoqda.

Geografiya ta'limiga zamonaviy innovatsion axborot resurslarni kiritishni yo'lga qo'yish maqsadida 8-sinf geografiya darsligi (O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)ga QR-kod belgisi joylashtirildi.



#### QR-KOD (QUICK RESPONSE) NIMA?

QR-kod belgisi orqali internet tizimiga ulangan holda <http://geografiya8.uz>

Bu kodning afzalligi shundaki, u skanerlovchi uskuna (mobil telefon, fotoapparat yoki qo'l skaneri) yordamida oson va tez o'qish hamda kodlash imkonini beradi:

QR-kod belgisi darslikda 60 ta mavzuga o'rnatilgan, mavzularga oid qo'shimcha internet manbalaridan foydalanish imkonini beradi. QR-kod bo'yicha tavsiya

Geografiya fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida qayta ishlangan 8-9-sinf darsliklaridagi o'zgarishlar:

8-sinf darsligi 4 ta bobga keltirilib, 60 ta mavzuni o'z ichiga olgan. 2 soat amaliy mashg'ulot va 1 soat takrorlash darsi. Darslikka 9 ta mavzu yangidan kiritildi. Jumladan,

1. *O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi*
2. *Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar*
3. *O'zbekiston aholisining tarkibi*
4. *Sanoat va ekologik muammolar*
5. *O'zbekiston transportining zamonaviy rivojlanishi*
6. *Amaliy mashg'ulot*
7. *Zarafshon iqtisodiy rayoni*



8. *Janubiy iqtisodiy rayon*

9. *Amaliy mashg'ulot*

9-sinf darsligi 2 qism, 7 ta bob va 60 ta mavzuni o'z ichiga olgan. Shundan, 2 soat amaliy mashg'ulot va 1 soat takrorlash darsi. Darslikka 12 ta mavzu yangidan kiritildi. Jumladan,

- 1. *Zamonaviy ekologik muammolar*
- 2. *Jahon urbanizatsiyasi*
- 3. *Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari*
- 4. *Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi*
- 5. *Frantsiya Respublikasi*
- 6. *Italiya Respublikasi*
- 7. *Amaliy mashg'ulot*
- 8. *Fors qoltig'i Arab davlatlari*
- 9. *Indoneziya, Malayziya, Singapur davlatlari*
- 10. *Nigeriya Federativ Respublikasi*
- 11. *Misr Arab Respublikasi*
- 12. *Amerikaning siyosiy xaritasi*

2019-2020 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarida 5-,6-,7-,10-,11-sinf amaldagi "Biologiya" darsliklaridan foydalanish tavsiya etiladi.

8-9-sinflar 2019 yil takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida qayta ishlangan "Biologiya" darsliklaridan foydalaniladi.

**Biologiya fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida qayta ishlangan 8-9-sinf darsliklaridagi o'zgarishlar:**

8-sinf darsligi 13 ta bobga keltirilib, 61 ta mavzu, 7 ta laboratoriya ishlari va 99 rasm mavjud. Darslikka quyidagi yangi mavzular kiritildi. Jumladan,

Kirish qismida tibbiyot faniga hissa qo'shgan olimlar soni ko'paytirilgan

2-bob Organizm funksiyasining gumoral va nerv boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari kitob boshiga o'tkazilgan.





Har bir mavzu oxirida mos keladigan tushunchalarni juftlab yozish va to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash topshiriqlari va muammoli savollar berilgan.

Laboratoriya ishlari quyidagi mavzulardan iborat;

1. *Suyaklarning tuzilishi va tarkibini o'rganish.*
2. *Jismoniy mashqlarning yurak-qon tomirlar sistemasiga ta'siri.*
3. *Nafas olishda ko'krak qafasining harakatini kuzatish. Nafas bilan chiqadigan havodagi karbonat angidridni aniqlash.*
4. *So'lak va oshqozon shirasining oziq moddalarga ta'sirini o'rganish.*
5. *Jadvallar yordamida odamning kunlik ovqat ratsionida zarur bo'lgan oqsillar, yog'lar, uglevodlar va energiya miqdorini aniqlash.*
6. *Tizza refleksi hosil bo'lishini kuzatish.*

9-sinf darsligi 7 ta bo'lim, 8 ta bob, 67 ta mavzu, 8 ta laboratoriya ishi, 3 ta amaliy mashg'ulot, 63 ta rasm mavjud. Darslikka quyidagi yangi mavzular kiritildi. Jumladan,

*Oqsil tarkibi. Oqsil tuzilishi. Oqsillarning funksiyasi.*

*Hujayraning oziqlanishi mavzusi to'ldirilgan.*

*Hujayrada modda va energiyalar almashinuviga doir masalalar kiritilgan.*

*Laboratoriya mashg'ulotlari:*

1. *Pichan tayoqcha bakteriyasini mikroskopda ko'rish.*  
*Ko'k-yashil suvo'tini mikroskopda ko'rish.*
2. *O'simlik va hayvon hujayralarini o'rganish.*
3. *O'simlik hujayrasida plazmoliz va deplazmolizni o'rganish.*
4. *Amilazaning kraxmalga ta'siri.*
5. *O'simlik bargida organik moddalarning hosil bo'lishi.*
6. *Monoduragay chatishtirishga doir masalalar yechish.*
7. *G'o'za, pomidor, nomozshomgulning chatishtirish natijasini*

*gerbariy asosida o'rganish.*

*8. Modifikatsion o'zgaruvchanlikning statistik qonuniyatlarini o'rganish*

*Amaliy mashg'ulotlar:*



*Diduragay chatishtirishga, Noallel genlarning o'zaro ta'siriga, Birikkan holda irsiylanish va jins bilan bog'liq holda irsiylanishga doir masalalar yechish kiritilgan.*

2019-2020 o'quv yilida ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablarida amaldagi 7-,10,11-sinf "Kimyo" darsliklaridan foydalaniladi.

8-9-sinflarda 2019 yil takomillashtirilgan o'quv dasturi asosida qayta nashr etilgan darsliklardan foydalaniladi.

Kimyo fanidan 8-9-sinf darsliklaridagi o'zgarishlar:

8-sinf darsligi 6 ta bob, 44 ta mavzu, 10 ta laboratoriya ishi, 5 ta amaliy mashg'ulotlar mavjud. Darslikka quyidagi yangi mavzular kiritildi. Jumladan,

*"Elektrolitik dissosatsiyalanish nazariyasi" bobi 7 soatga mo'ljallangan*

- 1. Elektrolitlar va noelektrolitlar*
- 2. Elektrolitik dissosatsiyalanish nazariyasi.*
- 3. Kislota, ishqor va asoslarning dissosatsiyalanishi.*
- 4. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. Dissosatsiyalanish darajasi.*
- 5. Ion almashinish reaksiyalari.*
- 6. Tuzlarning gidrolizi.*
- 7. Tuzlarning gidroliziga ta'sir etuvchi omillar mavzulari, "Elektrolitik dissosatsiyalanish nazariyasi mavzusi yuzasidan tajribalar o'tkazish", "Tuproq eritmasi tarkibida xloridlarning borligini aniqlash" laboratoriya ishlari yuqori (9-sinf) sinfga o'tkazildi.*

Chiqarilgan mavzular o'rniga "Avogadro qonuni. Molyar hajm", "Ekvivalent qonuni" mavzulari va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ma'lumotlar, masalalar, savol-topshiriqlar hamda 6 ta mavzu doirasidagi illyustratsiyalar kiritildi

9-sinf darsligi 5 ta bob, 41 ta mavzu, 3 ta amaliy mashg'ulot mavjud. Jumladan, 16 soatga mo'ljallangan "Organik birikmalar" mavzulari o'rniga 8-sinf dan "Elektrolitik dissosatsiyalanish nazariyasi" bobi o'tkazildi.

"Metallar" bobi 23 soat. Bunda mavzularni barchasi kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ma'lumotlar, masalalar, savol-topshiriqlar bilan boyitildi.



“I guruh yonaki guruhcha metallarining davriy jadvaldagi o‘rni, atom tuzilishi. Xossalari” nomli 1 ta mavzu ikkiga ajratilib, “Kumush va oltin. Xossalari. Ishlatilishi.” alohida keltirildi. Bunda kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma‘lumotlar, masalalar, savol-topshiriqlar kiritildi.

17 ta laboratoriya ishi mavjud. Bunda “Organik birikmalar” bobiga tegishli laboratoriya ishlari yuqori sinfga o‘tkazildi.

Shuningdek, darslikka mantiqiy fikrlashga yo‘naltiruvchi topshiriqlar ham kiritildi. Kimyo fanini o‘qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, muhandislik, matematika va kundalik hayot bilan bog‘lab o‘rganish - STEAM yondashuviga asoslandi. Bunda kimyo ta‘limining ahamiyati uning fan-texnika va texnologiya taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va kundalik hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanishi haqidagi ma‘lumotlar bilan boyitildi.

Umumiy o‘rta maktablari o‘quv rejasiga 8-9 sinf o‘quvchilari uchun “Iqtisodiy bilim asoslari” fanini o‘qitishga asos bo‘lgan omillar:

- 2018 yilni “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilinishi;
- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» qonunga muvofiq;
- “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish;

- “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi.

2019-2020 o‘quv yilida umumiy o‘rta ta‘lim 8-9-sinf “Iqtisodiy bilim asoslari takomillashtirilgan o‘quv dasturi asosida qayta ishlangan darslikdan foydalaniladi.

### **Darslikda quyidagilarga e‘tibor qaratilgan**

✓ O‘quvchilarni faollashtiruvchi hamda muzokaraga chorlovchi savol va topshiriqlar;

✓ Dars davomida qo‘llaniladigan tayanch atamalarning ta‘rifi;

✓ Hisob-kitob ishlarini va iqtisodiy tafakkurni talab qiladigan amaliyot bilan bog‘liq topshiriq va mashqlar;

✓ Izlanish va kichik tadqiqot olib borish uchun har bir o‘quvchiga beriladigan mustaqil ish va topshiriqlar;



✓ Iqtisodiy tafakkurni o'stirishga, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga va dunyoqarashni kengaytirishga mo'ljallangan qo'shimcha ma'lumotlar;

✓ Iqtisodiy tushunchalarni o'zaro bog'laydigan formulalar;

✓ "Mustaqil faoliyat" rukni ostidagi qo'shimcha materiallar.

✓ Mamlakatimiz iqtisodiyotida, jumladan, tadbirkorlik sohasida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berish;

✓ O'quvchilarni tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni amaliy jihatdan mazkur faoliyat bilan shug'ullanishlariga qiziqtirish;

O'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, uni yuritish, hamkorlar izlash hamda ular bilan biznes aloqalar o'rnatish, o'z mahsulotini sotish va yuqori moliyaviy natijalarga erishish kabi jarayonlar yuzasidan amaliy ko'nikmalarni hosil qilish.

**Avgust kengashlarining sho'ba yig'ilishlarida o'qituvchilar bilan quyidagi vazifalarni muhokama qilish tavsiya etiladi:**

- Bugungi globallashtirish jarayonida o'quvchilarning qiziqishi va iqtidorini aniqlash maqsadida xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undovchi amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ochiq darslarni tashkil etish;
- Geografiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda Innovatsion darsliklardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish (QR-kod belgisi joylashtirilgan 8-sinf geografiya darsligi misolida);
- Fanlar yuzasidan o'quvchi yoshlarimizning mustaqil ishlash malakasini shakllashtirish maqsadida xalqaro baholash dasturi talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan doimiy ishlashni yo'lga qo'yish;
- Fanlararo bog'liqlikka e'tibor qaratish va sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlarini faollashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- Tayanch maktablarida o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish va ularni bartaraf etish yo'llari,



kompetentlikka yo'naltirilgan darslarni tashkil etish, ularni dars jarayoniga tatbiq etish yo'llari yuzasidan ma'lumotlar berish va joylarda ochiq darslar tashkil etish.

- Malaka oshirish institutlari va metodika markazlari tomonidan o'qituvchilarning metodik ehtiyojlarini aniqlash, o'quv laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish va laboratoriya mashg'ulotlarini o'z vaqtida, sifatli o'tkazilishi yuzasidan, o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzularga oid masalalarni yechishning turli usullari ustida fikr almashish hamda hududlarda doimiy jadval asosida kaskad usulida (viloyat, tuman (shahar), tayanch maktablari) o'quv seminarlarni tashkil etish.
- Darslarni tashkil etishda o'qitish usulining turli (ma'ruza, og'zaki bayon qilish, masalalar yechish, amaliy topshiriq, ko'rgazmalilik va boshqa) shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, darsni tashkil qilishda dars berishning turli noan'anaviy usullaridan (bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar) hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, ularni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan, muammoli ta'lim, loyihalash, interfaol, hamkorlikda ishlash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Hozirgi texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o'qituvchi tomonidan dars jarayonida zamonaviy AKTlardan foydalanishi dars samaradorligining oshishiga va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishga xizmat qiladi.
- Fizika, kimyo, biologiya darslarida o'quv laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish, asbob-uskunalar, kimyoviy reaktivlarni inventarizatsiyadan o'tkazish va ularni saqlash hamda sarflangan va ishlatish uchun nosoz jihozlar o'rnini qayta to'ldirishni tashkil etish.
  - Fanlar yo'nalishida yangilik yaratgan, shu sohada ish olib borayotgan, ijobiy natijalarga erishgan tajribali o'qituvchilar va "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik tanlov g'oliblari bilan bilan davra suhbatlari tashkil etish. Ko'rik tanlov g'oliblarining ilg'or pedagogik ish



tajribasini o‘rganish va viloyat saytida ommalashtirish yuzasidan fikrlashishni tavsiya etamiz.



## Amaliy fanlar o'qitishda kreativ yondashuv

*Respublika ta'lim markazi,  
Amaliy fanlar bo'limi boshlig'i  
Shamsiyeva Zulfizarxon Shamsiyevna*

Bugungi kunda ta'lim sohasida pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarning paydo bo'lishi o'qituvchi faoliyatini yangilanishini talab etmoqda. Amaliy fanlar o'qituvchilarining asosiy maqsadi fanlarni o'qitishda o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish, STEAM (fan, texnologiya, injiniring, san'at va matematika) yondashuvi asosida fanlarni integratsiyasini kuchaytirish, har bir o'quvchini ijodkorga aylantirish, mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini o'stirish, o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirishdan iborat.

O'quvchilarni ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishda Amaliy fanlar blok-moduli tarkibidagi fanlar muhim ahamiyatga ega. Amaliy fanlar bloki moduli tarkibiga musiqa madaniyati, tasviriy san'at, chizmachilik, texnologiya, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari kiradi. Shuningdek, "Salomatlik darslari"(1-4-sinf), "Sog'lom avlod asoslari" (5-8-sinf), "Sog'lom turmush tarzi va madaniyati " (9-11-sinf) hamda "Hayot xavfsizligi asoslari" kurslari, Texnologiya, Jismoniy tarbiya, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari tarkibiga integratsiya qilingan holda o'qitiladi.

Amaliy fanlar o'qituvchilarining asosiy maqsadlaridan biri, o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish bo'lsa, buni o'qituvchi qanday amalga oshiradi?

Kreativlik - yangi, betakror narsa yarata olish layoqti, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib boruvchi aqliy jarayon: shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatdir.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda:

o'quvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni



namoyon qilish muhitini ta'minlash;

o'quvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay sharoit yaratish, o'quvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir o'quvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolligini muntazam rag'batlantirish;

o'quv jarayonini o'quvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

o'quvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash;

kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish uchun shart-sharoit yaratish o'qituvchidan talab etiladi.

O'quvchilarda kerativlik amaliy fanlar tarkibida STEAM yondashuvi asosida rivojlantiriladi.

STEAM – kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqazo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad – ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

Mazkur yo'nalishda tabiiy va aniq fanlar ta'limida (o'qitilishida) olingan o'quvchilar ilmiy (akademik) bilimlarni fan-texnika, texnologiya, injenerlik san'ati, ijodkorlik bilan birgalikda bog'lab, fanlararo bog'liqlikni ta'minlaydi.

Matematika va fizika fanlari bilan bir qatorda o'quvchilar robototexnika va dasturlashni o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotda natijasini ko'radilar.

Bugungi kunda STEAM ta'limi birinchi o'rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi.

STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan darsning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki "mavzular" bo'yicha integratsiya qilinishi
- ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llanishi;
- tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish;
- o'z kuchiga ishonish hissini ortishi;





- faol kommunikatsiya va jamoada ishlashi;
- texnika fanlarga bo'lgan qiziqishlarni o'stirish;
- loyihalarga kreativ va innovatsion yondashishi;
- o'quvchilarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlanishi.

STEAM yondashuvi asosidagi o'quv dasturlarining takomillashtirilishi va raqobatbardosh kadrlarni yetishib chiqishi, sanoatni rivojlanishida muhim o'rnini egalalydi.

STEAM yondashuvi o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi. Ijodkorlik bu shaxsning yangi g'oyalarni yaratishga moyilligini, uning iqtidorligini va noyob qobiliyatga ega ekanligini anglatadi.

Shaxsning ijodkorligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi va iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehn o'tkirlikni ham belgilaydi.

Boshqa har qanday fazilat kabi ijodkorlik ham birdaniga shakllanmaydi. Xo'sh, o'quvchilarda ijodkorlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda ijodkorlik qobiliyati mavjudligi o'quvchilarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat ularning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

- ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda mas'uliyatni kuchaytirish;
- o'quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- o'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Odatda o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish avvalo ota-ona, ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Ijodkor o'quvchi o'qib, o'rganadi, yangilik yaratishga, ixtirolarga qiziqadi va mustaqil bilim olib, bilimlarini boyitadi.

Mustaqil bilim olish pedagogik texnologiyalarga nisbatan juda muhim talablarni qo'yadi.

Ta'lim muassasadagi o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi faoliyatining yakuniy natijasi oldindan aniq bo'lgan o'qitish jaraëndan farqli ravishda mustaqil bilim olishda o'quvchi aniq bo'lmagan va oldindan rejalashtirilmagan natijaga erishishi kerak, ya'ni



o'rganayotgan o'quv materiallari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning aniq hajmini o'zlashtirishi lozim.

O'quvchilarning bilim manbai faqatgina o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlar emas balki o'quvchi o'zi anglashi va harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchining tadqiqot olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashi lozim.

Bugungi kunda nafaqat o'quvchilar balki, o'qituvchilar o'rtasida ham mustaqil bilim olishga bo'lgan munosabat susayib qoldi. Buni biz o'tkazilgan turli tanlovlar natijalaridan ko'rishimiz mumkin.

Demak, o'qituvchi avavlo o'zi mustaqil ishlashga o'rganishi va o'quvchilarga ham buni targ'ibot qilishi lozim.

Amaliy fanlar blok-moduli o'quv dasturi mazmuni fanlararo, sinflararo va mavzulararo integratsiya qilindi;

sinflar va fanlararo mavzulardagi uzviylik va uzluksizlik ta'minlandi;  
fanlar va sinflar orasidagi takrorlanishlar oldi olindi;

o'quvchilarni yosh psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi mavzular kiritilib, mavzularni o'qitishga bo'lgan yondashuvni o'zgartirish muhim vazifa etib belgilandi.

Shuningdek, Amaliy fanlar blok-moduli tarkibidagi fanlar o'quv dasturlari mazmuni tahlil qilinib, undagi bugungi kun talabiga javob bermaydigan, ma'nan eskirgan 165 ta mavzu dasturlardan chiqarildi, umumiy mavzulardan 86 tasi blok ichida o'zaro integratsiya qilindi, o'quv dasturlarida berilgan mavzularni xususiyatiga ko'ra, 32 ta mavzular o'rni almashtirilib, STEAM yondashuvi hamda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan, kreativ qobiliyatini rivojlantirishga oid 126 ta mavzu yangidan kiritildi.

Amaliy fanlar tarkibidagi o'quv dasturlar mazmunini takomillashtirishda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzular kiritilishiga alohida e'tibor berildi.

O'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchining o'rni katta. Psixologik nuqtai nazardan olganda, aslida hamma inson qobiliyatli, iste'dodli bo'lib dunyoga keladi. Bolaning yoshligidanoq nimaga moyilligi, qobiliyati borligini o'z vaqtida anglab yetib, uni rivojlantirsak, u haqiqiy tug'ma iste'dod egasiga aylanadi.

Agar vaqtida buni anglab yetmasak va uni qiziqishlariga bee'tibor bo'lsak, undagi iste'dod so'nadi. Shuning uchun har bir dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatida ijodkorlikka yo'naltirishi, uni qobiliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishi lozim.



Ijodkorlik egallangan bilimlarning miqdori va turli-tumanligi bilan emas, balki qat'iy tarkib topgan tushunchalarni inkor eta oluvchi yangi g'oyalarni seza olishi bilan izohlanadi.

Ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlanishi, o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga rioya qilishga o'rgatadi. Sog'lom turmush tarzi bu kundalik turmushni inson organizmi va u yashayotgan muhit qonuniyatlaridan kelib chiqib, salomatlikni saqlash hamda mustahkamlashga qaratilgan tadbirlardan iborat bo'lgan turmush tarzidir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat jismoniy tarbiya darslarida balki, hamma fanlar tarkibida rivojlantirish kerak. Inson sog'ligi hamma narsadan muhim. Har bir o'quvchi ertalab uyqudan turgandan keyin jismoniy mashqlarni bajarishga odatlanishi kerak. Jismoniy faollik sog'lom turmush tarzining asosidir.

Amaliy fanlar nafaqat o'zini balki, boshqa fanlardan o'zlashtirgan bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirishda muhim vazifani bajaradi.

Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shu bois o'quvchilarga mavzuni tushuntirib berish orqali o'qituvchi o'quv material bilan dastlabki tanishishni amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich o'quv materialini anglab yetish bo'lib, u ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va tahlil qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialining xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqishi kerak.

Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar matnlarni mexanik ko'chirib olishi yoki yodlashi, topshiriqlarni bajarish qoidalarini chuqur anglab yetmay bajarishi mumkin. Bu jihatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi.

To'rtinchi bosqich bilimlarni amaliyotda qo'llashdan iborat. Bilimlarni qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuniga qarab faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bunda o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Amaliy fanlar blok-moduli o'quv dasturlariga qo'yidagi tartibda o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, Musiqa madaniyati fanining o'quv dasturidan 28 ta kuy va qo'shiqlar, musiqa savodiga oid ma'lumotlar chiqarilib, ular o'rniga 28 ta kuy va qo'shiqlar, musiqa savodiga oid ma'lumotlar kiritilib, 4 ta mavzu soddalashtirildi. Tasviriy san'at fanining



o‘quv dasturiga kiritilgan mavzular soni 16 ta, dasturdan chiqarilgan mavzular soni 20 tani tashkil qildi. Chizmachilik fanining o‘quv dasturiga kiritilgan va chiqarilgan mavzular soni 16 ta, soddalashtirilgan mavzular 10 tani tashkil qiladi. Texnologiya fanining o‘quv dasturiga kiritilgan mavzular soni 84 ta, dasturdan chiqarilgan mavzular soni 80 ta, soddalashtirilgan mavzular soni 35 tadan iborat. Jismoniy tarbiya fanining o‘quv dasturiga kiritilgan mavzular soni 24 ta, dasturdan chiqarilgan mavzular soni 25 ta, 9-sinfda 11 ta, soddalashtirilgan mavzular soni 33 tani tashkil etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2019-2020 o‘quv yilida 5-sinf 2010 yilda tasdiqlangan o‘quv dastur; 4-6-7-10-sinflar 2017 yilda tasdiqlangan o‘quv dastur; 2-11-sinflar 2018 yilda tasdiqlangan o‘quv dastur, 1-3-8-9-sinflar takomillashtirilgan dasturlardan 2019 yilda tasdiqlangan o‘quv dasturdan foydalanib, taqvim-mavzuiy reja tuzib, undan foydalanadilar.

Ta’limning asosi - darslikdir. Darslik faqat darsda tahlil kilinadigan o‘quv materialini o‘zlashtirishda o‘quvchiga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg‘otishi, shu soha bo‘yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirishi kerak.

Darslikda o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash yo‘llari belgilanadi, emotsional-qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko‘rsatiladi. Darslikda ta’limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o‘quvchilarning ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlaydigan bosqichlar bo‘yicha joylashtiriladi.

2019-2020 o‘quv yili uchun zamon talablariga xamohang ravishda, yangiliklarga jamlangan, dizayni jihatdan bugungi kun talablariga javob beradigan musiqa, tasviriy san‘at, texnologiya va chizmachilik darsliklari chop etildi. Mazkur darsliklar o‘quvchilarni kreativ fikrlash, xulosalash, tahlil qilish, loyihalash orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan boyitilgan holda, mazmunan qayta ishlandi.

Jumladan, 3-sinf darsliklari 2010 yilda optimallashtirilgan o‘quv dasturlar asosida chop etilgan edi. Darslik takomillashtirilgan o‘quv dasturlar va joylardan olingan taklif, xulosalar asosida qayta ishlanib, darslik mazmuniga STEAM yondashuvi singdirildi.

Masalan: 3-sinf tasviriy san‘at darsligida “Hayvonot bog‘ida” mavzusiga oid rasm ishlash topshirig‘i berilgan. O‘quvchi quyov rasmini ishlashda o‘qish, matematika, tabiatshunoslik fanlaridan olgan bilimlariga tayangan holda rasm ishlaydi. Bu o‘z navbatida fanlararo integratsiyani ta’minlaydi.



Davriylik asosida chop etilgan Chizmachilik va Texnologiya 8-9-sinf darsliklari mazmunan takomillashtirildi, ayniqsa, mustaqillik yillarida ilk marotaba chop etilgan 8-9-sinf Texnologiya darsliklaridagi yangiliklarni alohida takidlash joizdir.

Mustaqillik yillari davomida texnologiya 8-9-sinflar darsliklari ilk marotaba yaratildi.

8-9-sinf "Texnologiya" darsliklariga kiritilgan yangiliklar quyidagilardan iborat:

1. Darslikni ilk avlodining yangi aspektdagi metodologiyasi ilg'or xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi.

2. "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" yo'nalishlariga kiritilgan mavzularning 50% ni amaliy mashg'ulot mavzulari tashkil qilgan.

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishini inobatga olgan holda "Elektronika asoslari" bo'limi kiritildi.

4. Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlari talablari asosida rivojlanayotganligini e'tiborga olgan holda harakatlanuvchi sodda ko'rinishdagi qurilmalarni (robot, avtomobil va boshqa) modellashtirish va loyihalash ishlari kiritildi.

5. O'quvchilarni mustaqil ijodiy ishlarini tashkil qilish, ularni mantiqiy va tahliliy fikrlashga o'rgatish, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida "Ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi" bo'limi kiritildi.

6. Bugungi kunga qadar texnologiya fanidan ko'rgazma va ko'rik-tanlovlarni tashkil qilishga oid me'yoriy talablar bo'lmaganligi, shu kunga qadar fan yo'nalishi yuzasidan tanlovlar (olimpiadalar)ni tashkil etilmaganligini inobatga olgan holda ko'rgazma va ko'rik-tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

7. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limiga 3 ta mavzu, "Ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari" bo'limiga 2 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limiga 2 ta mavzu yangidan kiritildi.

8. "Servis xizmati" yo'nalishi "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limiga 4 ta mavzu, "Ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari" bo'limiga 5 ta mavzu, "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limiga 2 ta mavzu yangidan kiritildi.

9. Alohida ta'kidlash lozimki, 8-sinf darsligida berilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi boblari bo'yicha jami 20 ta amaliy mashg'ulotlarga alohida QR-kod



joylashtirilgan. Mazkur belgi amaliy mashg‘ulotlarga oid qo‘shimcha saralangan videoroliklardan foydalanish imkonini beradi.

8-9-sinf “Texnologiya” fani darsliklarining hayot amaliyotiga mosligi o‘quvchilarni milliy xalq hunarmandchiligi, ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik asoslari hamda inson mehnatini yengil qilishga qaratilgan zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishidan kelib chiqqan holda ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi uzviyligini ta‘minlashga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini keng joriy qilinishida o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligiga asoslangan.

Shunisi diqqatga sazovorki, 8-sinfga mo‘ljallangan “Texnologiya” darsligining yangi aspektidagi metodologiyasi ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tayyorlandi.

Alohida ta‘kidlash lozimki, bugungi kunga qadar yurtimizda chop etilgan darsliklardagi ilustrasiyalar asosan foto-rasmlardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ular o‘rnini turli diagrammalar, xarita-chizmalar egallamoqda. So‘nggi 2 yil ichida esa darsliklarga infografikalarni joylashtirish boshlandi. Ayni paytda axborot-texnologiyalar ildam rivojlanishi, QR-kod belgilarining kashf etilishi bosma nashrlarga elektron resurslarni bog‘lash imkoniyatini yaratdi.

QR-kod – inglizcha “tezkor javob” ma‘nosini bildiradi. Bitta QR-kod o‘rtacha 7089 ta raqam, 4296 ta raqam harf, ikkilik sanoq sistemasiga 2953 bayt yoki 1817 ta ierogliflarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda QR-kod – bu maxsus tarzdagi kodlardan iborat bo‘lgan, qandaydir bir ma‘lumot, kvadrat ko‘rinishdagi tasvirdir. Unda oddiy matn, audio yozuvlar, videoroliklar, 3D formatdagi shakllar va boshqa shu kabi internet resurslari bo‘lishi mumkin.



8-sinf darsligida berilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi boblari bo‘yicha jami 20 ta amaliy mashg‘ulotga alohida QR-kod joylashtirilgan. Mazkur belgi amaliy mashg‘ulotlarga oid qo‘shimcha saralangan videoroliklardan foydalanish imkonini beradi.

QR-kod belgilarni kiritilishi darslikni nafaqat boyitdi, shu bilan birga keyingi chop etilgunicha o‘tadigan 5 yil davomida bo‘ladigan o‘zgarishlarni davriy ravishda internet resurslari hisobiga to‘ldirib borish imkoniyatini yaratdi.



Texnologiya 8-9-sinf o'quv dasturining "Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi" bo'limiga 9 ta mavzu, "Ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari" bo'limiga 12 ta mavzu yangidan kiritildi. Amaldagi o'quv dasturdagi nazariy mavzular qariyb 50% ga amaliy mashg'ulotlar bilan almashtirildi. Shuningdek, mazkur dasturlar ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilinib, soha mutaxassislari va amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan berilgan takliflari asosida takomillashtirildi.

Bugungi kunda zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishini inobatga olgan holda 8-sinf dasturiga "Elektronika asoslari" bo'limi kiritildi. O'quvchilar elektr energiya haqidagi nazariy ma'lumotlarni fizika fanidan o'rgansalar, texnologiya darslarida nazariy ma'lumotlar asosida amaliy mashg'ulotlar bajaradilar. Jumladan, "Elektronika asoslari" bo'limi orqali o'quvchilar innovatsion fikrlashni rivojlantiruvchi harakatlanadigan sodda ko'rinishdagi qurilmalarni hamda avtomatik va raqamli qurilmalarni modellashtirish va loyihalash ishlarini bajarishni o'rganadilar.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda loyihalash texnologiyalari asosiy o'rni egallaydi. Shu maqsadda, "Ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi" bo'limi texnologiya darsliklariga yangidan kiritildi. "Ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi" bo'limi faoliyati mustaqil ijodiy ishlarini tashkil qilish, ularni mantiqiy va tahliliy fikrlash, kichik tadqiqot ishlarni amalga oshirish orqali o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir o'rinbosari A.Abduhakimov rahbarligida o'tkazilgan 2018 yil 19 dekabrda 58-sonli yig'ilishi bayonnomasining 11-bandiga ko'ra, jismoniy tarbiya o'quv fanidan darsliklar o'rniga darsliklarning ijara tizimini ta'minlash davriyligiga asosan ushbu o'quv fandan ko'rgazmali plakatlar tayyorlash va 2019-2020 o'quv yili da umumta'lim maktablariga yetkazish vazifasi belgilangan. edi.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida, 1-,3-,8-,9-sinflar uchun sport plakatlari tayyorlandi. Mazkur plakatlardan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari dars jarayonida unumli foydalanishi lozim.

Sport plakatlari asosida o'quvchilarga qarama-qarshi harakatlar, bajarilayotgan mashqlarni ketma-ketlikda bajarilishini o'rgatishda; qarama-qarshi tushunchalarni bir vaqtning o'zida ko'rish, berilgan mashqlarni bajarib ko'rish orqali solishtirish usullari o'rgatiladi.

Masalan: 1-sinf uchun tayyorlangan "Kun tartibi" nomli plakati orqali o'quvchilarni "Kun tartibi" rioya qilishga o'rgatiladi, kun tartibini tuza olish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

O'quvchilarni Kun tartibiga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, sport bilan muntazam shug'ullanib borish, darsdan tashqari sport



to'garaklariga qatnashish, ota-onaga bo'lgan hurmat, uy ishlarida ko'maklashish, muntazam ravishda ertalabki gimnastika mashqlarini bajarish sog'lom turmush tarziga amal qilish zaruriyati singdiriladi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiradi.

Darsliklarda berilgan topshiriqlarni to'g'ri va sifatli bajarishda albatta fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega. Bunda amaliy fanlar bilan tabiiy va aniq fanlar, ijtimoiy hamda filologiya fanlarini integratsiya qilish o'quvchilarni ma'naviy, badiiy, ahloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirishda, kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo'lib, sog'lom turmush tarziga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, harbiy xizmatga tayyorlash, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga o'rgatadi.

Amaliy fanlarni barcha fanlar bilan integratsiya qilish mumkin. Masalan, 8-sinf Texnologiya darsida "Harakatlanuvchi sodda robot yasash" mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot bajarishda o'quvchi qaysi fanlardan olgan bilimlarga asoslanishini ko'rib chiqamiz.

Amaliy mashg'ulot darslikda berilgan texnologik xarita asosida bajariladi. O'quvchi darslikda berilgan texnologik xarita asosida harakatlanuvchi sodda robot yasash uchun kerakli hajmda sifatli xom-ashyo tanlaydi. Kerakli xom ashyoni ortiqcha olib, harajatni ko'paytirmaslik uchun matematikadan olgan bilimlariga suyanadi, sifatli xom ashyo tanlashi uchun tabiiy fanlardan olgan bilimlarga asoslanadi.

Tanlangan xom ashyoga yasaladigan robot chizmasini to'g'ri va sifatli chizishda chizmachilik fanidan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanadi. Bunda imkoniyatga qarab, oldindan tayyorlangan andozalardan ham foydalanish mumkin.

Robot chizmasini qirqadi. Bu jarayonda tabiiy fanlarda olgan bilim va ko'nikmalari bo'yicha tanlangan materialni oson qirqib, amaliy fanlardan olgan bilim, ko'nikmalari asosida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qiladi.

Qismlarni bir-biriga biriktirishda ishlatilgan materialni kimyoviy xususiyatiga qarab, yelim tanlaydi, ishni bajarishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qiladi hamda harakatlantirish uchun dvigatel joylashtirishda fizika fanidan olgan o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalaridan foydalanadi. Robotni harakatga keltirish, oxirgi ishlov berish va ishni yakunlash tabiiy va amaliy fanlardan olgan bilim va ko'nikmalariga asoslanadi.

Demak, fanlarni o'zaro integratsiya qilinishi va ko'zlangan maqsadga erishishda hamda bozor iqtisodiyoti davrida raqobatbardosh kadr bo'lib yetishib chiqishida Amaliy fanlar o'qituvchilarining faoliyati muhim sanaladi.





Amaliy fanlar o'qitish samaradorligini oshirish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishda o'quv metodik adabiyotlarning o'rni katta.

Har bir fan o'qituvchisi o'z ustida tinmay ishlashi va izlanishida o'quv metodik adabiyotlar katta o'rin tutadi. Fandagi yangiliklarni jarayonga tadbiiq etish, ilg'or innovatsiyalarni o'rganish, moslashtirish va ko'zlangan natijaga erishish uchun chop etilgan va internet saytlariga joylashtirilgan metodikalardan foydalanish o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantiradi, fanni rivojlantirish, o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi metodologiyani yaratilishiga zamin hozirlaydi.

Darsni sifatli tashkil etilishida media resurslardan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi yangi mavzu tushuntirish bilan birga, uni ekran orqali o'quvchilarga jarayonni ko'rsatishi darsning samaradorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy o'qituvchi kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi, o'z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o'zlashtirishga erishishi undan ijodiy yondashishni talab etadi.

Binobarin, global axborotlashuv ijtimoiy sub'ektlar, xususan, o'quvchilar tomonidan ham istalgan ma'lumotni ixtiyoriy ravishda o'zi uchun qulay sharoit va turli joydan axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o'zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo'lsa-da, biroq, shaxs tomonidan bu tahlitda o'zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma'lumotlarning muayyan sohalar bo'yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim tizimida o'quvchiga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o'qituvchisi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o'quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishi zaruriyat sifatida bugungi kunda dolzarbligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi o'quvchilar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi o'quvchilar uchun hech qanday stimuly rag'bat bildirmayotgandir.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o'quvchilarda tanqidiy fikr, kreativlikni rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash,



yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'otlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, o'qituvchilarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanmoqda.

Ana shu nuqtai-nazardan ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini integratsiyalash va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida o'qituvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi.

Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning 1-yo'li:

O'quvchida kreativ sifatlarni shakllantirishda o'qituvchi turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanadi.

Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirishning 2-yo'li:

Kreativ harakat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda dars jarayonida ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadi.

Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etishning 3-yo'li:

O'quvchilarga dars jarayonida muammolar qo'yib ularni yechishi va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beradi.

Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanishning 4-yo'li:

Bu yo'lda o'quvchilarga ixtiro yaratishga oid topshiriqlar beriladi; buning natijasida o'quvchilarda individual xususiyatlar rivojlanadi; mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishlar o'sadi; ichki imkoniyati va qobiliyatlari hech bir to'siqsiz yuzaga chiqadi; bilish faolligi tezlashadi;

natijada, o'quvchi o'quv materialni o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yodashadi;



yangi g'oyalarni ilgari suradi, ularni asoslaydi, o'z fikrini himoya qiladi;

Muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish malakasini o'zlashtiradi, ta'lim olishga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kreativ yondashuv asosida tashkil etiladigan darslarda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

**“Reja” metodi.** Metod o'quvchilar tomonidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llash o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o'zlashtirish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bo'lishni taqozo etadi.

O'quvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, mazmuni hamda samaradorlikka erishish yo'llari inobatga olinadi.

**Kichik tadqiqot metodi.** Mazkur metodda tadqiqot ob'ekti tanlanadi – tabiiy, madaniy, ilmiy, og'zaki, belgisi yoki boshqa – daraxt bargi, tosh, tomchining tushishi, kiyim elementi, she'r, harf, tovush, tenglama, geometrik figura, marosim va boshqalardir. O'quvchilarga berilgan ob'ektni quyidagi reja asosida mustaqil tadqiq qilish taklif etiladi. Kichik tadqiqotning maqsadi-ish rejasi-ob'ekt haqida dalillar-tajribalar-yangi dalillar-paydo bo'lgan savol va muammolar-javob variantlari, ilmiy faraz-faoliyatning anglashilgan usullari va natijalari-xulosalardan iborat.

Faoliyatni bunday algoritmlash o'quvchilarni har bir qadamini izchillik bilan bajarish orqali o'z shaxsiy ta'limiy natijasiga ega bo'lishiga olib keladi. O'qituvchi o'quvchilarning bu natijalari hajmi va sifatini oshirishga yordam beradi.

**“Munosabat” metodi** o'quvchilarga mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida Munosabat metoddan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayonning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqqa olish ko'nikma, malakalarini



hosil qiladi hamda kompetensiyalar elementlarini rivojlantiradi. Shuningdek, ushbu metod o'quvchilardagi ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga, salbiy xislatlardan esa voz kechishida yordam beradi.

**Suhbat metodi** pedagogik kuzatish chog'ida o'quvchining kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlar sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.

Suhbat indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida o'quvchilarning kreativlik imkoniyatlari to'la namoyon bo'lishiga erishish muhim.

Suhbatning samarali kechishini ta'minlovchi shartlar:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash, savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;

4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;

6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish

**O'quvchilar ijodini o'rganish metodi** o'quvchilarning muayyan yo'nalishdagi layoqati, qobiliyati, fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar va kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – ikki varaqli kundalik, insho, yozma ish, kichik esse, referat, amaliy mustaqil ishlar, turli loyiha tadqiqot ishlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metod ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, darsning sifat samaradorligini oshirishda fan to'garaklarini o'rni katta. Shu kungacha tashkil etilgan to'garak mashg'ulotlari o'zlashtirilmagan mavzular yoki o'tilgan mavzuni takrorlash, to'ldirish yuzasidan tashkil qilingan. Natijada, o'quvchilar to'garak mashg'ulotlarga o'z xohishi bilan emas, balki borish kerakligi uchun qatnashganlar.

To'garak mashg'ulot rejasi o'quvchilar bilan ularning qiziqishi asosida shakllantirilishi kerak. Shunda o'quvchi to'garak mashg'ulotlariga qiziqish bilan boradi, mashg'ulotlarni o'rganadi, o'z



yangilik va ixtirolari bilan o‘rtoqlashadi. Shuningdek, bu o‘quv yilida tuziladigan to‘garak rejasi fanlararo integratsiyani qamrab olishi lozim.

Darsdan tashqari tashkil etiladigan to‘garak mashg‘ulotlari ham o‘quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi, fanlararo integratsiyani mustahkamlaydi, qiziqishni oshiradi. Amaliy fanlar bloki bo‘yicha texnologiya fanidan "Mohir qo‘llar" to‘garagi uchun ish reja namunasini taklif qilamiz.

### “Mavjud ma’lumotlar asosida istiqbolni belgilash” metodi

Bu tarixiy va hozirgi paytda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida buyum, mexanizm va mashinani kelgusida qanday ko‘rinishda bo‘lishini tasavvur qilish, qanday tamoyillar asosida ishlashi va ishlatilishini aniqlashda qo‘l keladi. Buning uchun, masalan, quyidagi ko‘rinishlardagi jadvallardan foydalanish mumkin:

| Nomi               | Bor edi, bo‘lgan edi<br>(tarixiy ma’lumot) | Hozir mavjud             | Kelgusidagi holati |
|--------------------|--|--------------------------|--------------------|
| Ruchka             | Cho‘p, pat, siyohli ruchkalar              | Sharikli ruchkalar       | Elektron ruchkalar |
| Soat               | Mexanik, elektron                          | Mexanik, elektron        | ?                  |
| Televizor          | Lampali                                    | Mikrosxemali             | ?                  |
| Kompyuter monitori | Elektron nurli                             | Elektron nurli, plazmali | ?                  |
| ...                | ...  | ...                      | ?                  |

### “SAN” (uchlik – samarali, ahloqiy, nazokatli) metodi

SAN metodining maqsadi – o‘quvchi (yoki tinglovchi)larda yakka, jamoaviy guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik ko‘nikmalarini, ishga mas’uliyat bilan yondashuvni shakllantirish, bezash ishlari ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchi (yoki tinglovchi)lar dars mavzusiga oid topshiriq mazmunidan kelib chiqqan guruhlarga bo‘linadilar va ularga guruh nomlari beriladi. Topshiriq mazmuni va ketma-ketligi tushuntiriladi.



**“Loyiha” metodi-** bu o‘quvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirishlarini olib borishidir. Bu metodda o‘quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda o‘quvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. O‘quvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u o‘quvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llanilishi talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak. Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, o‘quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

**“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma‘lumotlar yig‘adilar.

2. O‘quvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta‘lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. O‘quvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. O‘quvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta‘lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.



4. O'quvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. O'quvchilar ish natijalarini o'zlari tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. O'quvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar.

Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va o'quvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni o'quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishini ta'minlanishi lozim.

## "MOHIR QO'LLAR" TO'GARAK MASHG'ULOT REJASI

### 6- sinf

| t/r | Fanning nomi    | Mavzu   | Amaliy mashg'ulot   |
|-----|-----------------|---|---|
| 1   | Botanika        | O'simliklarning hayotiy shakllari                                       | <b>Texnologiya.</b><br>Mavzu:<br>Yog'ochdan qalamdon yasash |
| 2   | Fizika          | Fizik kattaliklar va ularni o'lchash                                    |   |
| 3   | Tasviriy san'at | Rangtasvir yoki qalamtasvirda 2-3 figurali mavzuli kompozitsiya ishlash |   |
| 4   | Matematika      | Natural sonlar. Natural sonlar bo'linishi                               |   |

**Texnologiya. Yog'ochdan qalamdon yasash (amaliy mashg'ulot).**

1. Qalamdon tayyorlash uchun eni 50 mm, qalinligi 50 mm, uzunligi 200 mm o'lchamdagi yog'och bo'lgi tanlab olinadi.



2. Yog‘och namunasining ustki qismiga belgilangan nuqtalar asosida chiziqlar chiziladi.

3. Yog‘ochning yon tomonlaridan 7 sm qoldirib, ko‘ndalangiga chiziq tortiladi.

4. Chizib olingan chiziqning o‘rtasidan teng ikkiga ajratilib, uzunasiga chizib olinadi. Chiziqlar yog‘ochning barcha tomonlariga bir xilda chiziladi.

5. Chiziqning bosh nuqtasi qolgan nuqtalar bilan birlashtirilib, uchburchak shakli hosil qilinadi.

6. Yog‘och bo‘lagi duradgorlik dastgohiga qotiriladi. Randa yordamida burchak qismlari randalanadi. Ish ketma-ketligi yog‘ochning to‘rtta tomonini ham randalash orqali davom ettiriladi.

7. Yog‘ochning markazidan o‘tkazilgan chiziqqa nuqtalar chizib olinadi. nuqtalarni chizish barcha bo‘laklarda amalga oshiriladi.

8. Yog‘ochga teshik ochish ishlari parmalash stanogida bajariladi. Teshik ochishda maxsus burchaklik moslamasidan foydalaniladi. Burchaklik

moslamasiga zagotovka o‘rnatiladi. Tayyor zagotovkaga parmalash stanogida teshiklar ochiladi. Zagotovka ustidan parma tushirilib, asta-sekinlik bilan teshikchalar ochiladi.

9. Qalamdonning pastki qismidan bezak berish ishlarini bajarish uchun chiziqlar chiziladi. Chiziqlar egov yordamida egovlanadi. Chuqurcha hosil qilinadi.

10. Ish oxirida qalamdon qumqog‘oz yordamida silliqilanadi.

**Botanika: O‘simliklarning hayotiy shakllari.** Daraxtlar-bitta yo‘g‘on yog‘ochlashgan tanali, baquvvat ildizli va keng shox-shabbali, baland bo‘yli ko‘p yil-lik o‘simliklar. Olma, o‘rik, yong‘oq va shaftolining shox-shabbasi yoyiq; qarag‘ay va terakniki g‘uj va tik; sadaqay-rag‘ochniki sharsimon bo‘ladi. Tabiiy holda o‘sadigan daraxtlar sharoitga qarab bir-biridan keskin farq qiladi. Tog‘larning o‘rta qismidagi archa bo‘ydor bo‘lib o‘ssa, eng balandliklardagisi esa yerdan 0,5-1 m ko‘tariladi, xolos. Bu holat o‘simliklarni doimiy esib turadigan shamoldan va qishning qattiq sovuqlaridan saqlaydi.

**Fizika. Fizik kattaliklar va ularni o‘lchash.** Jismlarning yoki fizik hodisalarning ba‘zi parametrlarini tajriba yordamida o‘lchash mumkin. Bu parametrlar fizik kattaliklar deb ataladi. Masalan, jismning uzunligi, hajmi, temperaturasi, massasi va h.k. O‘lchash deyilganda, o‘lchanadigan kattalikni namunaviy kattalik bilan solishtirish





tushuniladi. Har bir namunaviy kattalikning o'z birligi mavjud. Masalan, uzunlikning birligi sifatida Xalqaro kelishuvga muvofiq metr (1 m), vaqtni o'lchash uchun sekund (1s) qabul qilingan. Uzunlik namunasi platina-iridiy qotishmasi (ikkita modda aralash masi)dan yasalgan bo'lib, Fransiyada saqlanadi. Kundalik turmushda uzunlik metrdan tashqari unga karrali bo'lgan hamda ulushlariga to'g'ri kelgan birliklarda ham o'lchanadi. Chizg'ichdagi chiziqcha va raqamlar chizg'ich shkalasini, qo'shni ikkita chiziqcha oralig'i o'lchash aniqligini ko'rsatadi. Chizg'ich bilan o'lchash mumkin bo'lgan eng katta masofani *o'lchash chegarasi* deyiladi.

Tasviriy san'at. Rangtasvir yoki qalamtasvirda 2-3 figurali mavzuli kompozitsiya ishlash. Kompozitsiya so'zining ma'nosi - tasvir ifodasini tuzmoq, shakl yaratmoq, tasvirlangan shakllarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirmoq - umumiylikka olib kelmoq, ularga badiiy mazmun ifodasini singdirmoqdir. Kompozitsiya-san'atning barcha turlarida, shu jumladan, tasviriy san'atda asosiy o'rinni egallaydi. U asar yaratishdagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Tasviriy san'atda kompozitsiyaning uch turi qo'laniladi.

#### **Matematika. Natural sonlar. Natural sonlar bo'linishi.**

Agar  $M$  son natural son  $N$  ga qoldiqsiz bo'linsa,  $M$  son  $N$  ning karralisi (bo'linuvchisi)  $N$  son esa  $M$  ning bo'luvchisi deyiladi.

Natural son 2 ga bo'linsa u juft son deyiladi. Natural son 2 ga bo'linmasa u toq son deyiladi.

Bu to'garak mashg'ulotiga qatnashgan o'quvchi kelajakda yetuk kasb egasi bo'lib chiqadi.

Ana'anaviy avgust kengashlari sho'ba yig'ilishlarida o'qituvchilar oldiga qo'yiladigan vazifalar quyidagilardan iborat:

- Amaliy fanlar blok-modulli DTS va o'quv dasturlari mazmun-mohiyatini bandma-band o'qib-o'rganish;
- umumta'lim fanlararo integratsiyani kuchaytirish;
- o'quvchilar o'zini-o'zi tahlil qilish va baholashga o'rgatish.
- o'quvchilarda texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga oid topshiriqlar tuzish hamda dars jarayonida qo'llash;
- o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish borasida mavzularni o'qitishda fan yo'nalishi bo'yicha yaratilgan metodik qo'llanmalar va multimedia resurslardan foydalanish.

Namuna sifatida berilgan to'garak mashg'ulotlari o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi, amaliy mashg'ulotlar orqali fanlararo integratsiyani mustahkamlaydi, turli buyumlar, qurilmalarni yasashda ijodkorlikni rivojlantiradi, qiziqishni o'stirishga zamin bo'ladi.



Natijada, fan yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlari o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi;

o'quvchilar umumta'lim fanlaridan olgan bilimlari asosida amaliy mashg'ulotlarga ijodiy yondashgan holda bajarish fanlararo integratsiyani mustahkamlaydi, kasb-hunarlariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi;

o'quvchi faoliyatiga ijodiy yondashishni, undagi ijodkorlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik g'oyalarni rivojlantirib, o'quvchilarni fan, texnikaga bo'lgan qiziqishni oshiradi

O'tgan o'quv yillarida barcha fanlardan tayanch maktablar tashkil etilishi natijasida, fanlarni o'zlashtirish samaradorligida ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

Amaliy fanlar bo'yicha tayanch maktablarini tashkil etish orqali o'qituvchilarning fan nazariyasi va metodikasiga oid bilimlarini oshirish, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga oid metod va usullar bilan tanishtirish, fanlar bo'yicha yaratilgan metodik qo'llanmalar, resurslardan o'quv jarayonida samarali foydalanishiga yordam berish, o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tishga tayyorlash, shuningdek ularning doimiy tarzda mustaqil ta'lim olishini yo'lga qo'yish, fan o'qituvchilarining kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish, pirovard natijada ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga erishishdan iborat.

Tayanch maktablarini tashkil etishning asosiy vazifalari:

o'qituvchilar kasbiy kompetentligini doimiy oshirishga yo'naltirilgan mamlakatimiz va xorijiy ilg'or tajribalarni o'zida mujassam qilgan innovatsion yondashuvlarni o'rganish va ularni o'quv mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq qilish;

ta'lim sohasidagi va o'qitish metodikasidagi yangiliklar, innovatsion texnologiyalar, kasbiy ehtiyojlarni inobatga olgan holda samarali va sifatli o'quv metodik materiallarni joriy etish;

ilg'or o'qituvchilar, metodistlar, soha mutaxassislari tajribalaridan samarali foydalanish va amaliyot bilan bog'lash;

me'yoriy va metodik materiallarni ishlab chiqishda ta'limning uzviyligi va izchilligi ta'minlanishga hamda darsliklardan foydalanishga e'tibor qaratishdan iborat.

Amaliy fanlar bo'yicha tayanch maktablari uchun namunaviy reja tayyorlangan. Mazkur rejaga ijodiy yondashgan holda, sho'ba yig'ilishlarida muhokama etilib, hududni imkoniyati, o'qituvchilarni salohiyatiga qarab o'zgartirish mumkin.

Masalan, musiqa madaniyati fanidan "Musiqa madaniyati darslarida tinglash faoliyat turini o'qitishda media resurslardan samarali



foydalanish"; "Xalq musiqasining mahalliy uslublarini o‘rgatishning ilg‘or usullari", 3-sinf musiqa madaniyati darslarida tinglash va jamoa bo‘lib kuylash faoliyat turlarini o‘qitishda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirish va "Mumtoz musiqani o‘rgatishda o‘quvchilarda milliy va umummilliy kompetensiyani shakllantirish kabi mavzularga ijodiy yondashgan holda, takomillashtirib, foydalanish tavsiya etiladi.

Amaliy fanlar o‘qituvchilari yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan xulosa chiqargan holda, o‘quv yili davomida amalga oshiradigan ishlarini rejalashtirish iblan birga, quyidagi vazifalar bajarishi lozim.

- ❖ O‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ❖ o‘quv metodik resurslardan samarali foydalanish;
- ❖ kreativlikni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlar ishlab chiqish;
- ❖ amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda hamkorlik;
- ❖ to‘garak mashg‘ulotlarini maqsadli tashkil etish.

### **Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar**

1. Daraxtning tuzilishi va undan tayyorlanadigan buyumlar ro‘yxatini tuzing. Inson hayotida ulardan foydalanish masalalarini tushuntirib bering.

2. Texnologiya fanidan nazariy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan interfaol metodlarni foydalanish davriga ko‘ra ajrating.

3. Texnologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan interfaol metodlarni foydalanish davriga ko‘ra ajrating.

4. "Kreativlik", "Kompetentlik" va "Kompetensiya" tushunchalarini pedagogik faoliyatingizdan kelib chiqqan holda hayotiy misollar bilan izohlab bering?



## Maxsus ta’limdan inklyuziv ta’limga

*Maxsus ta’limdan – inklyuziv ta’limga!*

Respublika ta’lim markazi  
“Inklyuziv va maxsus pedagogika” bo‘limi  
metodisti, p.f.n.dotsent Ubayda Yunusovna Fayzieva

Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning barcha harakatlari mustaqil yurtimiz, erkin xalqimizning kelajagiga qaratilganini ko‘rib yurtimizning har bir fuqarosi bu savobli hamda barchamizning farzandlarimiz uchun qilinayotgan harakatlarini qo‘llab quvvatlashda kamarbasta bo‘lishimiz har birimizning burchimizdir. Bu borada prezidentimizning xalqimiz, farzandlarimiz kelajagi, farovonligiga qarata e‘lon qilgan qator farmonlarini ta’kidlash zarur deb hisoblaymiz.

Shulardan “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 52-70 qarori asosida “Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Zamonaviy maktab” dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi “2020-2022 yillarda amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Zamonaviy maktab” davlat dasturi.

2019 yil 29. 04 № 5712 –farmonining 3-bobida Xalq ta’limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo‘nalishlarining D) bandida imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim xizmatining sifatini yaxshilashga alohida urg‘u berilib, “Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmagan, mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari dasturlarida o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus tayyorgarligi yo‘q” –deb ta’kidlab o‘tilgan.

Prezidentimiz farmonini amalga oshirish bo‘yicha 2020-2022 yillarda amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Zamonaviy maktab” davlat dasturiga “inklyuziv ta’lim” bo‘yicha kiritilishi zarur bo‘lgan quyidagi takliflar kiritilgan:

- Imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (pedagog-defektolog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar )bilan ta’minlash;



- Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- Imkoniyati cheklangan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun zarur bo'lgan uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Jamoatchilik o'rtasida Imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini joriy etish;

- O'quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan kelib chiqqan holda maxsus maktab-internatlarni optimallashtirish;

- 1.O'quvchilarni imkoniyati va muammolarining darajasi bo'yicha differensiyalash va har bir darajadagi o'quvchilarning imkoniyatiga mos dastur asosida ta'lim berilishini tashkil qilish.

- 2.Maxsus ta'limning boshlang'ich bosqichida korreksiya, riabilitatsiya ishlarini sifatli amalga oshirish orqali o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Oilasida, yaqinlari bilan mahallasida yashash va umumiy maktabda o'qishiga tayyorlash kabilarni amalga oshirish.

Bularning hammasi imkoniyati cheklangan bolalar, yoshlar tarbiyasida tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga undamoqda. Nogiron farzandi bo'lgan ota-onalar uchun ham dalda, ham farzandlarining kelajakda barcha qatori o'z o'rnini topib ketishiga ishonch tug'dirmoqda. Chunki imkoniyati cheklangan yoshlarimiz ularga berilgan imtiyozlardan foydalanib oliy o'quv yurtlariga qabul qilinmoqda va ma'lum darajada mukammallikka erishish sari birinchi qadamlar, ijobiy yutuqlar namoyon bo'lmoqda.

Respublika ta'lim markazining "Inklyuziv va maxsus pedagogika" bo'limi tomonidan imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'limni o'quvchilardagi kamchiliklarni korreksiyalash orqali reabilitatsiyasiga erishish, ularni inklyuziv ta'limga tayyorlashga qaratilgan mavjud dasturlar asosida darsliklar takomillashtirildi. O'qituvchilar va ota-onalar uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyalar



tayyorlandi. Darsliklarda berilgan o'quv materiali o'quvchilarning talaffuz kamchiliklarni to'g'rilash, nutqini shakllantirish, nutqiy tafakkurini rivojlantirishga moslashtirildi.

Boshlang'ich sinflar uchun tayyorlangan maxsus darsliklar, ulardagi rasmlar, o'quvchilarning imkoniyatiga differensial yondoshuv orqali o'qitish, dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Eshitish bo'yicha nogironligi bo'lgan o'quvchilar ta'limini yanada samaraliroq bo'lishini ko'zda tutgan holda ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlarning o'quv rejasiga qo'shimcha "Nutqiy muloqot" fani kiritildi. Bu fanning kiritilishidan maqsad, o'quvchilarning eshitish orqali nutqni tushunish va egallash imkoniyati yo'qligi sababli ularga o'quv materiali og'zaki –daktil va imo-ishora orqali kompleks ravishda o'rgatilishi ko'zda tutilgan.

O'qituvchilar imo-ishorani mukammal tushunishi va uni savodli, to'g'ri, qo'llashiga erishish maqsadida o'qituvchilar uchun metodik tavsiya yaratildi. Ota-onalar o'z farzandlari bilan muloqotini yengillashtirish maqsadida har bir maktab-internatda ota-onalar haftada 1 marta daktil va imo-ishorali nutqni o'rgatish bo'yicha maxsus o'quvlar tashkil etildi.

Respublika ta'lim markazi tomonidan Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o'quvchilari uchun 2019-2020 o'quv yilida maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha jami 76 nomda darslik chop etilmoqda. Bu darsliklar davlat byudjeti hisobidan chop etilib o'quvchilarga bepul beriladi.

Respublikamizda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga davlat tomonidan byudjet hisobidan jarrohlik yo'li bilan Koxlear implant qo'yish yo'lga qo'yildi va hozirgi kunda jami 800 nafardan ziyod bolaga implant qo'yildi. Koxlear implant qo'yilgan bolalar eshityapti. Kelajakda ular sog'lom tengqurlari qatorida o'z uyida ota-onalari bag'rida voyaga yetishi ularni kelajagini ta'minlash uchun yaratilgan betakror imkoniyatdir.

Hozirgi kunda 800 nafar implant qo'yilgan bolalarning eshitishi to'liq tiklanib maktab yoshiga yetdi. Shuning uchun ularning ta'limini tashkil qilish, sog'lom tengqurlari qatori inklyuziv tarzda yoki integratsiyalashgan sinflarda o'qitish ehtiyoji keskin turibdi.

Respublika ta'lim markazining "Inklyuziv va maxsus pedagogika" bo'limi tomonidan Koxlear implant qo'yilgan bolalarning reabilitatsiyasini amalga oshirish bo'yicha, ota-onalar va



surdopedagog-reabilitolog mutaxassislar uchun o'quv-metodik qo'llanmalar yaratildi.

Respublika ta'lim markazi Inklyuziv va maxsus pedagogika bo'limi implant qo'yilgan bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish va og'zaki so'zlashuv nutqini rivojlantirishga qaratilgan reabilitatsiya ishlarini amaliy va metodik jihatdan boshqarib kelmoqda. Ya'ni implantatsiya jarrohligidan o'tgan bolalar respublikamizning barcha viloyatlaridan, Qoraqalpog'iston respublikasi hududlardan bo'lganligini inobatga olgan holda hozirgi kunda bolalar yashaydigan hududlardan maxsus surdopedagoglarga reabilitatsiya ishlarni amalga oshirishning yangi, zamonaviy usullari o'rgatilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi, reabilitatsiyasi ijtimoiy moslashuvi borasida amalga oshirilayotgan bunday g'amxo'rlik markaziy Osiyodagi hiech bir davlatda yo'q.

Biz albatta buni qadrlashimiz, o'zimiz ham, o'qituvchi-defektologlar, shu sohaning olimlari barcha imkoniyatimizni ishga solib, imkoniyati cheklangan bolalarning imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni reabilitatsiya qilish, ijtimoiy hayotga va mehnatga moslashuv imkoniyatlarini rivojlantirish yo'lida xizmat qilmog'imiz lozim.

Respublika ta'lim markazining "Inklyuziv va maxsus pedagogika" bo'limi maxsus ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini olib kirish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish borasida katta ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Hoziggi kunda maxsus ta'lim maktab-internatlarda ta'lim samaradorligini yaxshilash orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Bu borada o'quv jarayonini tashkil etish sohasida maxsus maktab-internatlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yilmoqda:

- 1.Korreksiyalovchi ta'lim mazmunini o'quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda individual bo'lishini ta'minlash orqali har bir o'quvchi inklyuziv ta'lim sharoitida erkin his qiladigan darajaga yetkazish.
- 2.Har bir yo'nalish bo'yicha dasturlar o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashuviga yo'naltiruvchi mazmunga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash.
- 3.Ta'lim jarayonida barcha pedagog xodimlar-o'qituvchi, tarbiyachilar oldiga yagona talab-o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, oilada,



mahallada, jamoatchilik joylarda, ko‘chada, transportda, do‘konda, bozorda egallanadigan barcha kommunikativ ko‘nikma va malakalarni berilishini ta‘minlash.

### **Oila bilan hamkorlikning ahamiyatini oshirish**

Oilada, ota-ona, buvi, bobo, aka, uka va urug‘ qarindoshlari bilan birgalikda yashash, ular haqida ma‘lumotga ega bo‘lishiga tayyorlash.

Oiladagi munosabatlar, muomala madaniyatini bilishi.

Mahalla, mahalladagi bolalar bilan yaqindan muloqotda bo‘la olishga tayyorlab borish.

Oilaviy marosimlar, tantanalar haqida tushuncha berib borish, ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish.

Har bir bola barcha oila a‘zolari qatori oilasining ajralmas, kerakli a‘zo ekanligini his qildirish kabi vazifalar orqali o‘quvchilarni inklyuziv ta‘limga tayyorlash ishlarini tashkil vazifasi qo‘yilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta‘limi –ta‘lim olish va rehabilitatsiyaga erishish orqali inklyuziv ta‘limga o‘tishga start olmoqda. Chunki Ta‘lim markazining defektolog mutaxassislari, olimlari bu borada ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirishda ilg‘or tajribalarga tayanib katta rejalarni amalga oshirmoqda.

Respublika ta‘lim markazining “Inklyuziv va maxsus pedagogika” bo‘limi bu borada uzoq muddatli chora tadbir asosida ishlar olib borishni rejalashtirmoqda.





## Zamonaviy maktab – Ta’lim strategiyasi-2030: Yo‘nalishlar va ko‘rsatkichlar

*Tursunov Tajimurod Mirsaidovich,  
Respublika ta’lim markazi bo‘limi boshlig‘i*

*Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.*

*Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

*SH.M.Mirziyoyev*

Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol avlod sifatida voyaga yetkazish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish, jahon andozalariga mos bilim olishlari, qobiliyat va iqtidorini ro‘yobga chiqarish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda, shu jumladan, xalq ta’limi tizimida ham keskin va jadal ravishda keng qamrovda islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (997, 08.12.2018 y.) qarori qabul qilindi.



Mazkur qaror bilan PIRLS, TIMSS, PISA – o‘quvchilar bilimini baholash hamda TALIS — rahbar va pedagog kadrlarning faoliyatini o‘rganishga mo‘ljallangan xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi.

Shuningdek, iqtidorli bolalarni aniqlash, ta‘lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, iste‘dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma‘nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-4199, 20.02.2019 y.) qarori qabul qilindi.

Unga qo‘shimcha ravishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni ma‘naviy yetuk, xalqaro arenada o‘z bilimi bilan raqobat qila oladigan o‘quvchilarni tayyorlash, maktabdan tashqari ta‘lim tizimini rivojlantirish, qizlar va ayollar uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, qo‘shimcha ish o‘rinlar yaratish kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish bo‘yicha 5 ta tashabbusni joriy etish tamoyili tasdiqlandi.

Umumta‘lim fanlarining Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari xalqaro andozalar talablari asosida takomillashtirilmoqda.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan (PF-5712, 29.04.2019 y.) “Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasi tasdiqlandi.

#### **Konsepsiyaning maqsadi:**

umumta‘lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini yaratish;

inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish.

#### **Bunda quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor kuchaytiriladi:**

- umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;



- o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish;

- o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish.

Qabul qilingan Konsepsiyada, xalq ta‘limi tizimini uzoq muddatli rivojlantirishning quyidagi 9 ta asosiy yo‘nalish nazarda tutilgan, jumladan:

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

xalq ta‘limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

xalq ta‘limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish;

yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta‘minlashda maktabdan tashqari ta‘limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta‘lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.



Hozirgi vaqtda xalq ta’limi tizimi umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni o‘z ichiga oladi.

Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha 48 ta maqsadli ko‘rsatkichga erishish bilan asoslanadi.

#### Dastlabki maqsadli ko‘rsatkich:

1. “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish” maqsadi qo‘yilgan.

**O‘zbekistonning** xalqaro reytingdagi o‘rni:

**2021 – 70 ta ilg‘or davlat qatorida;**

**2025 – 60 ta ilg‘or davlat qatorida;**

**2030 - 30 ta ilg‘or davlat qatorida.**

PISA - dasturi 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan hamda kreativ fikrlash, savodxonlik darajasini baholashga mo‘ljallangan.

#### **PISA – tadqiqotlarida ishtirok etish:**

tadqiqotlardan olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va xalqaro miqyosdagi o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish hamda o‘quvchilarimiz bilimni xarqaro talablarga yetkazish, unga mosligini tahlil qilib borish imkonini beradi;

raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratadi;  
mamlakatimizning kelajakda yuqori o‘sish sur‘atlariga erishishini ta’minlaydi;

milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi.

**Yo‘nalish: uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;**



2. O'qituvchilarni zamonaviy malaka talablari asosida sinov (test)dan o'tkazish va kasbiy litsenziya berish. Jami o'qituvchilar soniga nisbatan:

- 2021** – 5 % ni tashkil etadi;
- 2025** – 10 % ni tashkil etadi;
- 2030** – **20** % ni tashkil etadi.

3. Ingliz tilini bilish Yevropa Ittifoqi talablari C1-CEFR darajasiga muvofiq bilimga ega bo'lgan ingliz tili o'qituvchilari 2030 yilga kelib, jami ingliz tili o'qituvchilari soniga nisbatan 100%ni tashkil etadi, ya'ni barcha ingliz tili o'qituvchilari C1-CEFR darajasiga muvofiq bilimga ega bo'lishadi.

- 2019** – **10** % ni tashkil etadi;
- 2020** – 15 % ni tashkil etadi;
- 2021** – 30 % ni tashkil etadi;
- 2025** – **70** % ni tashkil etadi;
- 2030** – **100** % ni tashkil etadi.

4. 2030 yilga kelib, barcha, ya'ni, jami o'qituvchilar soniga nisbatan 100%, umumta'lim maktablari bitiruvchilari ingliz tilini bilish Yevropa Ittifoqi talablari B1-CEFR darajasiga muvofiq ingliz tilini o'zlashtirgan darajaga erishishi belgilangan:

- 2019** – **10** % ni tashkil etadi;
- 2020** – 15 % ni tashkil etadi;
- 2021** – 20 % ni tashkil etadi;
- 2025** – **50** % ni tashkil etadi;
- 2030** – **100** % ni tashkil etadi.

5. Maktab direktorlari va ta'lim tizimidagi rahbarlar 2025 yilga qadar xalq ta'limi sohasi menejeri – boshqaruvchi ko'nikmalarini shakllantirish tayanch kursidan o'tishi belgilangan. Jami direktorlar va rahbarlar soniga nisbatan:

- 2019** – **8** % tayanch kursidan o'tgan;
- 2020** – 42 % tayanch kursidan o'tgan;
- 2021** – 90 % tayanch kursidan o'tgan;
- 2025** – **100** % tayanch kursidan o'tgan;
- 2030** – **100** % tayanch kursidan o'tgan.

6. Xalq ta'limi sohasi menejeri kasbiy litsenziyasini olish uchun sinovdan o'tgan maktab direktorlari va ta'lim tizimidagi rahbarlar, jami



direktorlar

va rahbarlar soniga nisbatan.

**2021 – 20 %** kasbiy litsenziyaga ega bo‘ladi;

**2025 – 70 %** kasbiy litsenziyaga ega bo‘ladi;

**2030 – 100 %** kasbiy litsenziyaga ega bo‘ladi.

7. Barcha umumta‘lim maktablari to‘liq oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar bilan ta‘minlanadi, jami o‘qituvchilar soniga nisbatan:

**2019 – 85 %** oliy ma‘lumotli;

**2020 – 90 %** oliy ma‘lumotli;

**2021 – 93 %** oliy ma‘lumotli;

**2025 – 95 %** oliy ma‘lumotli;

**2030 – 100 %** oliy ma‘lumotli;

Ta‘lim tizimida bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirib borish, yosh mutaxassislarga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida [ish.uzedu.uz](http://ish.uzedu.uz) sayti respublika miqyosida joriy qilindi.

8. Umumta‘lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida oliy toifali o‘qituvchilar, jami o‘qituvchilar soniga nisbatan:

**2019 – 2 %** oliy toifalilar;

**2020 – 2,5 %** oliy toifalilar;

**2021 – 4 %** oliy toifalilar;

**2025 – 7 %** oliy toifalilar;

**2030 – 10 %** oliy toifalilar.

9. Umumta‘lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida birinchi toifali o‘qituvchilar, jami o‘qituvchilar soniga nisbatan:

**2019 – 10 %** birinchi toifalilar;

**2020 – 12 %** birinchi toifalilar;

**2021 – 15 %** birinchi toifalilar;

**2025 – 20 %** birinchi toifalilar;

**2030 – 25 %** birinchi toifalilar.

10. Umumta‘lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida ikkinchi toifali o‘qituvchilar, jami o‘qituvchilar soniga nisbatan:



**2019 – 30 %** ikkinchi toifalilar;

**2020 – 32 %** ikkinchi toifalilar;

**2021 – 35 %** ikkinchi toifalilar;

**2025 – 40 %** ikkinchi toifalilar;

**2030 – 50 %** ikkinchi toifalilar.

**11.** Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni 13 nafarni tashkil etsa, 2030 yilga kelib, 10 nafarni tashkil etishiga erishiladi. Har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni:

**2019 – 13 nafar o'quvchi;**

**2020 – 13 nafar o'quvchi;**

**2021 – 12 nafar o'quvchi;**

**2025 – 11 nafar o'quvchi;**

**2030 – 10 nafar o'quvchi.**

**Yo'nalish: o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;**

**12.** Umumta'lim maktab o'quv dasturlari va darsliklariga STEAM yondashuvini integratsiya qilish, ushbu yo'nalishda trenerlarni tayyorlash, maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish kabi yo'nalishlarda ishlar tashkil etish natijasida STEAM yondashuvi yo'nalishidagi fanlarni (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, san'at va dizayn, matematika) o'qitish bo'yicha o'quv kurslaridan o'tgan pedagoglar, jami tabiiy va aniq fanlar o'qituvchilari soniga nisbatan 50% ni tashkil etishga erishiladi:

**2025 – 20%** o'quv kurslaridan o'tgan pedagoglar;

**2030 – 50%** o'quv kurslaridan o'tgan pedagoglar.

**Yo'nalish: xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, bunda e'tibor, asosan, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ta'lim tizimida raqobatni kuchaytirishga qaratiladi.**

**16.** Tashkil etiladigan Prezident maktablari soni uch yilda 14 taga etadi.

**2019 – 4 ta;**

**2020 – 5 ta;**



**2021 – 5 ta;**

**2025 –**

**2030 – 14 ta.**

Prezident maktabi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi hisoblanib, uning faoliyati yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitishni ta'minlashga qaratilgan.

**Prezident maktablarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad:**

ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitish tizimini shakllantirish, shuningdek,

iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish,

ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta'minlashdan iborat.

**Prezident maktabi faoliyatining asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari:**

iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish;

tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

o'quvchilarni o'qitish va ular bilimni baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobiy tajribani respublika xalq ta'limi tizimiga tatbiq etish;

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari va notiqlik san'atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha malakasini oshirish;

o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlash;





o'quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini, hayotga qat'iy ishonch va qarashlarni shakllantirish;

o'quv dasturlarining uzluksizligini ta'minlash masalalarida xuddi shu yo'nalishdagi milliy va xorijiy umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bitiruvchilarning ilg'or xorijiy oliy o'quv yurtlarida va ularning respublikamizdagi filiallarida o'qishini davom ettirish.

Maqsadimiz: **«Millatning xalqaro olimpiadalarda, tanlovlarda g'olib bo'ladigan va dunyoning eng yaxshi oliy o'quv yurtlariga kira oladigan kelajakdagi yetakchilarni, o'quvchilarini tayyorlash. Biz jahon maydonida raqobatbardosh bo'la oladigan yetakchilarni tarbiyalaymiz».**

17. "Zamonaviy maktab" darajasiga keltiriladigan umumta'lim maktablari, jami maktablar soniga nisbatan 50%ni tashkil etadi, ya'ni respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan maktablarning teng yarmi "Zamonaviy maktab" maqomiga erishadi. Jami maktablar soniga nisbatan:

**2021 – 3%;**

**2025 –20%;**

**2030 – 50%.**

Hozirgi kunda tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab" davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi va Prezident Administratsiyasiga kiritildi.

"Zamonaviy maktab" davlat dasturi 3 bosqichda:

1-bosqich - 2020-2022;

2-bosqich - 2023-2025;

3-bosqich - 2026-2030 yillarda amalga oshirilishi belgilanmoqda.

"Zamonaviy maktab" tushunchasi moddiy-texnik ta'minoti bilan bir qatorda ta'lim berish sifati yuqori darajada bo'lishini ta'minlovchi menejment tizimi;

o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi va ularni baholashning adolatli tizimi;

ta'lim oluvchilarning kelgusi hayotiy faoliyatida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantiruvchi ta'lim jarayoni tashkil etilishi va boshqa baholash mezonlariga to'liq javob beradigan umumta'lim muassasalariga nisbatan qo'llanilishi ko'zda tutilmoqda.

19. O'quvchilarning ta'lim olishi bir navbatda (smenada) tashkil etilgan maktablar soni 2019 yil holatiga 22%ni tashkil etgan holda 2030 yilga kelib,



80% maktabda o‘qishlar bir smenada tashkil etiladi. Bir navbatli maktablar, jami maktablar soniga nisbatan:

**2019 – 22%;**

**2020 – 30%;**

**2021 – 40%;**

**2025 – 60%;**

**2030 – 80%.**

20. Barcha umumta’lim muassasalari yangi binolar qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, kapital ta’mirlanishi va jihozlanishi hisobiga moddiy-texnika bazasi yaxshilanadi. Jami maktablar soniga nisbatan:

**2019 – 5 %;**

**2020 – 15 %;**

**2021 – 25 %;**

**2025 – 40 %;**

**2030 – 100%.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda PQ-4067-son qarori bilan tasdiqlangan 2019 yil Investitsiya dasturi doirasida 506 ta umumta’lim (*33 ta yangi qurilish, 299 rekonstruksiya, 174 ta kapital ta’mirlash*) maktablarida qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

21. Barcha umumta’lim maktabalarning isitish tizimi to‘liq ishlaydigan bo‘ladi, jami maktablar soniga nisbatan:

**2019 – 75 %;**

**2020 – 80 %;**

**2021 – 100 %;**

**2025 – 100 %;**

**2030 – 100%.**

22. Barcha umumta’lim maktabalar toza ichimlik suvi bilan, shu jumladan, tashib keltiriladigan maktablar ham uzluksiz suv manbai bilan ta’minlanadi. Jami maktablar soniga nisbatan:

**2019 – 70 %;**

**2020 – 75 %;**

**2021 – 80 %;**



**2025 – 100 %;**

**2030 – 100 %.**

**Yo'nalish: yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish.**

**Yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish.**

**23. Hozirgi kunda respublika bo'yicha 47% (4780 ta) maktabda faollar zali tashkil etilgan, 2030 yilga kelib barcha umumta'lim muassasasida, ya'ni 100% maktabda faollar zali to'liq tashkil etiladi yoki bo'sh xonalar moslashtirilib, belgilangan me'yorlar asosida jihozlanadi. Jami maktablar soniga nisbatan:**

**2019 – 47 %;**

**2020 – 60 %;**

**2021 – 80 %;**

**2025 – 100 %;**

**2030 – 100 %.**

**24/25. Hozirda 2 mingdan ortiq umumta'lim maktablarida "Yoshlar teatr studiya"lari tashkil etildi, 2030 yilga kelib, 7 mingdan (80 %) ortiq umumta'lim maktablarida teatr studiyalari tashkil etiladi.**

Hozirda 103 mingdan ortiq o'quvchilar "Yoshlar teatr studiya"lariga jalb qilinsa, 2030 yilga kelib, 290 mingdan ortiq (5%) o'quvchilar teatr studiyalariga jalb qilinishi belgilangan.

| jami maktablar soniga nisbatan: | jami o'quvchilar soniga nisbatan: |
|---------------------------------|-----------------------------------|
|---------------------------------|-----------------------------------|

**2019 – 10 %;**

**2020 – 20 %;**

**2021 – 30 %;**

**2025 – 60 %;**

**2030 – 80 %.**

**2019 – 2 %;**

**2020 – 2,5 %;**

**2021 – 3 %;**

**2025 – 4 %;**

**2030 – 5 %.**

**26. 2020 yilda 290 ming nafardan ortiq o'quvchilar san'at to'garaklariga jalb qilinsa, 2030 yilga kelib, 1 mln. 740 ming nafardan ortiq (30 %) o'quvchilar san'at to'garaklariga jalb qilinadi.**

**2020 – 5 %;**

**2021 – 10 %;**

**2025 – 25 %;**

**2030 – 30%.**



**27.** 2020 yilda 58 ming nafardan ortiq (**1 %**) o‘quvchi musiqa madaniyati fanini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xor jamoalarga jalb qilinsa, 2030 yilga kelib, 174 ming nafardan ortiq o‘quvchi (**3 %**) xor jamoalarga jalb qilinishi vazifasi belgilangan. Ishtirokchi o‘quvchilar jami o‘quvchilar soniga nisbatan:

**2020 – 1 %;**

**2021 – 2 %;**

**2025 – 2,5 %;**

**2030 – 3 %.**

**28.** Bu yili o‘quvchilar o‘rtasida ichki turizmni rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” shiori ostida respublika bo‘yicha 72 ming nafardan ortiq (**1 %**) o‘quvchiga sayohatlar uyushtirilsa, 2030 yilga kelib, 145 ming nafardan ortiq o‘quvchi (**2,5%**) uchun sayohatlar tashkil etiladi, jami o‘quvchilar soniga nisbatan:

**2019 – 1 %;**

**2020 – 1,5 %;**

**2021 – 2 %;**

**2025 – 2,5 %;**

**2030 – 2,5 %.**

### **Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish**

**29.** Barcha umumta‘lim maktablarida sport zallarini barpo etish, ya‘ni sport zali bilan to‘liq ta‘minlanishi belgilangan, jami maktablar soniga nisbatan:

**2019 – 76 %;**

**2020 – 80 %;**

**2021 – 85 %;**

**2025 – 100 %;**

**2030 – 100 %.**

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 iyuldagi 637-son qarori qabul qilingan bo‘lib, unda 2020-2022 yillarda 141 ta sport zallar qurilishi belgilangan.



**30.** Barcha umumta'lim maktablar sport jihozlari bilan to'liq ta'minlanadi va ma'nan eskirgan sport anjomlari yangilab borilishi belgilangan, jami maktablar soniga nisbatan:

**2020 – 5 %;**

**2021 – 15 %;**

**2025 – 48 %;**

**2030 – 100 %.**

**31.** 2030 yilga kelib, respublika bo'yicha 30% umumta'lim maktablari o'quvchilarining muntazam sport turlari bilan shug'ullanishga jalb etilishi erishiladi. Jami o'quvchilar soniga nisbatan:

**2019 – 10 %;**

**2020 – 15 %;**

**2021 – 20 %;**

**2025 – 25 %;**

**2030 – 30 %.**

**Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish.**

**Yo'nalish: yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish asosiy yo'nalishiga to'g'ri keladi.**

**39.** Hozirgi kunda 96% maktabda kutubxonalar tashkil etilgan, 2021 yilga kelib, barcha 9691 ta umumta'lim maktabida kutubxonalar tashkil etiladi. Jami maktablar soniga nisbatan:

2030 yilga qadar 700 ta umumta'lim maktablarida kutubxonalar tashkil etilishi belgilangan.

**2019 – 96 %;**

**2020 – 97 %;**

**2021 – 100 %;**

**2025 – 100 %;**

**2030 – 100 %.**

**40.** Umumta'lim maktablari kutubxonalarini lotin grafikasidagi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanishi, jami o'quvchilar soniga nisbatan 100%ni tashkil etadi.



**2020 – 20 %;**

**2021 – 30 %;**

**2025 – 50 %;**

**2030 – 100 %.**

Hozirgi kunda 1 nafar o'quvchiga o'rtacha 2 donadan badiiy adabiyotlar to'g'ri kelmoqda, 2030 yilga kelib, 1 nafar o'quvchiga o'rtacha 5 donadan kitob to'g'ri keladi.

**41.** Respublika bo'yicha o'quvchilar soniga nisbatan 90% o'quvchilar umumta'lim maktablarida doimiy kitobxonlar safiga qo'shiladi. Jami o'quvchilar soniga nisbatan:

**2019 – 40 %;**

**2020 – 50 %;**

**2021 – 60 %;**

**2025 – 70 %;**

**2030 – 90 %.**

2017-2018 o'quv yilida kutubxonalarga jami 2 mln. 100 ming nafar o'quvchilar kutubxonaga a'zo bo'lgan bo'lsa, 2030 yilga kelib, 5 mln 250 ming nafar o'quvchilar kutubxonalarga jalb qilinadi

**42.** 2030 yilga kelib, o'zbek mumtoz va jahon adabiyoti (120 nomda) durdona asarlari audio kitob shaklida nashr etilishi va maktablarning barchasi ushbu vosita bilan to'liq ta'minlanishi belgilangan.

**2020 – 20 %;**

**2021 – 30 %;**

**2025 – 100 %;**

**2030 – 100 %.**

2020 yilda 1900 dan ortiq umumta'lim maktablari 120 nomdagi audio kitoblar bilan ta'minlansa, 2030 yilga kelib barcha ta'lim muassasalari ushbu 20 nomdagi audio kitoblar bilan ta'minlanadi

**Yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish.**

**Yo'nalish: “Xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish” ustuvor yo'nalishiga to'g'ri keladi.**



**32. Barcha umumta'lim maktablar keng polosali Internet tarmog'iga ulanishi belgilangan, jami maktablar soniga nisbatan:**

**2019 – 10 %;**

**2020 – 70 %;**

**2021 – 100 %;**

**2025 – 100 %;**

**2030 – 100 %.**

**33. Barcha umumta'lim maktablar zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlanishi, mavjud ma'nan eskirgan kompyuter texnikalar yangilanishi hisobiga, jami 9 863 to'plam kompyuter sinfi berilishi rejada belgilangan. Ehtiyoj mavjud bo'lgan kompyuter sinflari soniga nisbatan**

**2019 – 7 %;**

**2020 – 16 %;**

**2021 – 30 %;**

**2025 – 59 %;**

**2030 – 100 %.**

**34. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida robototexnika, axborot texnologiyalari va dasturlash kabi zamonaviy to'garaklar ulushi, 2030 yilga kelib, jami to'garaklar soniga nisbatan 20%ni tashkil etadi.**

**2021 – 3 %;**

**2025 – 10 %;**

**2030 – 20 %.**

2030 yilga kelib umumta'lim maktablarida 1920 tadan ortiq robototexnika, mexatronika va injenerlik to'garaklari tashkil etiladi

**35. Respublika bo'yicha barcha maktablarda ta'lim boshqaruvi axborot tizimi (Open EMIS) joriy etilishi belgilangan, jami maktablar soniga nisbatan:**

**2020 – 20 %;**

**2021 – 50 %;**

**2025 – 100 %;**

**2030 – 100 %.**



O‘quvchilar, o‘qituvchilar, maktablarning elektron ma’lumotlar bazasini yaratish maqsadida “Oren EMIS ” axborot tizimi emis. uzedu.uz domenida ishga tushirildi.

37. Hozirgi kunda respublikada 2 hududda, 2030 yilga kelib, barcha, ya’ni 14 ta hudud umumta’lim maktablarida “Elektron kundalik” axborot tizimi joriy etilishi belgilangan. Joriy etiladigan hududlar soni respublika bo‘yicha:

2019 – 2;

2020 – 3;

2021 – 4;

2025 – 5;

2030 – 14.

53 ta maktabda “Kundalik” axborot tizimi joriy etildi.

38. 2030 yilga kelib, 30% maktabda o‘quvchilar davomatini nazorat qilishning Yagona elektron apparat-dasturiy kompleksini joriy etilishi belgilangan. Jami maktablar soniga nisbatan:

2025 – 10 %;

2030 – 30 %.

Maktablarga biriktirilgan mikrohududlarni geoaxborot tizimi orqali ko‘rish uchun gis. uzedu.uz xalq ta’limi tizimda bo‘sh ish o‘rinlarini ko‘rish va murojaat qilish uchun ish. uzedu.uz portallari yaratildi.

**Hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta’minlash**

43/44. Respublika bo‘yicha umumta’lim maktablarining 10-11-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida «Tikuvchilik» yo‘nalishi bo‘yicha 1950 sinf xonalari jihozlanishi belgilanib, ushbu o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida «Tikuvchilik» yo‘nalishiga o‘quvchi-qizlarning 48 % jalb etilishi belgilangan.

Sinf komplekti hisobida jami maktablar soniga nisbatan:

2019 – 223;

2020 – 511;

2021 – 636;

2025 – 1286;

2030 – 1950.

Jami o‘quvchi-qizlar soniga nisbatan:

2019 – 38,3 %;

2020 – 41 %;

2021 – 43 %;

2025 – 45 %;

2030 – 48 %.





**45/46.** Respublika bo‘yicha umumta‘lim maktablarining 10-11-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida «Oshpazlik» va «Qandolatchilik» yo‘nalishlari bo‘yicha 815 ta sinf xonasi jihozlanishi, ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha 13,5% o‘quvchi-qizlarni jalb etish belgilangan.

| Sinf komplekti hisobida jami maktablar soniga nisbatan: | Jami o‘quvchi-qizlar soniga nisbatan: |
|---|---------------------------------------|
| <b>2019 – 93;</b>                                       | <b>2019 – 6,7 %;</b>                  |
| <b>2020 – 217;</b>                                      | <b>2020 – 7,2 %;</b>                  |
| <b>2021 – 245;</b>                                      | <b>2021 – 7,7 %;</b>                  |
| <b>2025 – 615;</b>                                      | <b>2025 – 10 %;</b>                   |
| <b>2030 – 815.</b>                                      | <b>2030 – 13,5 %.</b>                 |

**47/48.** Unga qo‘shimcha ravishda umumta‘lim maktablarining 10-11-sinflari o‘quvchilari uchun o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida «Sartarosh» va «Kosmetolog» yo‘nalishlari bo‘yicha 370ta sinf xonasi jihozlanishi belgilangan holda, ushbu yo‘nalishlarga 10,8% o‘quvchi-qizlarni jalb etish belgilangan.

| Sinf komplekti hisobida jami maktablar soniga nisbatan: | Jami o‘quvchi-qizlar soniga nisbatan: |
|---|---------------------------------------|
| <b>2019 – 27;</b>                                       | <b>2019 – 3 %;</b>                    |
| <b>2020 – 45;</b>                                       | <b>2020 – 3,7 %;</b>                  |
| <b>2021 – 102;</b>                                      | <b>2021 – 4,4 %;</b>                  |
| <b>2025 – 227;</b>                                      | <b>2025 – 7,8 %;</b>                  |
| <b>2030 – 370.</b>                                      | <b>2030 – 10,8 %.</b>                 |

**Yo‘nalish: davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta‘lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;**

**18.** Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta‘lim muassasalarining, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida, soni 61 tani tashkil etgan holda, 2030 yilga kelib ushbu nodavlat umumta‘lim muassasalari soni 500 taga yetkazish belgilangan. Nodavlat umumta‘lim muassasalari soni:

**2019 – 61 ta;**  
**2020 – 55 ta;**  
**2021 – 72 ta;**  
**2025 – 237 ta;**  
**2030 – 500 ta.**

2019 yil 12 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tizimda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun sarmoyadorlar o‘rtasida tanlovlar e‘lon qildi.



Vazirlik o‘z rasmiy saytida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha 27 ta e‘lonni chop etdi. Loyihalar yurtimizning 8 viloyatida va Toshkent shahrida amalga oshiriladi.

Loyihalarning 5 tasida bo‘sh yer uchastkalarida sport majmualari, shuningdek 22 tasida esa nodavlat umumiy ta‘lim muassasalarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Bu haqida batafsil ma‘lumotlarni vazirlikning saytida (<https://www.uzedu.uz/Xtv/IndexBatafsil/71?ID1=11909>) topish mumkin.

**Yo‘nalish: xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.**

### **Jamiyatda o‘qituvchining maqomini oshirish**

**13.** Xalq ta‘limi tizimida faoliyat yuritayotgan soha xodimlarini davlat va tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash. Xalq ta‘limi tizimida faoliyat yuritayotgan soha xodimlarini davlat va tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash miqdori 2030 yilga kelib 2 000 nafarni tashkil etadi. Mukofotlanadiganlar soni:

**2019 – 800 nafar;**

**2020 – 900 nafar;**

**2021 – 1000 nafar;**

**2025 – 1500 nafar;**

**2031 – 2000 nafar.**

**14.** Xalq ta‘limi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning mehnatiga haq to‘lash miqdorlari tizimli ravishda oshirilib borishi belgilangan bo‘lib, 2030 yilda umumiy ta‘lim sohasidagi o‘rtacha oylik ish haqi boshqa sohalardagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan ulushi 1,5 baravarni tashkil etilishi nazarda tutilgan.

**2019 – 0,8** koeffitsiyentni tashkil etadi;

**2020 – 1,1** koeffitsiyentni tashkil etadi;

**2021 – 1,2** koeffitsiyentni tashkil etadi;

**2025 – 1,4** koeffitsiyentni tashkil etadi;

**2030 – 1,5** koeffitsiyentni tashkil etadi.

2018 yildan boshlab Xalq ta‘limi tizimidagi olib borilayotgan islohotlar natijasida O‘zbekiston tarixida birinchi marta xalq ta‘limi tizimi pedagog xodimlarning ish haqlari, respublikada eng kam oylik ish haqi miqdoriga bog‘lamagan holda, keskin oshirildi.



**15.** Xalq ta’limi tizimidagi xodimlar uchun arzon uy-joylarni sotib olish bo‘yicha ipoteka krediti va avtotransport vositasini sotib olish hamda boshqa maqsadlarda beriladigan imtiyozli iste’mol kreditlari. Jami xodimlar soniga nisbatan:

**2019** – 0,5%ni tashkil etadi;

**2020** – 1,5%ni tashkil etadi;

**2021** – 3,5%ni tashkil etadi;

**2025** – 7,5%ni tashkil etadi;

**2030** – 10%ni tashkil etadi.



---

**KONSEPSIYADA QUIYIDAGI ASOSIY NATIJALARGA ERISHISH  
NAZARDA TUTILGAN:**

1) STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlari joriy etish;

2) xalq ta‘limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtirokini ta‘minlash;

3) xorijiy til, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlarini tayyorlash;

4) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bittadan Prezident maktablarini tashkil etish;

5) 4 860 ta umumta‘lim muassasasini tasdiqlangan baholash mezonlariga muvofiq “Zamonaviy maktablar”ga aylantirish;

6) maktabdan tashqari ta‘lim sifatini oshirish va bolalarni maktabdan tashqari ta‘lim xizmatlari bilan qamrab olishni o‘quvchilar umumiy soniga nisbatan 50 foizga etkazish;

7) oliy ta‘lim muassasalarida “Xalq ta‘limi sohasida boshqaruv” yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;

8) barcha ta‘lim muassasalarini internet tarmog‘iga to‘liq ulash;

9) barcha maktablarda o‘zlashtirish jurnallari va kundalik yozuvlarning elektron shakllaridan foydalanish, davomatni masofadan monitoring qilish, o‘quvchilarning kelish va ketish vaqtlari nazorati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv jarayonini avtomatlashtirish tizimini joriy etish;

10) barcha maktablarga o‘quvchilarni qabul qilish va boshqa ta‘lim muassasalariga o‘tkazish uchun davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmini joriy etish.

**TAVSIYALAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni mazmun – mohiyati, Konsepsiyaning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadli ko‘rsatkichlari bilan



xalq ta'limi xodimlari, o'quvchilarning ota-onalari, keng jamoatchilikni tanishtirish maqsadida targ'ibot – tashviqot ishlarini, shu jumladan, ushbu mavzuga oid seminarlar, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, ko'rsatuvlarni tashkil etishni davom ettirish.

2. Hududlarda faoliyat olib borayotgan metodistlar, pedagog va rahbar xodimlar uchun muntazam ravishda o'quv-amaliy seminarlar tashkil etish.

3. Uzluksiz metodik xizmatni yaxshilash borasida "Tayanch maktablari" faoliyatini takomillashtirib borish.

4. Ilg'or ish tajribalarni ommalashtirishni jonlantirish; bunda rahbar xodimlar va fan metodistlarining tajribalariga alohida urg'u berish.

5. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borishni yaxshilash.

6. O'quvchi-yoshlar tarbiyasida hamkorlik ishlarini oshirish, ta'lim muassasalarida to'garak mashg'ulotlarini jonlantirish.

7. Zamonaviy AKTlardan samarali foydalanish darajasini oshirish maqsadida muntazam ravishda o'quvlar o'tkazish uchun trenerlarni jalb etish.

8. Fanlararo integratsiyani kuchaytirish maqsadida metod birlashmalarining qo'shma yig'ilishlarini joriy etish.

9. Xalqaro tadqiqotlarda foydalanadigan savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlarni integratsiya qilish. Xalqaro tadqiqotlarga asoslangan holda tegishli fanlardan o'qitishning shakllari metodlari va texnologiyalarini yangilash va o'qituvchilarning bu borada xabardorligini oshirish, tayyorgarligini kuchaytirish yuzasidan malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Web-sayt: [www.rtm.uz](http://www.rtm.uz)

Telephone: (71)-246-16-87

Telegramm: <https://t.me/rtmlibrary>

e-mail: [rtm@xtv.uz](mailto:rtm@xtv.uz)



---

## Zamonaviy maktab. Ta’lim trayektoriyasi va kasblar kompassi.

(Ta’lim 2030. Ekspertlar fikri-turkumidan lavha...)

*Respublika ta’lim markazi,*

*sho’ba rahbari*

*P.F.N. Sayfurov Dadajon Muxammedovich*

**“Kelajak – maktab o’qituvchisining qo’lida”.**

*Viktor Gyugo.*

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qator qaror, farmon, me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Ta’lim tizimiga jadal suratlarda texnika, texnologiya va sanoat taraqqiyoti ta’sirida yuz bergan o‘zgarishlar kirib kelgan. Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi amalda.

2030 yil. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimi o‘quvchilar bilimini Xalqaro baholash PISA (The program for international student assesment-The Programme for International Student Assessment) dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatorida. 2019-2020 o‘quv yilida 1-sinfga borgan o‘quvchi 2030 yilda bitiruvchi bo‘ladi. Ekspertlar fikricha, 2030 yilda ta’lim tizimida faol pedagogik va tashkiliy-texnologik transformatsiya yuz beradi. Xo’sh o‘sha davrga nazar solsak:

- o‘qitish metodikasi va ta’lim-tarbiya jarayoni har bir o‘quvchi uchun individual;
- ta’limda san’at, kreativlik va akademik bilimlarni o‘zlashtirishning mukammal mexanizmi amalda;
- Xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar bo‘yicha (stiim) steam standartlar, dastur hamda darsliklar joriy etilgan;
- O‘quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun barcha texnik va texnologik sharoitlar mavjud.



- Fan olimpiadalarini o'tkazish mezonlari xalqaro olimpiada va musobaqalarning baholash mezonlari asosida;
- Iqtidorli o'quvchilar "onlayn olimpiada va sun'iy intellekt" yordamida aniqlanadi, tanlovning barcha bosqichlarida shaffoflik ta'minlangan;
- Ota-onalar o'quv-tarbiya jarayonida va uni dinamikasini uzluksiz kuzatishda faol ishtirok etadi;
- Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim olishi, jamiyat va jamoaga integratsiya qilish uchun tashkiliy-texnologik ishlar amalda, barcha ta'lim bosqichlari defektolog hamda psixologlar bilan ta'minlangan;
- Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko'tarilgan. O'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullari joriy etilgan.
- Ta'lim tizimi mazmuni uzluksiz ravishda o'zgarib turadi, variativ va intensiv o'quv dasturlari amalda, kadrlar malakasini oshirish onlayn rejimda.

Globalizatsiya jarayoni yuz berayotgan, internet, sun'iy intellekt texnologiyalari jadal kirib kelayotgan, ta'limda pedagogik va texnologik transformatsiyalar yuz berayotgan bir vaqtda:

Pedagogning kasbiy sifatlari, kompetensiyalari, o'quvchining raqamli portreti, xususan ta'lim jarayoni qanday bo'lishi kerak?

Avvalgi davrda yoshi katta, mo'ysafid insonlar, yoshlarga nisbatan tajribaliroq va ko'proq bilimga ega bo'lgan.

Raqamli davrda esa holat aksincha bo'lishi, ya'ni "Raqamli o'quvchilar" analog "O'qituvchilar" va "ota-onalar"ga nisbatan tezroq fikrlaydigan va ko'proq ma'lumotga ishlov bera oladigan kompetensiyalarga ega bo'lishi mumkin. Zamonaviy ta'lim jarayoni insonning, oilaning, professional hamjamiyatning, biznes va davlatning talablariga mos va adekvat tarzda javob berishi darkor. Shu shartlar qondirilgan ta'lim tizimining bitiruvchisigina mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erisha oladi.



Texnika va texnologiya ishlab chiqaradigan katta korporatsiyalar rivojlanish jarayonidagi tezkorlikda yangidan-yangi ish o'rinlarini yaratadi, kreativ va nostandart tarzda fikrlaydigan ishchilarga ehtiyoj ortadi. Ta'lim tizimidagi eng katta muammo taraqqiyot va ta'limning rivojlanish darajalari o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishga aylanadi. Raqamli va katta hajmdagi axborot davrida, ta'lim oluvchi muvaffaqiyatli va tadbirkor bo'lish uchun qanday kompetensiyalarga ega bo'lish kerak? An'anaviy ta'lim tizimida qayd etilgan kompetensiya va xususiyatlarga ega o'quvchini tarbiyalash juda ham murakkab ish.

Shuning uchun "Ta'lim 2030" qanday bo'lishi kerak?

Bugungi tizimdagi qaysi konstantalardan voz kechishimiz kerak?

2030 yilga qayta nazar solamiz:

Qayd etilgan texnologik, pedagogik va ijtimoiy transformatsiyalar yuz bergan vaqtda maktab o'quvchisi qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak?

### ***Ekspertlar fikri...***

#### ***2030 yilgi o'quvchi portreti:***

1. Akademik bilimga ega, bazaviy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay oladi;
2. Kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallagan, zarur holatlarda murakkab nostandart masala va muammolarni yecha oladi;
3. Kreativ fikrlaydi, yuzaga kelgan muammoni matematik va mantiqiy qonuniyat asosida ijodiy yondoshgan holda hal etadi;
4. Yuqori saviyadagi shaxsiy sifatlarga, ya'ni tez o'zgaradigan muhitga moslashuvchan, jamoa bilan tez til topishadigan, yuqori madaniyatga va intellektga, liderlik kompetensiyalarga ega;
5. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori saviyada egallagan;





6. Bir nechta xorijiy tillarni biladi.

2030 yildagi o'qituvchi ustoz qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak?

***Ekspertlar fikri...***

***Pedagog 2030.***

2. Pedagog bir nechta xorijiy tillarni mukammal egallagan;
3. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori darajada biladi;
4. Neyrotarmoq, neyro pedagogika, neyropsixologiya yo'nalishlarida kompetent;
5. Katta hajmdagi raqamli ma'lumot (Big data - Big data) bilan ishlay oladi;
6. (Data sayens) Data science yo'nalishida ilmiy izlanishlarda ishtirok etadi;
7. Tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarning haqiqiy manbalari bilan ishlash kompetensiyalarini yuqori darajada egallagan;
8. Ta'lim traektoriyasini loyihalashtirish va rejalashtirish borasida professional;
9. Katta hajmdagi bilimlar, axborot paketlari bilan ishlashda ustozlik qila oladi;
10. Ta'lim patternlarini matematik va psixologik jihatlarini tahlil qila oladi;
11. Vizualizatsiya va ta'lim didaktikasi masalalarida doimo izlanishlar olib boradi;

***Bilimlar manbasi:***

2030 yilda asosiy bilim olish kontenti, ta'lim mazmuni internet resurslari orqali taqdim etiladi. Klassik shakldagi darsliklar, o'quv kontentini o'zlashtirish uchun kalit, ya'ni o'quv kontentini tezroq



o'zlashtirish uchun ko'rsatma sifatida xizmat qiladi. Badiiy adabiyot va kitobxonlik jamiyatdagi eng zo'r trend.

### ***Maktab tizimi:***

Tizim ta'lim berishning har xil shakllaridan, faoliyatning to'ldirilgan borliq prinsipidagi simulyatorlaridan, ma'lum bir kompetensiyalarni shakllantirish uchun virtual o'yinlardan foydalanadi.

Ta'lim patternlari- insonning kundalik hayotidagi faoliyatining instinkt darajasidagi avtomatlashtirilgan sxemasi yoki modellaridan faol foydalanish boshlanadi. Kompyuterdagi dasturlar va virtual simulyatorlardan foydalanish jarayonida Siz ma'lum bir amallarni qandaydir chastotada qayta-qayta bajarasiz, mana shu harakatlardan sodir bo'ladigan ma'lumot birligini pattern deyiladi.

Barcha harakatlar tizimda qayd etiladi va bu ma'lumotlar sun'iy intellekt yordamida qayta ishlanadi. Shu qayta ishlangan ma'lumotlar asosida o'quvchining imkoniyatlari, qobiliyatlari va bo'lajak kasbini tanlashdagi moyilliklari xaritasi tuziladi.

### ***O'quv rejasi:***

Har bir o'quvchining imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan, individual. Baholashda birinchi o'ringa o'quvchining shaxsiy sifatlari, ko'nikmalari, ya'ni tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma'ruza qila olish, jamoada ishlay olish, liderlik, savodxonlik darajasi, kitobxonlik, jismoniy faollik darajalari, nostandart sharoitdan chiqib keta olish, kutilmagan muammolarni yechishda kreativlik kabi sifatlarni hisobga olinadi. Qayd etilgan barcha sifat va kompetensiyalar akademik bilimlar bilan birga baholanadi.

### ***Uyga vazifa:***

2030 yilda uyga vazifa masalasi kun tartibidagi muammo darajasidan olinadi. O'quvchining barcha sa'yi harakatlari va ta'lim traektoriyasi mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilgan. Eng asosiy uyga vazifa, qobiliyat va imkoniyat doirasida mustaqil



bajariladi. Qulay vaqt va sharoitlarda individual tarzda amalga oshiriladi.

Darslar jadvalichi? Maktab haftasiga 7 kun, 24 soat rejimida faoliyat ko‘rsatadi.

Bitta sinfda nechta o‘quvchi bo‘lishi mumkin?

Texnika asrida bitta sinfda hozirgidan ham ko‘p bola o‘qishi mumkin. Barcha darslar onlayn tarzda, virtual sinflar orqali taqdim etilsa, o‘quvchining qaysi xonada yoki binoda o‘tirishi ham ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi.

### ***Kasb tanlash:***

Kasbga yo‘naltirish masalasi ham o‘ziga xos uslubda hal etiladi. Ma‘lum bir hajmdagi ko‘nikmalarni egallagan o‘quvchi kasbni andazasini qiyoslab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu qanday amalga oshiriladi?

Bugungi kunda o‘yin yaratuvchi kompaniyalar “Profesional planetariy” tushunchasini ilgari surmoqda. Kasb tanlashni ixtiyor qilgan o‘quvchi kasbning virtual muhitiga sho‘ng‘ib ko‘radi.

Menyudan o‘ziga ma‘qul kelgan kasbni tanlaydi va pedagog yordamida kasb ssenariysi bo‘yicha ma‘lum bir amallarni bajarib ko‘radi.

Sun‘iy intellekt uni barcha harakatlarini baholaydi. Olingan natijalar asnosida kasb tanlash uchun yo‘llanma yoki tavsiyalar beriladi.

“Hozir-aynan shunday vaqtiki, bugungi kunimiz bizning ko‘z o‘ngimizda kelajakka aylanmoqda”- Ayzek Azimov.

### ***2030 yilda kasblar atlasini***

Raqamli ta‘lim. Raqamli kontent. Umuman raqamli dunyo faoliyatida qaysi kasblar dolzarb bo‘ladi? Qaysilari yo‘qolib ketadi?

Kasblar atlasida mutaxassisliklarni soni ko‘p.



Jamiyatda talab kamayishi kutilayotgan kasblar: Tovar poezdi mashinisti, yo'l patrul xizmati inspektori, qorovul, shaxtyor, qadoqlovchi, parmalash stanogida ishlovchi chilangar, tikuvchi, yuk tashuvchi ...

Yangi paydo bo'ladigan kasblar haqida. Ta'lim jarayoni va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga ta'lluqlilarini ko'rib chiqamiz.

Moderator, t'yutor, ta'lim trayektoriyasini loyihalashtiruvchi mutaxassis (metodist), onlayn ta'lim platformasi koordinatori (o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari), loyiha asosida o'qitadigan pedagog, o'yin asosida o'qituvchi pedagog, robototexnika asoslarini o'rgatuvchi muhandis-pedagog.

Yangidan paydo bo'ladigan, eng qiziqarli va yuqori saviyada til, axborot texnologiyalari va matematika uslublarini bilishni talab qiladigan kasblar:

Kiber tergovchi, kiberyurist, kiberauditor va shu kabilar.

### ***Xulosa:***

Xo'sh, ta'limga texnologiya shu darajada integratsiya qilinsa, nima hamma narsa virtuallashadimi?

Yo'q. Bugungi kunda jamiyatda kompyutersiz, robotlarsiz bajariladigan ishlar, kasblar ko'p. Xalq san'ati ijodi namunalari, kulolchilik, duradgorlik, o'ymakorlik va shunga o'xshash kasblarning qadri, ya'ni inson qo'li bilan ishlov berilgan san'at asarlariga bo'lgan talab yanada ortadi. Qog'ozda nashr etilgan yaxshi kitobning ham albatta o'rnini hech qanday texnologiya bosa olmaydi.



### O'qituvchilarga tavsiya:

1. Ta'lim sifatiga erishish uchun intensiv til, AKT va ta'lim berishning yangi metodlarini o'rganish ustida doimiy ishlash;
2. Steam pedagogikasi asoslarini o'zlashtirish;
3. Yangi kompetensiyalarni egallash uchun onlayn vebinarlarda ishtirok etish, tarmoq ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish;
4. Tarmoq pedagogikasi, psixologiyasi va virtual o'yin sifatida taqdim etiladigan (Gamefication) muhitlarni intensiv o'rganish;
5. Fan, yo'nalish borasida tashkil etilgan tarmoq kanallari, jamolari bilan faol ishlash;
6. Kasblar kompassi, texnologiyalar o'zgarishi bilan yangidan paydo bo'ladigan va talab kamayishi kutilayotgan kasblar haqidagi ma'lumotlarni mustaqil o'rganish;
7. Yangi kasbiy kompetensiyalar va ularni egallash uchun zarur bo'ladigan bilimlar bazasini fan yo'nalishida shakllantirish va yangilab borish;
8. Ta'lim traektoriyasi menejmenti yo'nalishida ilmiy izlanishlarni tashkil etish;
9. Integratsion pedagogika va psixologiyaning amaliy jihatlarini o'rganish.

Web-sayt: [www.rtm.uz](http://www.rtm.uz)

Telephone: (71)-246-16-87

Telegramm: <https://t.me/rtmlibrary>

Fikr va mulohazalar ugun: <https://t.me/rtmulohaza>

e-mail: [s\\_dad@mail.ru](mailto:s_dad@mail.ru)